

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

Islom dini tarixi va falsafasi
Fani bo‘yicha
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

TERMIZ – 2025

Tuzuvchi:

Tursunov A.SH. – TDMAU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Majitov. – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dots, f.f.d.

X.Xudoyberdiyev. – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dots, f.f.n.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan

Kafedra mudiri T.Xalyarov. _____

(kafedra majlisining 7-sonli bayonnomasi, __ _____ 2025 yil)

5 220 400 – “Dinshunoslik” yo‘nalishi o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

MUNDARIJA

<u>KIRISH</u>	4
<u>IShChI O‘QUV DASTUR</u>	5
.	
<u>MA‘RUZALAR MATNI</u>	21
<u>TA‘LIM TEXNOLOGIYaSI</u>	88
<u>ORALIQ NAZORAT O‘TKAZISH BO‘YICH A SAVOLLAR</u>	148
.	
<u>TEST SAVOLLARI</u>	151
<u>GLOSSARIY</u>	272
<u>FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARS LIKLAR VA O‘QUV</u> <u>QO‘LLANMALAR RO‘YXATI</u>	169
<u>MULTIMEDIYa</u>	

KIRISH

“Islom dini tarixi va falsafasi” o‘quv fani bo‘yicha o‘qitish texnologiyasi ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar texnologiyalashtirish qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv-uslubiy majmua kirish, o‘quv fani bo‘yicha ma’ruza, o‘qitish texnologiyalarining konseptual asoslari, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalaridan iborat.

«Konseptual asoslar»da « Islom dini tarixi va falsafasi» o‘quv fanining strukturasi va dolzarbligi, mazkur o‘quv fani bo‘yicha o‘qitish mazmuni bayon qilingan, o‘qitish usullari va vositalarini tanlashni belgilab beruvchi konseptual qoidalar asoslab berilgan. Shuningdek, quyidagi o‘qitish texnologiyalari keltirilgan:

1. 10 soat ma’ruza mashg‘ulotlarida kirish, mavzuiy, ekspert taklif etib, muammoli, ma’ruza-vizualizatsiya, ma’ruza-konferensiya, ma’ruza-diskussiya, muayyan vaziyatni tahlil qilgan holda ma’ruza, yakuniy ma’ruzalar kiritilgan.

2. 9 soat amaliy mashg‘ulotlarda keys-stadi usullari va o‘qituv o‘yinlari, olingan bilimlarni muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish (muammoli seminar), bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek, rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

3. 30 soat mustaqil ta’limda talabalarning erkin, mustaqil fikrlashga o‘rgatish maqsadida alohida mavzular tanlangan.

Taqdim etilgan o‘qitish texnologiyasi o‘qituvchilar tomonidan “Islom dini tarixi va falsafasi” fanini o‘qitishda TIUning “Islomshunoslik” yo‘nalishida va qo‘shimcha ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyalarida belgilangan shart-sharoitlar va ko‘rsatilgan vaqtga amal qilgan holda qo‘llanilishi mumkin.

TDMAU O‘quv ishlari va fan bo‘yicha
prorektori B.Primkulov _____

« » 2025 y.

fani bo'yicha

340 000 – Ishlab chiqarish ta’lim sohasidagi
5341100 – Iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha

Umumiy o‘quv soati	– 68
Shu jumladan:	
Ma’ruza	– 20
Amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari	– 18
Mustaqil ta’lim soati	– 30
Semestr	– 5

Tuzuvchi:

Tursunov A.SH. – TDMAU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

“TAVSIYa ETILGAN”

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan

Kafedra mudiri T.Xalyarov. _____

(kafedra majlisining 7-sonli bayonnomasi, __ _____ 2025 yil)

Fanning ishchi o‘quv dasturi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti O‘quv-metodik kengashining 2025 yil 28 avgust 1-son majlisida muhokama etildi va ma’qullandi.

5341100– “Iqtisodiyot” yo‘nalishi o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Taqrizchilar:

M.Majitov. – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dots, f.f.d.

X.Xudoyberdiyev. – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dots, f.f.n.

2025-2026 o‘quv yili uchun «Islom dini tarixi va falsafasi» fanidan ishchi o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

5220400-Dinshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha fanining ishchi o‘quv dasturiga qo‘yidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda:

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil avgust oyida Toshkent islom universiteti yangi binosining ochilishida bergan fikr va tavsiyalarining asosiy mazmuni. Prezidentimiz tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan, mamlakatimizda islom diniga oid manbalar, arxitektura, qadriyatlar kabilarni saqlab qolish, ta‘mirlash kabi ishlarni amalga oshirish jarayonida islomshunoslikka oid fanlarni yaxshi, chuqur bilgan zamonaviy, salohiyatli yetuk kadrlarni yetkazishda va hozirda mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llarini talabalarga yanada kengroq o‘rgatish maqsadida ma‘ruzada ko‘rilgan masalalar atroflicha yoritib beriladi.

Yurtimizda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni jadallashtirish, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma‘naviy merosni o‘rganib, xalqimizga taqdim etish, islom dinining muqaddas manbalarini asl mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash salohiyatiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dasturda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «2025 yilning asosiy yakunlari va 2026 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma‘naviy sog‘lom o‘sishi balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz», deya ta‘kidlagan so‘zlarida kelib chiqqan vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, dasturni tuzishda Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida «...yoshlarimizning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarini yechish, ijtimoiy sohaning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash, joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash...» xususida aytgan so‘zlarida aks etgan davrimizning dolzarb masalalari e‘tiborga olindi.

O‘zgartirish va qo‘shimchalarni kirituvchi: Tursunov A. _____

I. KIRISH

“Islom dini tarixi va falsafasi” kursi dinshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Islom dini tarixi va falsafasi kursi Arabistonda islomdan oldingi jamiyat, diniy va ma’naviy qadriyatlarning holati, o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat kabi mavzular bilan boshlanib, islom dinining yuzaga kelishi, Payg‘ambar a.s. faoliyatlari, Islom tarixining Makka davri, Madina davri kabi bosqichlari haqida ma’lumotlar beradi.

Islom tarixining keyingi bosqichi xulafoi roshidinlar tarixi bo‘lib, bu davrda olib borilgan ishlar, fath yurishlari, musulmon o‘lkasining kengayishi, islom davlatchiligining yangi ko‘rinishi mavzulariga batafsil to‘xtab o‘tiladi. Shuningdek, Umaviylar va Abbosiylar xalifaliklari davri tarixiga ham yetarlicha o‘rin beriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida talabalardan nafaqat seminar mashg‘ulotlariga mustaqil tayyorlanish, balki ayrim mavzu masalalarini mustaqil ravishda hamda referativ ishlarni tayyorlash talab etiladi.

O‘rganilayotgan kurs bevosita “Islom falsafasishunoslik tarixi”, “Islom falsafasishunoslikka kirish”, “Islomshunoslik” fanlari bilan uzviy bog‘liqdir. Fanni o‘rganish o‘qitishning an’anaviy va interaktiv, jumladan suhbat, disput, muammoli o‘qitish kabi usullarni qo‘llash va texnik vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Fanning maqsad va vazifalari

«Islom tarixi va falsafasi» fanini o‘qitishdan maqsad talabalarga Islom dinining paydo bo‘lish tarixi, xususan Payg‘ambarimizga vahiy kelishi, islomdan oldingi davrlarda arabiston yarim orolidagi madaniy hayoti haqida ma’lumotlar berish hamda talabalarga islom dinining asl mazmun-mohiyatini ochib berishdan iborat.

«Islom tarixi va falsafasi» fanining vazifalari quyidagilardan iborat: Mazkur fanni o‘qitish davomida bakalavrlar islom dinining davtlabki paydo bo‘lish tarixidan boshlab, Islom falsafasii karim haqida, dastlabki aqidaviy mazhablar tarixi hamda islom olamida yetishib chiqqan faylasuflar haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ushbu kursda hozirgi davrimizdagi ayrim diniy ekstremistik oqimlar haqida ham ma’lumot berilib, ularning o‘rta asrlardagi adashgan oqimlar bilan uzviy bog‘liq jihatlari haqida so‘z yuritiladi.

«Islom tarixi va falsafasi» o‘quv fani talabalar islom tarixiga oid yozilgan asarlarning barchasidan imkon qadar foydalanish, islom tarixi va falsafa fanlariga oid yozilgan hamda mavjud qarashlar va yondashuvlardan ilmiy xulosalar chiqara bilish, islomning asosiy g‘oyalarini noto‘g‘ri talqin qilganlarga qarshi manbalarga asoslangan va ilmiy asoslangan xulosalar chiqargan holda raddiyalar bera olish, islom dinida aqida, kalom va falsafa fanlarining o‘rnini dalillar asosida ko‘rsatib berish, payg‘ambarimizdan so‘ng musulmonlar orasida paydo bo‘lgan turli oqim va firqalarning ilgari surgan g‘oyalarini tahlil qilish, bakalavrlarda diniy bag‘rikenglik, davlat, jamiyat va din o‘zaro munosabatlaridagi muvofiqlikning zarurligini tushuntirish, ularda keng dunyoqarashni shakllantirish, diniy mutaassiblikka qarshi kurashda o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay bilish tajribasiga ega bo‘lishlari **uchun mo‘ljallangan.**

2. Fanni o'zlashtirishga qo'yilgan talablar.

Bakalavr:

- ilk islom dinining vujudga kelishi haqida;
- islom dinining dunyoga tarqalish jarayonlari haqida;
- islom dinining tarixiy taraqqiyoti haqida;
- islom dinining hozirgi kunda turli jamiyatlaridagi o'rni haqida **tasavvurga ega bo'lishi kerak.**
- islom ta'limotining shakllanishida o'sha davr ijtimoiy-ma'naviy muhitining ta'siri;
- xulafoi Roshidin va xalifalik tarxi
- umaviylar tarixining islom diniga ta'siri
- yangi ta'limotning mahalliy xalqlar tomonidan turlicha qabul qilinishi;
- islomdagi diniylik va dunyoviylik tamoyillari;
- bu dinning turli jamiyatlarda o'z funksiyasini bajarishidagi o'ziga xos jihatlari haqidagi bilimlarni **bilishi va qo'llay olishi kerak.**
- islomda dini tarixini mavjud faktlar asosida tahlil qila olish;
- turli davr va turli mamlakatlarda islomning egallagan mavqei haqida xolis baho bera olish;
- kishilarda diniy bag'rikenglik va keng dunyoqarashni shakllantira olish;
- soha bo'yicha egallagan bilimlarini o'z o'rnida ishlata bilish yuzasidan **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.**

3. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Fan Islomshunoslik tarkibiga kiradigan boshqa fanlar, jumladan, Islom falsafasi va tafsir, Hadis va hadisshunoslik, Islom manbashunosligi, Islomshunoslik, Kalom ilmi, Balog'at, Tasavvuf, Faroiz, Aqoid, Islom tarixi va falsafasi kabi fanlar bilan bog'liqlik jihati bor.

4. FANNING HAJMI VA MAZMUNI

4.1. Fanning hajmi.

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
1	Nazariy	20	5
2	Amaliy (laboratoriya)	18x2	5
3	Mustaqil ish	30	5
4	Nazoratlar	72	5

4.2. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI MAZMUNI VA ULARGA AJRATILGAN SOAT.

1-mavzu. Islom dini kelishi arafasida arablarda yakkaxudolik g'oyalari

Mazkur mavzu bo'yicha bakalavrlarda Islom dini paydo bo'lgunga qadar arablarda yakkaxudolik g'oyalarining sekin-asta shakllanib borayotgani haqida

ma'lumotlar beriladi. Xususan, o'sha davrda "haniflar" deb nom olgan, aslida nasroniy ham, yahudiy dinida ham bo'lmagan toifalarning yakkaxudolik g'oyalari haqida ma'lumot beriladi. Ulardan Usmon ibn Huvayris, Ubaydulloh ibn Jaxsh, Varaqa ibn Navfal, Zayd ibn Omirlar haqida to'xtalib o'tiladi.

Mustaqil ish: Haniflarning ilgari surgan yakkaxudolik g'oyalarining islomiy e'tiqodga o'xshash jihatlari.

2-mavzu. Payg'ambarimizning shajaralari va tavallud topishlari hamda birinchi vahiy kelishi va Payg'ambarimizning hijratlari

Ushbu darsda Payg'ambarimizning Ibrohim (a.s.)ga qadar bo'lgan nasl-shajaralari haqida, ul zotning tavallud topishlari, Hadicha (r.a.)ga uylanishlari, birinchi vahiyning nozil bo'lishi hamda Payg'ambarning Makkadan Madinaga hijrat qilishlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Mustaqil ish: Payg'ambarimizning Madinaga qilgan hijratlaridan so'ng islom dinining rivoji: ansorlar va muhojirlar.

3-mavzu. Islom falsafasii karim - Allohning muqaddas kitobi. Islom falsafasining sahifalanishi va oyatlari soni

Islom falsafasining nozil bo'lish haqida. Makkiy va madaniy suralarning farqi. "Sura" va "oyat" kalimalarining ma'nolari. Nozir bo'lgan oyatlarni jamlanish tarixi. Abdulloh ibn Mas'ud va Zayd ibn Sobitning Islom falsafasini mus'haf xolatiga keltirishdagi xizmatlari haqida hamda Islom falsafasidagi sura va oyatlarning adadi haqida ma'lumotlar.

Mustaqil ish: Makkiy va madaniy suralarning bir-biridan ajratish usullari.

4-mavzu. Xulafoi Roshidin, umaviylar va abbosiylar davri

Muhammad (s.a.v.) vafot etishlari. Xalifalik saylovi. Abu Bakr Siddiq xalifalik davri. Umar ibn Xattob xalifaligi davrida islom dinining tarqalishi. Usmon Ibn Affon xalifalik davri. Uyushtirilgan fitna oqibatlar. Ali ibn Abu Tolib xalifalik davri haqida. Jamal va Siffin voqealari. Xulafoi roshidun xalifalik davrida amalga oshirilgan islohotlar. Umaviylar xalifaligining tashkil topishi. Muoviya ibn Abu Sufyon umaviylar davlatining asoschisi. Umaviylarning fath yurishlari. Umaviylar davlatining inqirozga uchrash sabablari. Abbosiylar sulolasi hukmronligining boshlanishi. Abbosiylar davridagi islohotlar. Abbosiylar davrida ilm-fan, xo'jalik va madaniyatning rivojlanishi. Abbosiylar davlatining zaiflashishi va bo'linib ketishi.

Mustaqil ish: Xulafoi roshidin davri. Umaviylar davri..Abbosiylar davri.

5-mavzu. Shari'at ilmlari. Fiqh ilmi: usul al-fiqh va furu' al-fiqh

Shari'at so'zining ma'nosi shari'at insonning 5 ta asosiy manfa'atlarini muhofaza qilishga qaratilgan: 1. Dinni muhofaza qilish, 2. Hayotni muhofaza qilish, 3. Aqlni muhofaza qilish, 4. Nasl va avlodni muhofaza qilish, 5. Mulu mulkni muhofaza qilish. Shari'at ilmlaridan "Qiro'at ilmi", "Tafsir ilmi", "Hadis ilmi" haqida ma'lumot. Shari'at ilmlaridan fiqh ilmi uning maqsadi shari'at hukmlarini to'g'ri tushunish va amal qilish haqida.

Mustaqil ish: Usul al-fiqh v furu' al-fiqhning bir-biridan farqli jihatlari va o'rganadigan mavzulari haqida.

6-mavzu. Kalom ilmi tarixi va rivojlanishi

Kalom ilmining vujudga kelishi. Kalom ilmining tarixiy taraqqiyot yo'li. «Ilmul kalom» atamasi. Kalom atamasining keng va tor ma'nolarda qo'llanilishi. Mutakallimlar va faylasuflar o'rtasidagi farqlar. Ilohiyot, nubuvvat, kavniyot, sam'iyot haqida tushuncha. Kalom ilmining boshqa nomlari haqida. Salafining kalom ilmiga bo'lgan munosabatlari.

Mustaqil ish: Kalom ilmining “Aqoid”, “al-Fiqh al-akbar”, “Tavhid”, “Usul ad-din” kabi nomlariga oid mutakallimlarning asarlari haqida ma'lumot.

7-mavzu. Kalom ilmida Moturidiy ta'limoti va uning vakillari

Abu Mansur al-Moturidiy hayoti va ilmiy merosi haqida moturidiya ta'limotining paydo bo'lish tarixi. Movarounnahrda faoliyat olib borgan hanafiya-moturidiya ta'limoti vakillari: Abdilkarim al-Pazdaviy, Abu Yusuf al-Pazdaviy, Abul Mu'in an-Nasafiy, Najmiddin Umar an-Nasafiy, Alouddin as-Samarqandiy, Ibrohim as-Saffor, Alouddin al-Asmandiy kabi olimlarning ilmiy meroslari haqida ma'lumot.

Mustaqil ish: Abu Mansur al-Moturidiydan avval Movarounnahrda tarqalgan aqidaviy ta'limot va mutakallimlar hayoti va ilmiy merosi.

8-mavzu. Mo'taziliya ta'limoti vakillari va ularning aqidaviy qarashlari

Mo'taziliya ta'limotining keng tarqalishi: Bag'dod va Basra maktabi vakillari haqida ma'lumot. Mo'taziliya ta'limotining 5 ta asosi: 1. al-Adl – adolat, 2. at-Tavhid – yakkaxudolik, 3. al-Va'd val va'id – va'da va jazo, 4. al-Manzila bayna manzilatayn – arosat, 5. al-Amr bil ma'ruf van nahiy val mukar – yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish g'oyalarining asl mazmun-mohiyati haqida. Mo'taziliylarning aqlni naqldan (Islom falsafasi va hadis) ustun qo'yishlari haqida.

Mustaqil ish: Mo'taziliylarning o'rtasida ajralib chiqqan firqalar haqida ma'lumot.

9-mavzu: Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishi: dastlabki mutasavviflar

Hasan al-Basriyning faoliyati. Movarounnahrda yetishib chiqqan mutasavvif allomalar, xususan, Hakim at-Termiziy, Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, Xoja Axror Valiy kabi sufiylar haqida ma'lumotlar. Shuningdek, so'fiylikning kelib chiqishi. Islomning ilk davridagi so'fiylar. «Ahlu-s-suffa». Tasavvuf ilmining shakllanish bosqichlari. Tasavvuf ilmidagi maqomlar. Tasavvuf ilmining Movarounnahrda kirib kelishi. Tasavvuf tariqatlari. Xojagon, naqshbandiya, yassaviya, kubraviya tariqatlari. Tariqatlarning asoslari va tamoyillari. Tasavvuf manbalari. Tasavvuf adabiyoti. Uning paydo bo'lish sabablari.

Mustaqil ish: Tasavvufdagi ayrim adashgan tariqatlar haqida hamda ayni damda yurtimizda faoliyat olib borayotgan tariqatlar haqida.

10-mavzu: Islom dinida falsafaning o'rni va islom falsafasining paydo bo'lishi

Islom falsafasining yunon falsafasidan farqli jihatlar haqida. Islom falsafasining paydo bo'lish tarixi va omillari haqida. Islom falsafasining kalom, aqoid va fiqh ilmlari

bilan bog'liq jihatlari. Umaviylar Amiri Xolid ibn Yazid davrida Ximiya va Ilm an-ujum faning rivoji. VII asrga kelib arab fathi davrida yunon faylasuflarining, xususan Aristotelning mantiq asarlarini arab tiliga tarjima qilinishi haqida. Ibn Boja (v. 1138 y.), Ibn Tufayl (v. 1175) kabi arab faylasuflarining islom falsafasi rivojida xizmatlari haqida.

Mustaqil ish: Islom falsafasi tarixining tadrijiy bosqichlari va unda Movarounnahr va Xuroson olimlarining xizmatlari haqida.

4.3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

1-mavzu. Islom falsafasining nozil bo'lishi va uning jamlanishi

1. Payg'ambar (s.a.v.)ning vahiy yozuvchi kotiblari.
2. Abu Bakr as-Siddiq davrlarida Islom falsafasining sahifalarga jamlanishi.
3. Islom falsafasining tarkibiy tuzilishi.

2-mavzu. Shari'at va fiqh tushunchalari

1. Shari'at haqida tushuncha.
2. Islom qonunchiligi taraqqiyot bosqichlari.
3. Shari'at ilmlari haqida ma'lumot.

3-mavzu. Kalom ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishi

1. Payg'ambarimiz (s.a.v.) davrlarida kalom ilmi.
2. Kalom ilmining Movarounnahrda kirib kelishi.
3. Kalom ilmiga ulamolarning (salaflar) bo'lgan munosabatlari.

4-mavzu. Kalom ilmida Moturidiy ta'limoti va uning vakillari

1. Abu Masur al-Moturidiy hayoti va ilmiy merosi.
2. Moturidiy Abu Hanifa ta'limoti izdoshi.
3. Moturidiy ta'limotining Movarounnahrda tarqalishi va uning namoyondalari.

5-mavzu. Mo'taziliya ta'limoti

1. Vosil ibn Ato mo'taziliya ta'limotining dastlabki vakili.
2. Xalifa ma'mun davrida mo'taziliylarning faoliyatlari.
3. "Islom falsafasi maxluqdir" degan aqida ostidagi siyosat.

6-mavzu. Shialik

1. Shialarning paydo bo'lish davri: Abbosiylar va umaviylar davri.
2. Shialardan chiqqan toifalar: rofiziylar, isna ashariyalar.

7-mavzu. Xavorijlar

1. Siffin va jamal jangi tarixi.
2. Muoviya ibn Abi Sufyonning Ali (r.a.) qarshi chiqishlari.
3. Xavorijlarning paydo bo'lishi.

8-mavzu: Tasavvuf

1. Hasan al-Basriyning ilmiy merosi va Tasavvufdagi o'rni.
2. Movarounnahrda Tasavvufning kirib kelishi tarixi.
3. Movarounnahrda yashagan mutasavviflar va tariqat ahillari.

9-mavzu: Islom dinidagi dastlabki falsafiy asarlar

1. Abu Yusuf Ya'qub ibn Is'hoq al-Kindiy – birinchi arab faylasufi.
2. Islom falsafasida yaratilgan birinchi falsafiy asarlar.
3. Al-Kindiy ijodiga bo'lgan munosabatlar.
4. Abu Nasr al-Farobiy ijodida falsafiy g'oyalari.
5. Abu Ali Ibn Sinoning islom falsafasidagi tutgan o'rni.
6. Yuqoridagi ikki faylasuf ijodida Aflotun g'oyalari.

6. MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI MAZMUNI VA ULARGA AJRATILGAN SOATLAR.

1-mavzu. Islom dini kelishi arafasida arablarda yakkaxudolik g'oyalari

Haniflarning ilgari surgan yakkaxudolik g'oyalarining islomiy e'tiqodga o'xshash jihatlari.

2-mavzu. Payg'ambarimizning shajaralari va tavallud topishlari hamda birinchi vahiy kelishi va Payg'ambarimizning hijratlari

Payg'ambarimizning Madinaga qilgan hijratlaridan so'ng islom dinining rivoji: ansorlar va muhojirlar.

3-mavzu. Islom falsafasii karim - Allohning muqaddas kitobi. Islom falsafasining sahifalanishi va oyatlari soni

Makkiy va madaniy suralarning bir-biridan ajratish usullari.

4-mavzu. Shari'at ilmlari. Fiqh ilmi: usul al-fiqh va furu' al-fiqh

Usul al-fiqh va furu' al-fiqhning bir-biridan farqli jihatlari va o'rganadigan mavzulari haqida.

5-mavzu. Kalom ilmi tarixi va rivojlanishi

Kalom ilmining "Aqid", "al-Fiqh al-akbar", "Tavhid", "Usul ad-din" kabi nomlariga oid mutakallimlarning asarlari haqida ma'lumot.

6-mavzu. Kalom ilmida Ash'ariya ta'limoti tarixi va uning vakillari

Abu Hasan al-Ash'ariyning mo'taziliyadan voz kechish sabablari va Bag'doddagi ilmiy faoliyati.

7-mavzu. Kalom ilmida Moturidiy ta'limoti va uning vakillari

Abu Mansur al-Moturidiydan avval Movarounnahrda tarqalgan aqidaviy ta'limot va mutakallimlar hayoti va ilmiy merosi.

8-mavzu. Moturidiya va Ash'ariya ta'limotlari o'rtasidagi farqlar

Abu Azbaning "ar-Ravdat al-bahiya fi ma moturidiya va ash'ariya" asarining ikki maktab ta'limotini qiyosiy o'rganishdagi ahamiyati.

9-mavzu. Mo'taziliya ta'limoti tarixi va uning rivojlanishi

Imom Ahmad ibn Hanbalga nisbatan mo'taziliylarning "Islom falsafasi maxluqdir" degan aqidalarini singdirishdagi ta'ziyqlari haqida.

10-mavzu. Mo'taziliya ta'limoti vakillari va ularning aqidaviy qarashlari

Mo'taziliylarning o'rtasida ajralib chiqqan firqalar haqida ma'lumot.

11-mavzu. Shialar tarixi haqida ma'lumot va ularning rivojlanishi

Shialarning fihiy va aqidaviy qarashlari va ularning botilligi haqida.

12-mavzu. Xavorijlar haqida ma'lumot

Siffin jangidan so'ngi ilk tafriqalanish haqida ma'lumotlar.

13-mavzu: Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishi: dastlabki mutasavviflar

Tasavvufdagi ayrim adashgan tariqatlar haqida hamda ayni damda yurtimizda faoliyat olib borayotgan tariqatlar haqida.

14-mavzu: Islom dinida falsafaning o'rni va islom falsafasining paydo bo'lishi

Islom falsafasi tarixining tadrijiy bosqichlari va unda Movarounnahr va Xuroson olimlarining xizmatlari haqida.

15-mavzu: Islom dinida dastlabki falsafiy asarlarning paydo bo'lishi va ularga munosabat

Kindiy ijodida yunon falsafasining ta'siri. Kindiy va Aristotel qarashlarida aqlning ahamiyati.

7. FANNI O'QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Mazkur fanni o'rganish o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, shuningdek, elektron dasturlar va darsliklar, audio va video materiallar va boshqa texnik vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

8. TAQVIM MAVZUIY REJA

№	Dars turi	Mavzuning nomi	Ajr. soat
1.	Ma'ruza	Islom dini kelishi arafasida arablarda yakkaxudolik g'oyalari	2
2.	Ma'ruza	Payg'ambarimizning shajaralari va tavallud topishlari hamda birinchi vahiy kelishi va Payg'ambarimizning hijratlari	2
3.	Ma'ruza	Islom falsafasii karim - Allohning muqaddas kitobi. Islom falsafasining sahifalanishi va oyatlari soni	2
4.	Seminar	Islom falsafasining nozil bo'lishi va uning	2

		jamlanishi	
5.	Seminar	Shari'at ilmlari. Fiqh ilmi: usul al-fiqh va furu' al-fiqh	2
6.	Ma'ruza	Xulofoi Roshidun, umaviylar va abbosiylar davri	2
7.	Ma'ruza	Shari'at ilmlari. Fiqh ilmi: usul al-fiqh va furu' al-fiqh	2
8.	Ma'ruza	Kalom ilmi tarixi va rivojlanishi	2
9.	Seminar	Kalom ilmida Moturidiy ta'limoti va uning vakillari	2
10.	Ma'ruza	Kalom ilmida Ash'ariya ta'limoti tarixi va uning vakillari	2
11.	Seminar	Mo'taziliya ta'limoti	2
12.	Ma'ruza	Kalom ilmida Moturidiy ta'limoti va uning vakillari	2
13.	Seminar	Shialik	2
14.	Seminar	Xavorijlar	2
15.	Ma'ruza	Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishi: dastlabki mutasavviflar	2
16.	Seminar	Tasavvuf	2
17.	Ma'ruza	Islom dinida falsafaning o'rni va islom falsafasining paydo bo'lishi	2
18.	Seminar	Islom falsafasi tarixi	2
19.	Seminar	Islom dinidagi dastlabki falsafiy asarlar	2
Jami			38

9. O'QUV USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI RO'YXATI.

Asosiy:

1. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992.
2. Bosvort K.E. Musulmon sulolari tarixi. T.: Fan, 2007.

Qo'shimcha:

3. Ahmad Muhammad Ahmad Jaliy. Dirosa an al-firaq fi tarix al-muslimin «al-xavorij va-sh-shiy'a». Ar-Riyod. 1988.
4. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
5. Al-Jazariy, Muhammad Nurulloh Saydo. Tasavvuf sirlari. Toshkent, 2000.
6. Al-Mavsua al muyaassara fi-l-adyon va-l-mazohib al-muosira. Ar-Riyod. 1988.
7. Al-Mavsua al muyaassara fi-l-adyon va-l-mazohib va-l-ahzob al-muosira. II jild. Ar-Riyod, 1999.
8. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Sayid Mahmud Taroziy-Oltinxonto'ra tarjimasini. T.: Mehnat nashr., 1991.

9. Bartold V.V. Raboto‘ po istoriiislama i Arabskogo Xalifata. Soch. Tom 4. M. 1966.
10. Belyaev Ye.A. Arabu, islam i Arabskiy Xalifat v rannee srednevekove. M. 1966.
11. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, I tom, T.: 1968.

10.DIDAKTIK VOSITALAR.

- jihozlar va uskunalar, moslamalar: parta, stul, doska, bo‘r, daftar, ruchka.
- kompyuter va multimediali vositalar: noutbuk, kolonka, proektor.

**REYTING ME'YORLARI BO'YICHA TAVSIYALAR
JORIY NAZORATNING ME'YORLARI**

№	Baholash shakllari	Baho	Joriy baholash
			20 ballik taqsimotda
1.	Dars odobi		2
2.	Uy vazifasini bajarish		4
3.	Darsning boshqa <u>zaruriy</u> natijalari		5
	55%	Qoniqarli	11
4.	Erkin fikrlash va olgan bilimlarining amalda qo'llashi		4
	71%	Yaxshi	15
5.	Faollik darajasi		3
	86%	A'lo	18
6.	Ijodiy yondashuv		1
7.	O'rnak bo'ladigan ma'naviy va ma'rifiy ko'rsatkichi		1
Jami (maksimum) : 20 ball			20

«
A'lo
»

-

18
balldan
- **20**
gacha
a

«Yaxshi» - 15 balldan - 17 gacha
«Qoniqarli» - 11 balldan - 15 gacha

ORALIQ NAZORATNING ME'YORLARI

№	Baholash shakllari	Baho	Oraliq baholash
			30 ballik taqsimotda
1.	Dars odobi		3
2.	Uy vazifasini bajarishi		6
3.	Darsning boshqa <u>zaruriy</u> natijalari		8
	55%	Qoniqarli	17
4.	Mustaqil fikrlash va olgan bilimlarining amalda qo'llashi		5
	71%	Yaxshi	22
5.	Faollik darajasi		5
	86%	A'lo	27
6.	Ijodiy yondashuv		2
7.	O'rnak bo'ladigan ma'naviy va ma'rifiy ko'rsatkichi		1
Jami (maksimum) : 30 ball			30

«A'
lo»

-

27
balldan
- **30**

gacha

«Yaxshi» - 22 balldan - 26 gacha
«Qoniqarli» - 17 balldan - 21 gacha

UMUMIY REYTING ME'YORLARI

№	Baholash shakllari	Baho	Joriy nazorat	Oraliq nazorat	Joriy nazorat	Yakuniy nazorat
---	--------------------	------	---------------	----------------	---------------	-----------------

			20 ballik Taqsi- motda	30 ballik Taqsi- motda	20 ballik Taqsi- motda	30 ballik Taqsi- motda
1.	Dars odobi		2	3	2	3
2.	Uyga vazifa va mustaqil ta'limning bajarilishi		4	6	4	6
3.	Darsning boshqa zaruriy natijalari (bilim, ko'nikma va malakalar)		5	8	5	8
55 %		Qoniqarli	11	17	11	17
4.	Mustaqil fikrlash darajasi va olgan bilimlarini amalda qo'llashi		4	5	4	5
71 %		Yaxshi	15	22	15	22
5.	Faollik ko'satkichi		3	5	3	5
86 %		A'lo	18	27	18	27
6.	Ijodiy yondashuv		1	2	1	2
7.	O'rnak bo'ladigan ma'naviy va ma'rifiy ko'rsatkichi		1	1	1	1
JAMI (maksimum) : 100 ball			20	30	20	30
			70			30

«A'lo» - 86 balldan - 100 gacha
 «Yaxshi» - 71 balldan - 85 gacha
 «Qoniqarli» - 55 balldan - 70 gacha

Mustaqil ish ballari joriy va oraliq baholashlarda hisobga olinadi. Talabaning bali, qo'yilgan ballarning o'rta arifmetigidan olinadi. Agar talaba darsda qatnashmagan bo'lsa va yetkazuv ishini amalga oshirmasa, unga shu dars uchun nol ball qo'yiladi. Masalan:

	1	2	3	4	5	6
F.I.Sh.	07.02	14.02	21.02	28.02	06.03	13.03
Azimov A.	19	18	y	16	13	14

$$\frac{19+18+0+16+13+14}{6} = 13, (3)$$

Demak, 13 ball hisoblanadi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

«ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI»

FANI BO‘YICHa

MA‘RUZALAR MATNI

Oliy ta’limning

340 000 – Biznes va boshqaruv ta’lim sohasidagi

5341100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi
bo‘yicha

TOSHKENT – 2011

Tuzuvchi:

C.Oqilov “Islomshunoslik” kafedrası o‘qituvchi

“TAVSIYa ETILGAN”
“Islomshunoslik” kafedrası
majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan
Kafedra mudiri Rahimjonov D.O.
(kafedra majlisining __-sonli
bayonnomasi, “__” _____ 2009 yil)

Fanning ishchi o‘quv dasturi Toshkent islom universiteti O‘quv-metodik kengashining 2009 yil “ ” avgust _ -son majlisida muhokama etildi va ma’qullandi.

5A220401 – “Islomshunoslik” yo‘nalishi o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Taqrizchilar:

A.Mansurov – TIU "Islomshunoslik" kafedrası katta o‘qituvchisi

R.Obidov – TIU “Islomshunoslik” kafedrası dotsenti, t.f.n.

KIRISH

Qadim Movarounnahr o'lkasi ilm-fan va ma'rifatning, shu bilan biraga san'at, madaniyat va me'morchilikning ham manbai bo'lgan. Shu sabab ham "Samarqand ro'yi zaminig eng go'zal yurti, Buxora esa, islom dining quvvat beruvchi shahri" degan haqqoniy bir ibora paydo bo'lgan. Ikki daryo o'rtaligida joylashgan ushbu daryoning bilim bulog'i ekanligini oldin ham, hozirda ham Sharq va G'arb tan olgan va tan olmoqda. Lekin afsuski, yigirmanchi asrning oxirgi o'n yilligiga qadar-Sobiq Ittifoq davrida allomalarimiz nomlari yashirildi, "Sizlar savodsiz xalqsizlar"-degan tamg'a bosildi. Natijada xalqimiz, ularning kimligini bilmadi, o'zini savodsiz millat deb hisobladi. Allohga shukurlar bo'lsinki, yorug' kun kelib, xalqimizdan bunday tamg'a olindi, mute'lik zanjiri uzildi, xalqimiz o'z tarixiga, undagi olimlariga, o'zining o'zbek ekanligiga g'urur bilan qaraydigan bo'ldi. Bu kun yillar davomida orzuga aylangan-Yurtimizni mastaqilligi kunidir. Ushbu kundan boshlab, ayni unit bo'lgan allomalarimiz nomlarini qayta tiklanishi, ularning boy ilmiy merosini xalqimiz ongi va shuuriga yetkazish siyosati ilgari surildi. Endi yelkasiga oftob tegib, erkin nafas ola boshlagan xalq qullik kishanini qaytadan kiymaydi¹.

Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari qadimdan boy falsafiy, ijtimoiy-axloqiy an'analarga ega. Ayniqsa, O'rta Osiyo, Eron va Afg'aniston xalqlari o'rtasida ko'p mushtaraklik va o'xshashliklar mavjud. Ular azaldan bir-biri bilan iqtisodiy va madaniy aloqa qilganlar. Boz, ustiga shunday davrlar bo'lganki, bu mamlakatlar bitta davlat tarkibiga kirgan: O'rta asrlarda Xuroson hozirgi Eron, Afg'anistonning juda ko'p maydonini qamrab olgan edi. Bu mintaqa asosan turkigo'y va forsgo'y xalqlardan iborat bo'lib, XIV-XV asrlarda Temuriylar boshchiligidagi markazlashgan davlatga birlashgan edi.

Mana shuning uchun ham yuqoridagi mamlakatlar xalqlarining o'ziga xos madaniyati bo'lishi bilan bir qatorda, ular o'rtasida ma'naviy yaqinlik bor. Zero ularning tarixiy taqdiri bir xil bo'lib, moddiy va ma'naviy boyliklar bir-biriga o'tib va ta'sir qilib turgan. Ayniqsa, bu hol ularning urf-odatli, marosimlari, xulq-odobi, turmush tarzida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zaro aloqadorlik, bir-biriga ta'sir ijtimoiy-falsafiy, axloqiy muammolarni yoritishda ham ko'zga tashlanadi.

O'tmishning mashhur mutafakkirlari o'z falsafiy ta'limotini asoslashda faqat qadimgi yunon mutafakkilarining boy ilmiy merosidan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, qo'shni arab mamlakatlari, Turkiya, Eron, Afg'aniston, Hindiston, Xitoy madaniyati ilmiy yutuqlari, fandagi kashfiyotlaridan ham ogoh bo'lganlar.

¹ Каримов И. А. Озод обод Ватан, эркин ва фаровон шаёт пиравард ма=садимиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2000. Ж. VIII. Б. 24.

1-ma'ruza. Islom dini kelishi arafasida arablarda yakkaxudolik g'oyalari

Dars rejasi:

- 1. Islom arafasida diniy tafakkur*
- 2. Islom arafasida arablarda yakka xudolik g'oyalari*
- 3. Hanif so'zining ma'nosi, haniflar*
- 4. Islom falsafasida karimda kelgan haniflar bayoni*

Islom arafasida diniy tafakkur tez rivojlanganining yorqin dalili – har xil aqidalarning ko'pligidir. Johiliya arablarining «dahr» aqidasi alohida to'xtash lozim. Bu aqida insonning taqdiri oldindan belgilanganligi, u erkin iroda yoki ixtiyor egasi emasligi, peshonasiga «yozilgan» narsa albatta sodir bo'lajagi va undan qutulib bo'lmasligi haqida edi. Aksariyat johiliya arablari shu aqidada edilar, deb taxmin qilish mumkin. Zero, taqdiri – falakka ishonish ular dunyoqarashini asosini tashkil qilar etardi. Narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zahmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qilganga azob berilishiga ishonch yo'q edi. Borliqning egasi, oliy hokimi sifatida muayyan bir xudodan ko'ra ko'proq qandaydir «Dahr», inson irodasi bilan hisoblashmaydigan va undan yuqori turadigan tasodifiy o'zgarishlar jarayoni tasavvur qilinardi. Ularning e'tiqodicha, o'limdan so'ng hamma narsa tugaydi, shuning uchun bugungi kun bilan yashab qolish kerak.

Bunday kayfiyat ayniqsa quraysh zodagonlari orasida kuchli edi. Balki, nima uchun keyinchalik islom adabiyotida «dahriy» so'zini «mo'min»ga nisbatan antonim sifatida ishlatilganini shu bilan izohlash mumkindir. «Dahriy»lar haqida Islom falsafasida quyidagi so'zlar aytilgan: «ular deydilar: faqat bitta – bu dunyodagi hayotimiz bor – yashaymiz va o'lamiz: bizni faqat dahr (vaqt, taqdir, falak) halok qiladi» (al – Josiya, 24). Arabcha «dahr», «manun - manoyo», «ajal - ojol», «hatf - hutuf», bizning tilimizda esa «o'lim», «taqdir», «ajalning yetishi», «falak» ma'nolarini anglatadigan so'zlar bilan ifodalangan bu aqidaga ko'ra insonning taqdiri uning qo'lida emas ekan, o'z navbatida bu hol qaerdadir eng qudratli, undan qudratlisi bo'lmagan bir kuch mavjudligini taqozo etadi. Chunki kuchli taqdirlovchi bo'lmasa, taqdir o'z – o'zidan sodir bo'lmaydi. Johiliya she'riyatida bu kuchning insonga nisbatan fe'li – a'moliga ishoralar bor, ammo biron marta ham uning ismi berilmagan.

Makkadagi markaziy ibodatxona - Ka'bada arablarning uch yuzdan ortiq sanamlari joylashtirilgan, ularning ichida eng mashhurlari – Hubal va «Allohning qizlari» nomini olgan al – Lot, Manot va al – Uzzalar edi.

Bundan bir yarim asr muqaddam nemis olimi Maks Myuller politeizm bilan monoteizm o'rtasidagi o'tkinchi bir bosqich to'g'risida yozgandi; genoteizm deb atalgan bu davrda inson boshqa ko'p xudolarning mavjudligiga ishongan holda muayyan bir bosh xudoga sig'inadi. Tavhid (yakkaxudolik) g'oyasiga intilish, bilishimizcha, ko'p qadimgi xalqlarga xos narsa. Buning natijasi o'laroq qadimgi

yahudlarda Yaxve, yunonlarda Zevs, rimlilarda Yupiter, turkiy xalqlarda Tangri va slavyanlarda Perun tushunchasi vujudga kelgan. Arablarda bu g'oya «Alloh» nomi va uning rasuli Muhammad faoliyatida o'zining to'la ifodasini topdi.

«Alloh» tushunchasi dastlab arablarda qachon paydo bo'lganini aniq aytish qiyin. Islom arafasida «Alloh» arablar xudolarining eng ulug'i (Johiliya she'riyatida Alloh bilan qasam ichish iboralari ko'p uchraydi), Islomda esa u yakkayu – yagona, borliqning yaratuvchisi, Qiyomat kunining Parvardigor – egasi, insonlarga Muhammad (sav) ni o'zining elchisi sifatida yuborgan Xudodir. Islom falsafasida Alloh tomonidan jazolanib yo'q qilib yuborilgan qavmlar orasida samud qabilasi eslatiladi. Ana shu samudlarning Ravvafadagi ibodatxonasidan topilgan II-III asrlarga tegishli yozuvda Alloh ismi aniq-ravshan o'qiladi. Matn tarjimasida quyidagicha: «Bu - Allohning kohini, robotulik Magiduning o'g'li Sha'udat bizning xojamiz-noib janoblarining homiyligida Allohga - Samud xudosiga atab qurgan uy». Demak, milodning II-III asrlarida, ya'ni islom ta'limotidan qariyb 5 asr oldin samudlar o'zlarining bosh xudosini Alloh deb ataganlar.

«Alloh» Makka ahlining bosh xudosi maqomida bo'lgan degan fikr ham bor. Islom falsafasining qurayshiylarga qaratilgan quyidagi oyatlari buning tasdig'i bo'lishi mumkin: «Chindan ham sen ulardan «Osmonlar va Yerni barpo qilgan, Quyosh va Oyni odamlarga xizmat qildirgan kim?»...»Kim samodan suv tushirib, o'lgan yerni qayta tiriltiradi» deb so'rasang, ular «Alloh» deydilar (Ankabut, 61-63). Al-An'om surasining 148-oyatida: «Mushriklar albatta aytadilar: «Agar Alloh xohlaganida na biz va na otabobolarimiz mushrik bo'lmasdik», degan so'zlarni uchratamiz. Bunday so'zlarni aytishi mumkin bo'lganlar, albatta, Alloh to'g'risida tuzukkina tushunchaga ega bo'lganlar.

Nihoyat, manba'larga ko'ra, Makka zodagonlari islom arafasida savdo-sulh bitimlari va boshqa har qanday huquqiy hujjatlarni «bismika Allohumma» iborasi bilan boshlashni odat qilganlar. Bu arablarning hayotida bevosita islom arafasida juda katta o'zgarish yuz berganidan dalolatdir. Zero, mazkur iboradagi «Allohumma» so'zi aniq-ravshan yagona xudoga ishora qiladi va semantik jihatdan «Alloh» so'zidan farq qilmaydi (bu yerda «umma» so'z yasovchi suffiks emas, balki «qotib» qolgan morfemadir). Milodiy 615 yili Qurayshiy zadagonlar Hoshimiylar xonadonini Makkaning chekkasi «Sha'b Abu Tolibga» badarg'a qilganlarida teriga yozilgan, keyinchalik qurt yeb ketgan hujjatning tepasiga «bismika Allohumma» deb yozib qo'yilgandi. Hijraning 6-yili (628 y.) aynan shu ibora bilan bog'liq qiziq voqea yuz berdi. Muhammad payg'ambar va Makka mushriklarining vakili Suhayl ibn Umar o'rtasida Hudaybiya bitimi yozilayotgan paytda rasululloh «Bismillohir Rahmonir Rahim» bilan boshlashni buyurdi. Ammo Suhayl bunga e'tiroz bildirib, «bismika Allohumma» deb yozishni talab qildi. Kotiblik qilayotgan Ali b. Abu Tolib qanchalik norozilik bildirmasin, Muhammad (sav) sulhga erishish maqsadida bu talabni qabul qildi. Gap shundaki, Suhayl «Alloh» so'ziga emas, balki, butun iboraga qarshi edi, chunki «Bismillohir Rahmonir Rahim» sof islom iborasi bo'lib, uni mushrik qabul qilishga tayyor emasdi. Demak, Makka ahli to'lig'icha diniy jihatdan johil, xalq va xoliq tushunchalaridan bexabar deyish juda ham to'g'ri emas ekan. Ularning ma'lum

qismi yagona xudoning mavjudligiga iqrор bo'lgan, islom tavhidiga juda yaqin bo'lgan g'oyalarga e'tiqod qilgan kishilar bo'lib chiqyapti.

YI asr oxiri va YII asr boshlarida arab xalqining asrlar uzra hukmron bo'lib kelgan dinidan voz kechib, mukammal falsafiy dinga yetishish uchun intilishining ramzi sifatida hanifchilik (tahannuf) harakati yuzaga keldi. Haniflar ochiqdan-ochiq sanamlarni masxara qilar, jamiyatda keng tarqalgan ichkilikbozlik, qimor o'yinlari va boshqa zararli illatlarga qarshi kurashga chaqirardilar. Islom falsafasining to'qqizta surasida haniflar zikr qilingan. Bu suralarning mazmuniga ko'ra haniflar «yahudiy ham, xristian ham, mushrik ham emas, balki Ibrohimni o'zlariga o'rnak qilib olgan kishilardir». Ibn Hishom o'zining "Sira"sida haniflardan Zayd bin Amr, Varaqa bin Navfal, Ubaydulloh bin Jahsh, Usmon bin Huvayrislarning qisqacha tarjimai hollarini keltirib, ular kichik bir guruh (usba) tashkil qilganlari, qurayshlarning toat-ibodatlar va marosimlarini inkor qilganlarini qayd qiladi.

Islom falsafasining 9 ta surasida (Baqara, 135; Ol-Imron, 67; an-Niso, 125; al-An'om, 79, 161; Yunis, 105; an-Naxl, 120, 123; ar-Rum, 130; al-Haj, 31; al-Bayyina, 5) haniflar zikr qilingan. Bu suralarning mazmuniga ko'ra, haniflar yahudiy ham, xristian ham, mushrik ham emas. Balki Ibrohimni o'ziga o'rnak qilib olgan, ya'ni Ibrohimga ergashgan, unga izdosh bo'lgan kishilardir. Ibrohimga eng yaqin kishilar jumlasiga Islom falsafasi Muhammad payg'ambar va imon keltirganlar (ya'ni musulmonlar)ni qo'shadi. Hozirgi zamon arab tilida ham "hanif", "hunafu" so'zlarini "haqiqiy musulmon", "yagona Alloxga e'tikdga asoslangan haqiqiy din" (ya'ni islom) ma'nolarida ishlatiladi. Demak, Islom falsafasi talqiniga ko'ra, Muhammad "mil-lat Ibrohim hanif"ga mansub bo'lib, "din Ibrohim hanif"ni tiklagan va davom ettirgan bo'lib chiqadi.

Umayya bin Abu Saltga mansub xisoblangan bir baytda "Qiyomat kunida Alloh oldida din al-Hanifadan boshqa hamma dinlar soxtadir ("Kullu dinin yovmal-qiyoma in-dalloxi illo al-Hanifa zo'r", — degan so'zlar bor ⁴¹. Av-valambor, bu so'zlarning o'zi soxta bo'lmasa, ya'ni bu so'zlar haqiqatan Umayyaga tegishli bo'lsa, unda "hanif", "hani-fiya" atamalarining Umayya bergan talqini Islom falsafasi va umuman islom talqinidan farq qilmayapti.

Islom arafasida ba'zilar rohib libosini kiyganlarni hanif deb hisoblardilar, ammo Muxdmmad ularni haniflarga muxolif deb bilardi. Shunday rivoyat bor: rohib libosini kiyganlardan Abu Omir bin Nu'mon Ma-dinaga kelib, payg'ambarini uchratibdi-da: Bu yerga nima olib kelding?" — deb so'rabdi. Payg'ambar: "Ibrohimning dini — haniflikni", — deb javob beribdi. "Men ham shu dindaman", — degan ekan Abu Omir, "Yo'q, sen u dinda emassan, balki unga unda bo'lmagan narsani kiritgansan, sen fosiqsan", — debdi payg'ambar. Abu Omir, shu rivoyatga ko'ra, Muhammad(s.a.v)ga achchiq qilib, Madi-naga qarshi qo'shin yuborish, ya'ni islomga qarshi kurashga ko'ndirish maqsadida Vizantiyaga o'tlanibdi, ammo u yerga ketayotib, u Shomda vafot qilibdi

Tayanch iboralar: Alloh, Dahriy, hanif, Ibrohim alayhissalom, Zayd bin Amr, Varaqa bin Navfal, Ubaydulloh bin Jahsh, Usmon bin Huvayris, Hubal va «Allohnin g'izlari» nomini olgan al – Lot, Manot va al – Uzzo, Maks Myuller

Adabiyotlar:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Islom falsafasii karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.
2. Hasanov A.A. Qadimgi Arabiston va ilk islom Johili asri. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti.
3. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. – T., 1992.
4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2006.
5. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar, I tom, – T.: Fan, 1968.
6. Karomatov H.S. Islom falsafasi va o'zbek adabiyoti. T., Fan, 1993.

2-ma'ruza.

Payg'ambarimizning shajaralari va tavallud topishlari hamda birinchi vahiy kelishi va Payg'ambarimizning hijratlari

Dars rejasi:

1. *Muhammad (sav)ning tavallud topishlari va shajaralari*
2. *Payg'ambarimiz (sav) ga ilk vahiyning nozil bo'lishi*
3. *Rasululloh (sav) ning Makkadan Madinaga hijratlari*

Muhammad (sav) har bir inson boshidan kechirishi lozim bo'lgan takomul bosqichlarini bosib o'tdi. U 570 yilda uncha boy bo'lmagan, ammo Makkaning mashhur urug'iga mansub oilada tug'ildi. Otalari Abdulloh yozgi Shom safari paytida farzandlarini ko'rmay, onalari esa 6 yil keyin olamdan o'tdilar. Yosh Muhammad ikki yil Makkaning yirik arboblardan hisoblangan bobolari Abdulmuttalib tarbiyasida bo'ldilar. Bobolari vafotidan so'ng 8 yoshlaridan u kishiga amakilari Abu Tolib homiylik qildilar. O'sha davr taomuliga ko'ra bunday homiylik yuridik status (maqom)ga ega bo'lib, zarur paytda u butun hoshimiylar xonadonining himoyasini ta'minlardi. Payg'ambar poda boqish bilan juda erta mehnat faoliyatini boshladi. Bu kamtarinlikka va har qanday mehnatni qadrlashga o'rgatdi. O'spirinlik yillarida "Fijor" urushida amakilari bilan bir safda qatnashib, tegishli harbiy ko'nikmaga ega bo'ldilar. So'ng qarindoshchilik, qabilachilikdan qat'i nazar mazlumnining tarafini olishga qaratilgan "Fudul ittifoqi"ga a'zo bo'lib siyosiy tajriba orttirdilar. Xadicha onaning moli bilan Shom safariga borishlari va u kishi bilan turmush qurishlari katta ro'zg'orni boshqarish mahoratini berdi. Shu paytdan boshlab Makkaning ko'zga ko'ringan kishisiga aylandilar va va'daga vafodorligi va sodiqligi tufayli hamma u kishini

Muhammad Amin deb atay boshladi. 35 yoshlarida Makka rahbarlari Ka'bani qayta qurishga qaror qildi. Qora toshni o'rniga qaytib qo'yish masalasida nizo chiqqanda uni juda tez va hikmat bilan hal qilganlari hammani qoyil qoldirdi.

Aytish mumkinki, shu voqeadan so'ng u kishining shaxsiy hayotlarida keskin o'zgarish yuz berdi. Qabiladoshlarining e'tiqodi noto'g'ri yo'lda ekaniga ishonchlari komil holda bobokalonlari Ibrohim alayhissalom yo'li (tavhid)ni qayta tiklash tadorikini o'ylay boshladilar. Shu maqsadda har yili Ramazon oyida tanholikni ixtiyor qilib, Hiro tog'idagi g'orda chilla tutdilar. Nihoyat, 40 yoshga yaqinlashganlarida 610 milodiy yili Ramazon oyining 17 kuni Jabroil alayhissalom orqali Allohdan "Alaq" surasining besh oyati u kishiga birinchi vahiy bo'lib keldi.

Shu yerda bir nuqtaga e'tibor berish zarur. Islomiy adabiyotga ko'ra Islom falsafasining nozil bo'lishi va Payg'ambarga birinchi vahiy kelishi bir narsa emas, boshqa – boshqa narsa. Islom falsafasining "Inna anzalnahu fiy laylatil qadr" oyatiga ko'ra, Islom falsafasi bir varakayiga Allohning o'zi tomonidan yettinchi osmondan birinchi (dunyo) osmoniga "laylatul qadr" kechasi, ya'ni Ramazon oyining 26 dan 27 ga o'tar kechasi nozil qilingan. Birinchi vahiy esa, Islom falsafasining boshqa oyatiga ko'ra "Yavmal Furqon yavma iltqa al - jam'an", ya'ni Furqon kuni (yaxshilik – yomonlikni ajratadigan kun), ikki jamoa to'qnashgan kuni (Badr jangi yuz bergan kunga ishora; bu 17 – ramazon kuniga to'g'ri keladi) sodir bo'lgan. Payg'ambarga vahiylarning kelishi 23 yil davom etgan: 13 yil Makkada va 10 yil Madinada. Vahiy hodisasi (fenomeni)ni ratsional uslub vositasida tushuntirish amri – mahol narsa, zero Jabroil alayhissalomni faqat Payg'ambar ko'rgan va eshitgan. Hatto Xadicha ona ham qanchalik urinmasin biron marta ko'rishga muyassar bo'lmagan.

Aytishlaricha, Muhammadning payg'ambarlik faoliyati birinchi bor erta tong yog'dusiga o'xshash ro'yadan boshlangan. Buning ma'nosi-uning ichki dunyosi tashqi (zohir) hayotining davomi bo'lib qoldi, degani, ya'ni uning zehni o'ngida ham, tushida ham bir narsa: o'zi qabul etishga va boshqalarga yetkazishga tayyor bo'lgan din bilan band bo'ldi. Payg'ambarning Makkadagi hayoti davrida islomga da'vat sof diniy tusda edi, faqat Madinaga hijrat qilingandan keyin u siyosiy qiyofa kasb etdi. Bu tabiiy hol, zero, dastlab aqidani qaror toptirmoq, g'oyalarni qalblarga jo qilmoq, qulay sharoit yaratilgandan so'nggina shu asosda jamiyat qurmoq mumkin edi. Islom falsafasining Makka va Madina suralari bunga dalil.

Islomga da'vat arablar uchun batamom yangi, ularga avvallari noma'lum bo'lgan yoki ular ishonmaydigan ba'zi tushunchalarni olib keldi. Ularning birinchisi va eng muhimi - «vahdoniyat»- yakka xudolikning yangicha talqini, ikkinchisi - oxirat, qiyomat kuni hisob berish va u bilan bog'liq narsalar, nihoyat, uchinchisi - payg'ambarga Allohdan vahy bo'lib tushgan kitobdir.

Ushbu yangi tushunchalarni kiritish bilan barobar payg'ambar batamom yangicha axloq tarbiyachisi sifatida maydonga chiqdi. U qadimgi razil odatlarni rad etib, keyinchalik islom axloqi yoki payg'ambar sunnati nomini olgan maslakni targ'ib qildi. Payg'ambarning da'vati johiliya arablari uchun shunchalik begona ediki, hatto ular, Islom falsafasi ta'biri bilan aytganda, «oldin o'tgan bobolarimizdan bularni eshitmagandik», «bu haqda boshqa millatda (dinda) ham eshitmagandik», derdilar.

Demak, bular umuman arab jamiyati uchun ham va xususan arablar orasidagi boshqa millat (din) vakillari (yahudiylar, xristianlar) uchun ham yangilik edi.

Payg‘ambar deyarli uch yil maxfiy ravishda da‘vat bilan shug‘ullandi. Birinchi da‘vatlar faqat eng yaqin qarindoshlarga qaratildi («vanzir ashirataka-l-aqrabiyn» - ash-Shuaro, 214). Sababi - urug‘chilik udumiga ko‘ra qarindoshlari uni himoya qilishlari mumkin edi. Shundan so‘ng unga butun Makka va uning atrofida qilargalarga murojaat etish buyurildi («litunzira Umm al-quro va man havlaho» - ash-Sho‘ro, 7). Makka deganda asosan quraysh qabilasi ko‘zda tutilsa, atrofi esa quraysh bilan ittifoqdosh qabilalarni o‘z ichiga olardi. Demak, mantiqan dastlab urug‘ bilan yakdillik, so‘ng qabila sadoqati (asabiya) Muhammad (sav) ga muvaffaqiyat keltirishi lozim edi. Ammo unday bo‘lmadi, chunki boshqa turdagi asabiya g‘olib keldi. U ham bo‘lsa, qadimgi odatlarga sodiqlik hissi. Islom falsafasida aytilishicha, «agar ular bir nojo‘ya ish qilib qo‘ysalar, otalarimiz shunday qilgan va Allohning bizga amri bu, derdilar» (al-A‘rof, 28). Aynan mana shu hissiyot dastlabki davrlarda ko‘pchilikning payg‘ambarga ergashishiga yo‘l bermadi. Hatto hoshimiylar xonadoni ham urug‘chilik odatiga ko‘ra payg‘ambar tarafida bo‘lgani, uni himoya qilganiga qaramay, yoppasiga islomga kirmadi.

Yana bir muhim narsani e‘tiborga olmoq darkor. Makka zodagonlarining butun fikri – zikri halqaro savdodan katta daromad olish bilan band edi. Bu boylikning zaminida esa, butparastlikka asoslangan diniy marosimlar yotardi. Islom ta‘limoti butparastlikni tag – tomiri bilan yo‘q qilishga qaratilgandi. To‘g‘ri, dastlab Makka zodagonlari Muhammad (sav) ta‘limotiga tegishli e‘tibor bermadilar: unga haj mavsumi paytlarida vasaniyaga qarshi faoliyat olib borgan, shovqin suronli, adabiy, she‘riy va shunga o‘xshagan boshqa turli harakatlarga qaraganday munosabatda bo‘ldilar. Ammo tez orada sezildiki, ish ular o‘ylagandan xatarliroq tus ola boshladi. Muhammad (sav) ga ergashayotgan, uni payg‘ambar – rasul deb e‘tirof etayotganlar va shu yo‘lda da‘vat qilayotganlar soni kundan – kunga ortib bordi. Payg‘ambar turli urug‘ vakillaridan bir qanchasini o‘z atrofida to‘plashga erishdi. Quraysh zodagonlari dastlab hoshimiylar xonadonining boshlig‘i Abu Tolibdan Muhammad (sav) ota – bobolar e‘tiqod qilib kelgan xudolarni haqorat qilish, qabilani ichdan qo‘porishni zudlik bilan to‘xtatsin, deb talab qildilar. Abu Tolib bu haqda Muhammad (sav) ga aytganda, u: «Agar bir tarafimga Quyoshni, ikkinchi tarafimga Oyni qo‘yib, bu ishni tashlashni so‘rasalar, o‘lsam ham ko‘nmayman», - deb javob qildi.

Ataba bin Rabi‘a degan bir shaxs Quraysh zodagonlari nomidan bevosita Muhammad (sav) ga murojaat qilib: «Boylik istasang, to‘plab beraylik, toki eng boy kishi bo‘lgin. Shon – shuhrat istasang, o‘zimizga boshliq yoki podshoh qilaylik va so‘zingdan chiqmaylik. Agar senga kelayotgan «narsa» sen daf qilish ilojini topa olmayotgan qandaydir arvohlar bo‘lsa, tabib axtaraylik, toki qancha mablag‘ sarf qilib bo‘lsada, seni ulardan xalos qilaylik», - debdi. Unga javoban Muhammad (sav) Islom falsafasi oyatlaridan tilovat qilish bilan cheklanibdi. Ataba tushunibdiki, bu masalada Muhammad (sav) bilan hech qachon kelishib bo‘lmaydi.

Shundan so‘ng quraysh zodagonlari Muhammad (sav)ga qarshi turli usullar bilan kurashni avj oldirdi. Uni sehrgar, majnun, yolg‘onchi deb e‘lon qildilar. Unga ergashganlarga azob berdilar. Muhammad (sav) sahobalardan bir guruhini

Habashistonga jo'natishga majbur bo'ldi, zero xalqaro savdo yo'llari ustidan hukmronlik uchun kurashda Makkaning raqibi bo'lgan Habashiston muhojirlarni yaxshi qabul qilishiga ishonch bor edi. Darhaqiqat, shunday bo'ldi ham. Ayni shu paytda Makkada ko'zga ko'ringan ikki shaxs islomga kirdi: payg'ambarning suyukli amakisi Hamza b. Abdulmuttalib va Umar b. al-Xattob. Quraysh qisqa muddat musulmonlarga tazyiqini susaytirishga majbur bo'ldi.

Ammo tez orada mushriklarning adovati yanada ashaddiylashdi. Shahar boshliqlari eng qattiq chora ko'rishga qaror qildilar: ular Muhammad (sav) va uning tarafdorlari bilan aloqalarni batamom uzish haqida shartnoma qabul qildilar. Shundan so'ng musulmonlar shaharning janubi- sharqiy chekkasidagi «shaa'b Abu Tolib» deb nomlangan joyga badarg'a qilindilar. Surgun deyarli 3 yil davom etdi. Qurayshni keskin qoralovchi Islom falsafasi oyatlari aynan shu yillari nozil bo'lgan (al-Anbiyo, 98-100; al-Humaza, 1-9; al-Qalam, 10-15; al-Furqon, 27-29; ad-Duxxon, 43-48). Pirovardida tadbir mushriklar uchun muvaffaqiyatsiz tugadi.

Ammo taqdir taqozosi bilan shu yil (619y.) Muhammad (sav) uchun og'ir qayg'u yili bo'ldi: bir oy ichida u ikki eng aziz kishisi - amakisi Abu Tolib va rafiqasi Xadichadan judo bo'ldi. Salkam bir oydan so'ng haj marosimi boshlandi va payg'ambar hojilar orasida o'z ta'limotini targ'ib qila boshladi. Shu yoki kelasi yili Yasribdan kelgan hojilar rasulullo va uning ta'limoti bilan qiziqib qoldilar. Bir qaraganda deyarli ahamiyatsiz ko'ringan bu voqea yaqin kelajakda Muhammad (sav) va islom taqdirini batamom o'zgartirib yubordi. Kelasi yili (620y.) Xazrajdan 6 vakil Muhammad (sav) bilan uchrashdi va nafaqat islomni qabul qildi, balki uni Yasribda yoyishga va'da berdi ham. 621 yilgi haj mavsumida Yasrib arablaridan 12 kishi (9 xazrajiy va 3 ausiy) rasulullo bilan uchrashuvga keldi. Uchrashuv Makka va Mino orasidagi Aqaba degan joyda yuz berdi va uning natijasida birinchi bor erishilgan kelishuv «birinchi Aqaba qasamyodi» (bay'at al-Aqaba al-uvla) degan nomni oldi.

Shuni ta'kidlash joizki, hijradan taxminan bir yil oldin, ya'ni Aqaba uchrashuvi bilan deyarli bir paytda "Me'roj" hodisasi bilan bog'liq al – Isro surasi nozil bo'lgani e'lon qilingandi. Mazkur suraning 1- oyati quyidagi mazmundadir: «Bir kuni kechasi oyati – mo'jizalarimizni ko'rsatish uchun o'z bandasi (Muhammad)ni (Makkadagi) Masjid al – Haromdan biz atrofni tabarruk qilib qo'ygan (Quddusdagi) Masjid al – Aqsoga sayr etdirgan Zot (Alloh)ga hamdu sanolar bo'lsin!». Tafsirlarga qaraganda, Payg'ambar Buroq ismli otga minib, Makkadan Quddusga, Quddusdan yetti osmonga ko'tarilgan va malakut olamini ziyorat etgan. Sidratul-Muntahoda aytishlaricha, Payg'ambarga uch narsa berildi: Baqara surasining oxiri (Omanarrasulu), Allohga shirk keltirmaganlar jannatga kirishi huquqi va me'roj hadyasi sifatida besh vaqt namoz. Bularning hammasi shunday qisqa fursatda voqe' bo'lganki, Payg'ambar chiqib ketayotib hujra eshigini yopganlarida qimirlab qolgan xalqa qaytib kelganlarida ham silkinib turgan ekan. Ilohiyotda me'roj masalasiga aql bovar qilmaydigan ilohiy hodisa deb qaraladi. Bizningcha, hijra arafasida, o'sha murakkab sharoitda bu o'ziga xos bir imtihon rolini o'ynadi. Hech ikkilanmasdan Me'rojni tasdiq etgan kishigina mo'min bo'lishi mumkin edi. Har bir musulmon bu masalaga munosabat bildirishi kerak bo'ldi.

Birinchi bo‘lib buni tasdiq etgan Abu Bakr «Siddiq» - tasdiq etuvchi degan nomni oldilar.

Yana bir yil o‘tgach, 622 yilgi haj mavsumida 73 erkak va 2 ayoldan iborat Yasrib musulmonlari jamoasi keldi. Ular tunda yashirinchalik Muhammad (sav) bilan uchrashdilar. Ikkala tomon yana bir bor ahdi-paymon qildilar. Ikkinchi Aqaba qasamyodi nomini olgan bu tadbirdan so‘ng payg‘ambar Yasrib ahlining a‘zosi sifatini oldi. Hozirgi zamon iborasi bilan aytganda bu Makka shahar-davlati fuqaroligidan Yasrib shahar-davlati fuqaroligiga o‘tish degan so‘z edi. Ikkinchi Aqaba uchrashuvidan so‘ng Makka musulmonlari yakka holda yoki jamoa-jamoa bo‘lib Yasribga ko‘cha boshladilar. Yasrib ahli, rivoyatlarga qaraganda, har kuni erta sahardan to‘qoq peshinga qadar shahar tashqarisiga chiqib payg‘ambarning kelishini kutardi.

Quraysh zodagonlari Muhammad (sav) ning Makkadan ketishi oqibatini aniq – ravshan tasavvur qildilar. Albatta, payg‘ambar Yasribda yagona rahnamo bo‘lib qoladi, islom Arabiston bo‘ylab tarqala boradi va Makkaning nufuziga bolta uriladi. Xo‘sh, nima qilmoq kerak? Nihoyat, Makka zodagonlari Muhammadni qatl qilmoq, lekin bu tadbirni jamoat – jam bo‘lib o‘tkazish, har bir urug‘dan bir navqiron yigit ajratilib, bir paytning o‘zida qilich urishi haqida qaror qabul qildilar, toki uning urug‘i barcha urug‘larga qarshi urush e‘lon qila olmasin va xun bilan cheklansin. Muhammad (sav) va uning safdoshlari tadbirkorlik ko‘rsatdilar va hijra muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirildi. Ayni shu kunlarda Islom falsafasining hijra xususidagi oyatlari (Tavba, 40, an-Niso, 97) nozil bo‘lgan. Demak, hijra islom dinining sunnatlaridan biri degan ta‘rifni oldi. Payg‘ambar esa uni to‘8-hijriy yil, ya‘ni Makka fath qilingunga qadar Yasrib shahar-davlatining qonuniy fuqarolik huquqiga aylantirdi. Hijra islom tarixida batamom yangi - Makkadan keskin farq qilgan Madina davrini boshlab berdi.

Tayanch iboralar: *Muhammad (sav) tavalludi, yoshligi va ulg‘ayishi, rasululloh, vahiy tushunchasi, birinchi vahiy, ikkinchi vahiy, yangi tushunchalar, maxfiy da‘vat, oshkora da‘vat, tazyiqlar, Habashistonga hijrat, «sha‘ab» Abu Tolib, Aqaba bay‘atlari.*

Adabiyotlar:

1. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Sayid Mahmud Taroziy-Alixon to‘ra tarjimasini. T., Mehnat, 1991.
2. Usmon Keski o‘g‘li. Hazrati Payg‘ambar hayoti. / Turkchadan Ibrohim Yo‘ldosh Jo‘raboy o‘g‘li tarjimasini. – T., 1997.
3. Muhammad Xuzariy. Nur-ul yaqin. M.Solihning arab tilidan o‘g‘irgan uyg‘urcha matni asosida E.Usmon o‘zbekchalashtirgan. – T.: Cho‘lpon-Kamalak, 1992. – 288 b.
4. Imom al-Buxoriy: Al-Jomi‘ as-sahih: IV jild. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
5. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2004.
6. Islom tarixi darsligi. Mualliflar jamoasi. – T: 2007.
7. Ahmad Lutfiy. Saodat asri qissalari. – T: Sharq, 2005.

3-ma'ruza.
Islom falsafasii karim - Allohning muqaddas kitobi. Islom falsafasining
sahifalanishi va oyatlari soni

Dars rejasi:

1. *Islom falsafasi nozil bo'lishi arafasida Arabiston yarim orolidagi yozuvlar*
2. *Islom falsafasining sahifalanishi*
3. *Islom falsafasining jamlanishi va oyatlarning soni*
4. *Islom falsafasining yetti xil lahjada nozil bo'lishi*

Islom bayrog'i ostida birlashgan arab qabilalari tomonidan turli qo'shni mamlakatlarni zabt etish natijasida mutlaqo yangi geopolitik holat vujudga keldi. Qadimiy boy an'analarga ega bo'lgan Misr, Suriya, Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyo kabi madaniyat o'choqlari istilo etilib, bir davlat ichiga birlashtirildi. Natijada, tarixiy sivilizatsiyalar o'rtasida bevosita muloqot boshlanib, yangi islom madaniyati shakllana boshladi. Ichki Arabiston hududida shaharlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, hajmi va ahamiyati jihatdan yangi bo'lgan markazlar vujudga kela boshladi. Ularning shakllanishida arablar bilan bir qatorda boshqa xalq vakillari ham faol qatnashdilar. Yangi shaharlar qurilishi davlatning harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlashda muhim o'rin egalladi.

Har bir xalqning madaniy yuksalishi va sivilizatsiyasining baholanishida yozuv muhim o'rin tutadi. Arab yozuvi IV asrda oromiy-nabotiy yozuv asosida paydo bo'ldi. Bu yozuv Hijozda tarqalgandan so'ng, *hijoziy* deb nomlana boshlandi. Arabiston yarim orolida hijoziy yozuvdan oldin makkiy va madaniy yozuvlar mavjud edi. Makka shahrida Madina shahar-davlatiga qaraganda yozuv ilgariroq paydo bo'lgan. Buning sababi savdo sotiq rivojlangan jamiyatda dehkunchilikka asoslangan jamiyatdan ko'ra yozuvga extiyoj ko'proq bo'ladi. Makkaliklar savdo-sotiq shartnomasini oldindan yozib qo'yar edilar. Islom dini tarqala boshlagan davrda Arabiston yarim orolida *hijoziy* xat turi keng qo'llanilar, *vahy*, Abu Bakr sahifalari va 'Usmon mus'hafi shu xatda bitilgan edi. 'Usmon mus'hafi har xil yordamchi shakl va nuqtalardan xoli yozilgan. Unga *juz'lar*, *hizblar* va boshqa ko'rsatkichlarning alomatlari qo'yilmagan. Kufiy yozuvi paydo bo'lguncha Mus'haf va boshqa hujjatlar ana shu xatda yozilgan. *Kufiy* yozuvi *hijoziy* xatining naqsh bilan bezatilganidir. *Kufiy* xati o'zining shakli jihatidan chiroyli va qulay bo'lganligi sababli Islom falsafasi va boshqa asarlar *kufiy* xatida bitila boshladi.

Arabiston yarim orolida xat-yozuv mavjud bo'lsada, u mukammal emasligi, arab bo'lmagan aholi uchun o'rganishning qiyinligi bilan ajralib turgan. Arab istilolari Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqqan davrda ham islom davlati hukumatiga oid

hujjatlar zabt etilgan hudud tilida olib borildi. Masalan, devon ishlari Misrda qibtiy, Shomda yunon, Iroqda esa fors tillarida yuritildi. Ma'lumki, xalifa 'Umar ibn al-Xattob devonlar tizimini xalifalik tizimiga eronliklardan o'zlashtirdi. Avvalo, eronliklar uchun devonlar tizimi qadimdan ma'lum bo'lib, uni boshqa tilda olib borilishi bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. Ikkinchidan, arablar tomonidan zabt etilishiga qaramasdan o'z tillarini saqlab qolgan Shom va Misrda hukumatga oid hujjatlar Arabiston yarim orolidagi mavjud *hijoziy* yozuvning noqulayliklaridan voz kechish maqsadida amalga oshirildi. Chunki, *hijoziy* yozuvida 22 harf mavjud bo'lib, harflarning bir-biriga qo'shish orqali yasaladigan tovushlar tabiiyki, arab bo'lmagan aholi talaffuzida noaniqliklar yaratar edi.

Aholining kundalik madaniy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadigan vositalardan biri pul muomalasidir. Arab-musulmon davlati Vizantiya va Sosoniylar imperiyasiga tegishli hududlarni zabt etganlaridan keyin ham bu davlatlarda qadimdan mavjud bo'lgan tilla va kumush tangalardan foydalanildi. Albatta, bu tangalardagi zardushtiylik va xristian dinlariga oid timsollar saqlanib qoldi. Bu tangalar Umaviy xalifa 'Abd al-Malik ibn Marvon davrigacha shu xolatda zarb etilaverdi. Demak, yangi tashkil topayotgan davlatda istilo etilgan hududlarni islomlashtirish bilan birga arablashtirish tizimi bir hilda amalga oshirilmadi. Buning asosiy sabablaridan biri arab yozuvining boshqa yozuvlardan noqulayligi va kechroq ya'ni, IV asrdan keyin paydo bo'lgani bo'lsa, ikkinchidan, zabt etilgan hududlarda yashovchi tub aholining madaniyati arab madaniyatiga nisbatan avvalroq rivojlanganidir.

Islom falsafasining jamlanishi. Islom falsafasi – islom dinining asosiy manbasi va qadimiy adabiy-tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanadi. U VII asrdagi arablar hayoti va ijtimoiy holatini o'zida aks ettiradi. Unda diniy-falsafiy tasavvurlar va rivoyatlar, qabila-urug'chilik hayot tarziga xos an'ana, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy qonun-qoidalar, oila-nikoh, ajdod va avlodlarga munosabat, mulkchilik va vorislik, savdo-sotiq va qarz-muomalalariga xos ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, Muhammad payg'ambar davrida Islom falsafasii karim yetti xil lahjada (610-632 yillar) nozil qilingan. Abu Bakr to'plam holiga keltirgan Islom falsafasida ham yetti *qiro'at* mavjud edi. Payg'ambar vafotidan so'ng arab istilolari natijasida turli mintaqa musulmonlarining Islom falsafasi tilovati bir-biridan farq qilib, turli tortishuvlarga sabab bo'la boshladi. Hududlardagi aholi Islom falsafasi tilovatini o'sha yerdagi qorilardan o'rganar edilar. Tabiiyki, bu qorilar biron-bir lahjaga mansub bo'lganlar. Masalan, Ho'ms va Dimashq ahli – Mu'oz ibn Jabal (vafoti 639 y.), Iroq ahli Ubayy ibn Ka'b, Kufa ahli 'Abdulloh ibn Mas'ud (vafoti 652 y.), butun Suriya ahli esa Ubayy ibn Ka'b (vafoti 650) va boshqalar esa Abu Muso al-Ash'ariy (vafoti 665 y.) qiroatida tilovat qilar edilar. Bu esa Ozarbayjon istilosi davrida katta ixtilof tug'ilishiga sabab bo'ldi. Xalifa 'Usmon ibn 'Affon yetti lahjadagi Islom falsafasi to'plamlarini yig'ib, yagona Quraysh lahjasiga asoslangan mus'hafni yozdirtirdi.

Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, ilk arab xalifaligi davrida arab yozuvi va grammatikasiga oid deyarli hech qanday islohot o'tkazilmagan. Ammo, 'Ali ibn Abu Tolib ko'rsatmasi bilan Abu-l-Asvad ad-Du'aliy (605-688) tomonidan arab tili grammatikasi «*an-Nahv*» ishlab chiqilgan. Lekin, uning mukammal emasligi va

foydalanishga noqulayligi amalda yaxshi natija bermagan. 669 yili Iroq voliyi Ziyod ibn Abihi (vafoti 673 y.) arab tilida «*an-Nahv*» darsligini yozdi va darslik keyingi yangi darsliklar tuzish uchun namuna vazifasini bajardi. Birinchi marta arab tilida *i'rob* (qisqa unli) harakatlarni ifodalovchi belgilardan foydalanildi. Natijada «a-◌◌◌», «i-◌◌◌», «u-◌◌◌» qisqa unlilar paydo bo'ldi. Bunday belgilar matn yozuvidagi siyohdan boshqa rangda bo'lib, arab yozuvining takomillashtirish uchun qilingan birinchi islohot bo'ldi. Arab tilining takomillashtirishidagi ikkinchi islohot esa, Umaviylar xalifaligi davrida, xalifa 'Abd al-Malik ibn Marvon (686-705) amalga oshirdi. Ibn Marvon ajamiy qorilarning Islom falsafasi o'qilishidagi ba'zi talaffuz xatolariga chek qo'yish maqsadida «ج», «ح», «خ», «ي», «ت» va «ث», «ص» va «ض», «ط» va «ظ», «س» va «ش» kabi shakli o'xshash xarflarga nuqtalar qo'yishni odat qilindi. Nuqtalar harfning bir bo'laki sifatida qabul qilinib, harf bilan bir xil siyohda yozildi. Demak, arablar nuqta va harakat belgilarini hijriy birinchi asrning ikkinchi yarmidan, ya'ni umaviylar davridan ishlatib boshladilar. Shunday qilib, keyingi davrdagi tahrirlar arab yozuviga tegishli bo'lib, Islom falsafasii karimning matniga mutlaqo ta'sir etmagan.

Islom falsafasii karim xalifa Abu Bakr davrida to'planib, 'Usmon davrida yozma holga keltirilgan ekan, uning holati Muhammad payg'ambar davrida qanday holatda bo'lganligi masalasi muhimdir. Ba'zi tadqiqotlarda ilk davrda Islom falsafasini musulmonlar yodlab olar, yozma nusxalari esa, hijratdan so'ng paydo bo'la boshladi, degan xulosalar uchraydi. Ammo, tarixiy ma'lumotlar Islom falsafasining nozil etilgan oyatlarini sahobalar yozib yurganliklari va uni boshqalarga tarqatganliklari haqida 'Umar ibn al-Xattobning Islom falsafasi oyatlari bitilgan matnni o'qiganligi va islom dinini qabul qilganligi (615 yil) dalil bo'ladi. Demak, Islom falsafasi oyatlarini musulmonlar hijratdan oldin ham yozma holga keltira boshlaganlar.

'Usmon ibn 'Affon xalifalik davrida Islom falsafasidagi sura va oyatlar ketma-ketligi tartibga solinib, hozirgi shaklga keltirilgan. Uzun suralar kitobning boshida, qisqa suralar uning oxiridan o'rin olishi, tadqiqotlarda aniqlanishicha, qadimiy arablarning va umuman Old Osiyodagi somiy xalqlarning an'anasi bilan bog'liq bo'lgan. Xilma-xil yozuvlar, rivoyatlar va adabiy asarlar to'planib kitob qilinganda, katta hajmdagi asarlar birinchi o'rinda, kichiklari keyin joylashtirilar edi. Zayd ibn Sobit (vafoti 665 y.) ham Suhufni to'plab dastxat qilishda ana shu an'anaga amal qilgan bo'lishi kerak.

Muhammad payg'ambar va ilk xalifalar davrida Islom falsafasii karimdan tashqari tarixiy ma'lumotlar og'zaki bo'lib, bir muncha kechroq kitobga tushirildi. Ba'zi sahobalargina Payg'ambar hadisleri doirasida tarixiy hodisalarni yozib borganlar. Al-Xulafo' ar-roshidun davrida Muhammad payg'ambar hadislarini «Agar Payg'ambar hadisleri yozma holga keltirilsa, u Islom falsafasi bilan aralashib ketishi mumkin», degan xavotirda ularni yozib olishni man qildilar. Ammo, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Abu Bakr Anas ibn Molikka (vafoti 711 y.) Payg'ambar tomonidan sanalgan sadaqalar taqsimotini yozib bergan. 'Umar ibn al-Xattob o'z davrida 'Utba ibn G'azvon (vafoti 638 y.)ga Payg'ambarning ba'zi sunnatlarni yozib bergan edi. 'Ali ibn Abu Tolib huzurida Muhammad payg'ambarning hadisleri yozilgan sahifalar saqlangan. Shuningdek, islom davlatida hadis maktabining rivojlanishida Sa'd ibn 'Uboda al-Ansoriy (vafoti 636 yil), 'Abdulloh ibn Abi Avfiy, Samura ibn Jundub (vafoti 682 yil),

Abu Hurayra (vafoti 676), Abu Muso al-Ash'ariy (vafoti 665 yil), Jobir ibn 'Abdulloh al-Ansoriy (vafoti 700 yil) va 'Abdulloh ibn 'Amr ibn al-'Oslarning (vafoti 685 yil) yozma holiga keltirgan Muhammad payg'ambar hadisleri asosiy rol o'ynadi. Demak, Muhammad payg'ambar vafoti bilan Alloh tomonidan yuboriladigan ilohiy vahiyler to'xtadi. Yangi shakllanib kelayotgan davlatni Muhammad payg'ambar davridagidek va uning sunnatlariga to'kis amal qilgan holda boshqarishga harakat qilish xalifalarning asosiy vazifalari edi. Natijada Muhammad payg'ambar qoldirgan hadis va ko'rsatmalarini to'plash va ularni yozma holga keltirish majburiyati yuzaga kela boshladi.

Musulmonlar Islom falsafasi, uning tafsiri va hadis ilmlarini o'rganish bilan birga, zabt etilgan davlatlarning tili, adabiyoti, urf-odatleri va ular o'rganayotgan ilmlarni o'rganishga harakat qila boshladilar. Savdo va hunarmandchilik, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqardi. Ularning yechimini topish ilm-fanning rivojiga turtki berdi. Arab-musulmon davlatining kengayishi va aholining ko'payishi, shaharlar sonining oshishi va umumiy taraqqiyot darajasi arab tilidan boshqa tillarni o'rganishni taqozo eta boshladi. Musulmonlar boshqa millat va davlat aholisini istilo eta boshlagach, Arabiston yarim orolidan tashqarida yashovchi xalqlarning tillariga muhtojlik seza boshlandi. Payg'ambar kotiblaridan Zayd ibn Sobit forsiy, rumiy, habashiy, ibroniy va suryoniy tillarida yozar va o'qir edi. Shuningdek, u Muhammad payg'ambarning buyrug'i bilan yahudiy tilini o'rgangan.

Tarix sohasi esa, Muhammad payg'ambar siyrasi va avvalgi payg'ambarlar qissalari bilan yonma-yon olib borildi. Musulmon bolalarga Islom falsafasi suralari o'qitilganidek, Payg'ambar hayoti ham o'rgatila boshladi. 'Ali ibn Abu Tolib Himyariylar davlati tarixini o'rganishga qiziqar edi.

Qadimda arablar yozishda yassi tosh, tuyaning kurak suyagi, daraxt po'stloqlari, gazlama matolar, terilar va papiirusdan foydalanganlar. Yozishda terining *ar-riqq*, *al-odim*, *al-qadim* kabi turlari qulay hisoblangan. Sahobalar Islom falsafasii karim suralarini uzoq saqlanadigan bo'lganligi uchun *ar-riqq* terisiga yozishga ijmo' qilganlar.

Arab madaniyati – deb nom olgan madaniyat musulmon xalqlarining an'analari asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat bo'lib xizmat qildi. Arab tili – islom dini birlashtirgan xalq va elatlarning aloqa tiliga aylandi. Arablar Vizantiyaga qaram bo'lgan Suriya, Misr va Eronda mavjud ijtimoiy va siyosiy davlat tizimi, ma'muriy tashkilotlar, moddiy va ma'naviy hayot udumlarini o'zlashtirdilar. Shuningdek, Sosoniylar davlatidan markazlashgan davlat idorasi, soliq siyosati va ishlab chiqarish usulini qabul qildilar. Davlatdagi taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida yaqin aloqalarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojiga turtki berdi. Natijada xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati yevropadagi tarqoq davlatlar, mamlakatlar madaniyatidan yuqori darajaga yetdi.

Tayanch iboralar: Hijoziy yozuvi, «kuttab al – vahiy», Zayd ibn Sobit, «as – suhuf al - Bakriya», Usmon Mus’hafi, yetti qiroat, i’rob, Imom Mus’haflar, sura, oyat, juz’; “ ar – riqq” terisi.

Adabiyotlar:

1. Islom tarixi darsligi. Mualliflar jamoasi. – T: 2007.
2. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2004.
3. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1991.
4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas’ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2006.
5. Yo‘ldoshxo‘jaev H. Rahimjonov D. Komilov M. Dinshunoslik. Ma’ruzalar matni. – T., 2000.

4-ma’ruza.

Xulafoi Roshidin va xalifaliklar davri

Dars rejasi:

1. *Islom falsafasida xalifa so‘zining zikr etilishi va uning asl ma’nosi*
2. *Xalifa saylashning tartib-qoidalari va uning ko‘rinishlari*
3. *Xulafoi Roshidinlar davrida davlat boshqaruvi*
4. *Choryorlar davrida islohatlar: harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy*

Madina shahar-davlatining hijratdan keyingi taraqqiyoti yangi din – islomning dunyoga kelish jarayoni bilan bir vaqtda kechdi. Davlat paydo bo‘lishi va rivojlanishida diniy omillarning ta’siri murakkab fenomen sifatida tadqiqotchilarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Yangi shakllanayotgan davlat tizimida teokratik g‘oyaning o‘rni, davlatchilikka kiritilayotgan dunyoviy unsurlarning qay an’analarning davomi sifatida qaralishi – bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, Muhammad payg‘ambar, yangi din targ‘ibotchisi bo‘lish bilan bir qatorda, jamoa boshlig‘i-dunyoviy rahbar sifatida faoliyat olib borgan. Montgomeri Uott Muhammad payg‘ambar barpo etgan davlatning boshqaruv tizimiga baho berarkan, uni quyidagicha izohlaydi: «Muhammad payg‘ambar yangi kemani qurishda eski kemandi qimmatbaho qismlaridan o‘z o‘rnida foydalana bildi». U «arab tarqoqligiga» barham berib, ichki Arabistonda markazlashgan davlatchilikka tamal toshini qo‘ydi. U dunyoviy hokimiyat vazifalarini – ‘*aqid* (عقيد – harbiy qo‘mondon), *sayyid* (سيد – qabila ulug‘i), *malik* (ملك – podshoh), *qozi* (قاض – hakam) mansablarini o‘z shaxsida birlashtirdi.

Payg‘ambar vafotidan so‘ng jamoa-davlatni teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda tub o‘zgarishlar ro‘y berishi muqarrar edi. Birinchidan, Payg‘ambar davrining oxirlarida *vahy* poyoniga yetgan edi. Chunki, islom ta‘limotiga binoan, Muhammad – payg‘ambarlarning so‘nggisi-muhri (*Xotim al-anbiyo* – خاتم الأنبياء) edi. Demak, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni bevosita ilohiyat amri ila boshqarish, unga tub o‘zgartirishlar kiritish bundan so‘ng mumkin bo‘lmay qoldi, boshqa so‘z bilan aytsak, islom tarixida teokratiya davri tugay boshladi. Bunday sharoitda, islom rasmiy din sifatida e‘tirof etilgan jamiyatda dunyoviylik va diniylikning mutlaqo yangi muvozanati jadallik bilan shakllana boshladi. Bu jabhada, albatta, birinchidan, *ummaning* qisqa vaqt ichida shakllantirgan o‘z an‘analari, ikkinchidan, avval ichki Arabiston davlatchilik unsurlari, keyinchalik, arab istilolari natijasida, boy Yaqin Sharq an‘analari o‘zaro ta’sir jarayoniga kirishdi.

Muhammad payg‘ambar vafotidan keyin musulmon jamoasi duch kelgan avvalgi muammolardan biri Payg‘ambarga o‘rinbosar (*xalifa*)ni tayinlash va unga qasamyod (*بيعة* – *bay‘at*) keltirish bo‘ldi. Islomdan avvalgi davr arablariga *xalifa* so‘zi eskidan ma‘lum bo‘lib, u *malik* (podshoh)ning *voliysi* (viloyat hokimi) ma‘nosida qo‘llanilgan. Mavqe jihatidan *xalifaga* yaqin yana bir shaxs – *radif* ham shunday vazifani bajargan. Bu mansab Laxmiylar podshohligida mavjud bo‘lib, unga yetakchi qabila ulug‘laridan biri tayinlangan. *Radif* qabullar paytida malikning o‘ng tarafida o‘tirib, yurishlar davrida o‘ljaning chorak qismini olgan.

Manbalar Muhammad payg‘ambarning o‘rinbosariga bay‘at qilish arablarning islomdan oldin qabila ulug‘ini (sayyid) saylash jarayoniga o‘xshash tarzda olib borilganligiga guvohlik beradi. Bu amalga Payg‘ambar ham rioya etgan: u islomni qabul qilgan (ya’ni *ummaga* bo‘ysingan) qabila a’zolaridan shunday qasamyodlarni qabul qilgan. Xalifa tayinlash uslublari va ularning xilma-xilligi asosida saylash usullari shartli ravishda to‘rt turga bo‘linadi: 1) umumiy saylov; 2) nomzod usuli; 3) xususiy saylov; 4) «qilich haqqi» yo‘li bilan hokimiyatga kelish.

Birinchi - umumiy saylov turida xalifalikka nomzod masjidda barcha jamoa a’zolaridan bay‘at oladi. Bunga misol tariqasida Abu Bakr (632-634) va ‘Ali ibn Abu Tolib (656-661) saylanishlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi saylov shakli bilan ‘Umar ibn al-Xattob (634-644) xalifalikka tayinlangan edi. Unga ko‘ra, eski xalifa o‘zi tanlagan kishini valiahd sifatida o‘z o‘rniga qoldiradi va bu qaror *umma* tomonidan qabul etiladi.

Uchinchi xususiy usul – eski xalifa tomonidan saylov uchun tanlangan sanoqli kishilar (*shuro*) ichidan birini xalifalikka tayinlash. ‘Usmon ibn Affon (644-656) mazkur usulda xalifalikka o‘tirdi.

To‘rtinchi yo‘l («qilich haqqi») orqali ‘Ali ibn Abu Tolib hokimiyatdan olinib, uning o‘rniga Mu‘oviya (661-680) davlat boshiga keldi.

Manbalar xalifalikka tayinlash tafsilotlari ham turli bo‘lganligi haqida xilma-xil ma’lumotlar beradi. Masalan, Abu Bakrni xalifa etib saylash jarayonida avval Banu So‘ida guzarida to‘plangan *umma* yetakchilari qasamyod (*بيعة الخاصة* – *bay‘at al-xossa*) etganlar. So‘ngra, ertasi kuni barcha jamoa qasamyod (*بيعة العامة* – *bay‘at al-‘omma*) etgan. Bunda Madina ahli masjidda Abu Bakrga birma-bir bay‘at qilgan bo‘lsa,

atrofdagi arab qabilalari Madina hukmronligiga va Abu Bakrning rahbarligiga qasamyodni vakillar orqali izhor etganlar.

Bay'atni erkaklar nomzodning qo'lini siqish orqali, ayollar esa og'zaki (qo'l bermay) izhor etganliklari e'tiborga molik. Islomdan oldingi davrda bu so'z bozor ahli orasida rasman savdo bitimini anglatgan, uni tuzish – qo'l qisish yo'li bilan ifodalangan.

Islom falsafasida xalifa jumlası ikki marotaba zikr etilgan bo'lib, bu oyatlarda Alloh yerda Odam, Dovud payg'ambarlarni *xalifa*, ya'ni o'ziga o'rinbosar etib tayinlaganligi bayon etilgan.

Muhammad payg'ambardan keyin jamoa-davlat rahbari lavozimini «*al-xalifa* (الخليفة)», xususan, Abu Bakr rahbarlik lavozimiga tayinlangach, uni «*Xalifatu rasulillohi*», ya'ni «Alloh payg'ambarining o'rinbosari» deb atadilar. Ma'lumki, Muhammad payg'ambar *malik* laqabini o'ziga ep ko'rgan emas, lekin uning vazifalarini *umma* ichida bajargan. Madina masjididagi *minbar* malik hokimligidagi taxt ramzi vazifasini o'tagan. Lekin, Abu Bakr Payg'ambar vafotidan so'ng minbarning pastki qismida o'tirgan. Bu bilan u payg'ambarlik darajasiga da'vosi yo'qligini ta'kidlamoqchi bo'lgan. Bu amaliyot Usmon tarafidan buzilgan: uchinchi xalifa Payg'ambar kabi minbarning yuqori qismiga o'tirgan. Ammo, uning bu xatti-harakati ulamolarning keskin qarshiligiga uchraydi. Chunki bu davrda diniylik sohasini to'la egallagan ulamolar dunyoviy hokimiyat – xalifalikning bu sohani zabt etishga bo'lgan navbatdagi urinishini shu tariqa qaytardilar.

Abu Bakrdan so'ng rahbarlikka saylangan 'Umar ibn al-Xattob mantiq bo'yicha Abu Bakrning o'rinbosari, ya'ni «*Xalifatu xalifati rasulillohi*» deb ataldi. Hokimiyatning bu turda uzatilishi (xalifadan xalifaga) Madina jome masjidida minbarga yangi kelgan har bir xalifaga qo'shimcha neshin yasash amalida ham ko'rishimiz mumkin.

'Umar ibn al-Xattob davrida davlat shakllanish jarayonlarining tezlashishi va xalifa bajarayotgan vazifalar ichida dunyoviylik jihatining ko'payib ketishi oqibatida bu mansab diniy hissiyoti kuchli fuqarolar tarafidan bir tomonlama, ya'ni dunyoviy deb qabul etila boshlandi. Hokimiyat sakral tusini yo'qotishi ijtimoiy ongda uning umumiy ijtimoiy zaiflashuviga olib kelishi mumkin edi. Shunday bir holatda xalifa o'zini «yarim diniy – yarim dunyoviy» atama – «*Amir al-mu'minin*» (Musulmonlar amiri, ya'ni *amir* dunyoviy ma'noni anglatuvchi atama bo'lsa, *mu'minun* (mo'minlar) atamasi musulmonlar jamoasiga ishorat edi) deb atashlarini ma'qul ko'rdi.

'Usmon ibn 'Affon o'ldirilganidan so'ng boshlangan birinchi fuqarolar urushi (656-661) davrida bu ikki atama (*xalifa* va *amir al-mu'minin*) hokimlarning salbiy xatti-harakatlari oqibatida jamiyat a'zolari, ayniqsa uning dindor qismi vakillari – ulamolar ko'z oldida o'z ishonchini, salmog'ini yo'qotdi. Shu sababli diniy shiorlar ostida o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun kurashayotgan xalifa 'Ali ibn Abu Tolib tarafdorlari uni «*Imom*» deb atay boshladilar. Demak, endilikda xalifaning vazifalaridan biri – jamoa namoziga boshchilik qilish amalidan olingan atamasi davlat rahbari siymosiga «diniy tus» berish (uning hokimiyatini sakrallashtirish) maqsadida foydalanila boshlandi. Bu esa davlat rahbari funksiyalarining orasida diniylikka nisbatan dunyoviylik unsurlarining yanada ortib borganligining nishonidir. T.Arnold o'zining

«Xalifalik» nomli kitobida oʻrta asrlardagi Rim bilan ilk Arab xalifaligining farqini yoritib berishga harakat qilgan. U quyidagicha yozadi: Imperator aholining diniy ishlariga aralashmagan. Davlatning diniy ishlari bilan Papa shugʻullangan. Arab xalifaligida esa mazkur vazifaning har ikkalasi ham xalifa zimmasiga yuklangan. Xalifalikka oʻtirgan shaxs davlat boshligʻi sifatida ham diniy, ham siyosiy vazifalarni boshqara olishi lozim boʻlgan. Xalifa odamlarga namozda imom, askarlarga lashkarboshi va yana bir qator vazifalarni oʻz boʻyniga olishi kerak edi.

Muhammad paygʻambar oʻz shaxsida ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatni birlashtirganligi xalifalar faoliyatida katta rol oʻynadi. Bu esa yangi jamiyat taqdirida ham koʻp oqibatlariga olib keldiki, ular keyinchalik oʻzlarini yorqinroq namoyon qila boshladilar. Bu oʻrinda ilk xalifalarning dunyoviy va diniy sohada olib borgan faoliyatlarining maʼlum jihatlarini batafsil koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xalifalik maxsus diniy institut hisoblanmay, u koʻproq dunyoviy komponentlarni oʻzida mujassamlashtirgan edi. Paygʻambar vafotidan soʻng muhojirlar va ansorlar oʻrtasidagi asosiy tortishuv mamlakatga harbiy yoʻlboshchi (*amir*) – xalifa saylash masalasida boʻldi. Shu yerning oʻzida hukmronlikning boshqa vazifalari (qozilik va moliyaviy masalalar boʻyicha) muhojirlar oʻrtasida taqsimlandi. Bunga Paygʻambarning *umma* orasida tarqalgan «Imomlik – Qurayshdan, qozilik – ansorlardan va azon chaqirish esa habashlardanidir», degan hadisi ishorat beradi. Xalifalikning dunyoviy vazifasi, birinchi navbatda, davlatni boshqarish, yaʼni amirlik deb belgilandi. Yangi zabt etilgan mamlakatlardagi mavjud davlatchilik anʼanalarining ratsional unsurlari Arab davlatining boshqaruv tizimlariga jadal kirib keldi. Buning natijasida xalifa asosan davlat apparatini tuzish va boshqarish, siyosiy masalalarga rahbarlik qilishga oʻzining asosiy eʼtiborini qaratdi.

Ushbu toʻrt xalifa yangi vujudga kelgan davlat vositasida hech qanday tartib va intizomni bilmaydigan Arabiston yarim orolidagi badaviy qabilalarini yagona davlat hukmiga boʻysundirib, oʻz zamonasining kuchli saltanatlari sanalmish Sosoniylar va Vizantiya imperiyalariga shikast yetkazish imkoniga ega boʻldilar. Mana shu tarqoq yashaydigan qabilalar kuchlarini birlashtirish natijasida Sosoniylar saltanati kabi yuksak taraqqiyotga ega boʻlgan imperiyaning toʻrt yuz yillik tarixiga yakun yasaldi. Vizantiya imperiyasining arklarini larzaga soldi. Iroq, Suriya va Misr kabi qadimgi madaniyat oʻchoqlari Arab xalifaligi tarkibiga qoʻshib olindi. Xalifalar faoliyatida sof dunyoviy vazifalar – davlatni boshqarishda qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish funksiyalarining muntazam ortib borganligini koʻramiz. Davlat apparati tezda shakllanib, bir maromda ishlaydigan tizimga aylana bordi.

Choryorlar davridagi islohotlar

Davlat boshqaruvidagi islohotlar. VII asrning 20-40-yillarida boʻlib oʻtgan ijtimoiy - siyosiy voqealar yangi davlatchilikning jadal surʼatlar bilan rivojlanganligidan darak beradi. Mazkur davlatchilik shakllanishiga, albatta, ichki va tashqi anʼanalar yetakchi omil sifatida kuchli taʼsir etdi. Muayyan siyosiy kuchlarning kurashida u yoki bu guruhlar muvaffaqiyati davlatchilik uchun xarakterli boʻlgan asosiy jihatlarini belgilab berdi. Bu oʻrinda muhim masalalardan biri katta imperiyaga aylanib

borayotgan davlatning poytaxti Madinada markaziy boshqaruv apparatining vujudga kelishi va faoliyatini olib borish muammosidir. Albatta, avval jamoadan davlatga, so'ngra esa imperiya markaziy hukumatiga aylanish juda qisqa vaqtning ichida yuz berdi. Bu davrda o'zgarishlar shu qadar tezlik bilan bo'lib o'tdiki, eski jamiyatda shakllangan kishilarning mentaliteti yangi sharoitlarga moslashib ulgira olmay qoldi. Bu esa o'z navbatida tarixchilar, ulardan so'ng tadqiqotchilar yondoshuviga katta ta'sirini o'tkazdi.

Avvalo mavjud manbalar narrativ va biografik xarakterga egaligi faktini qayd etish lozim. Ularning aksariyati diniy olimlar tomonidan ta'lif etilgan. Shu sababdan ular dunyoviy xarakterga ega bo'lgan voqea va hodisalarga diniy tus berib talqin qiladilar. Ikkinchidan, o'sha davrga zamondosh manbalarning, ayniqsa, eng ishonarli manba turi hisoblangan hujjatlarning deyarli yo'qligi bu sohada olib borilgan yoki olib borilayotgan tadqiqotlarning sifatiga, xususan, xulosalariga salbiy ta'sir o'tkazib kelmoqda. Misol tariqasida tadqiqotlardagi siyosiy, ijtimoiy jarayonlarni bir yoqlama aks ettirish masalasini olish mumkin. Bu voqealar aksariyat hollarda din nuqtai nazaridan baholanadi. Ulamolar asarlarida yaqin tarixdagi voqealar real qanday bo'lib o'tganligi, faktlari emas, balki uning ideal holati, ya'ni o'zlari yashagan muhit va tabaqalari manfaati nuqtai nazaridan qanday bo'lmoq lozimligi o'ziga xos uslublarda ifoda etiladi. Bunda albatta siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy talablar diniy-axloqiy qadriyatlardan kelib chiqib asoslanadi. Natijada sof dunyoviy hodisa – davlatchilik masalalari mazkur manbalarda ikkinchi darajali maqomga tushib qolgan.

Shu davrgacha tadqiqotlarda kam e'tibor berilib kelayotgan muammolar qatorida xalifa maslahatchilari, ularning vazifalari, davlat apparatida tutgan o'rni masalasini olishimiz mumkin. Xalifa vazifalari masalasida ko'p tortishuvlar bo'lmadi: davlat-jamoa rahbari payg'ambarlik vazifasidan boshqa Muhammad payg'ambarning barcha dunyoviy funksiyalarini bajarishi lozim edi. Lekin, bundan keyingi masalalarda yosh davlatni jiddiy imtihonlar kutayotgan edi. Yangi davlat o'zining hayotchanligini amalda isbotlashi lozim edi. Ma'lumki, vazirlik vazifasi qadimdan forslar, yahudiylar va boshqa qavmlarga ma'lum bo'lgan. Muhammad payg'ambar davrida bu vazifa ilk davlat idorasida tatbiq etilmagan. Ammo, Abu Bakrni ba'zi Sosoniylar va Vizantiya imperiyalarining davlat tizimidan xabardor arablar *Payg'ambarning vaziri* deb ataganliklari ma'lum. Hokimiyat tepasiga kelgan Abu Bakr huzurida asosiy maslahatchi maqomini egallagan 'Umar ibn al-Xattob xalifaga qozilik va iqtisodiy masalalarda yordam berar edi. Ammo, Abu Bakr 'Umarning ba'zi maslahatlariga ko'nmas va bilganidan qolmas edi. *Ar-Ridda* harakati avj olgan paytda, Arabiston yarim orolidagi ko'plab qabilalar islomda sodiq qolishlarini ammo, zakot to'lashdan voz kechishlarini bildirganlarida 'Umar bu taklifga rozi bo'ladi, biroq Abu Bakr ularni qat'iyan rad etadi. Xolid ibn al-Validni Malik ibn Nuvayroni o'ldirgan holda Abu Bakr 'Umarning Xolidni bosh qo'mondonlikdan olish haqidagi talabini qondirmagan edi.

Bunday vazifalarni 'Usmon ibn 'Affon davrida Marvon ibn al-Hakam bajardi. Umaviylar davriga kelib, davlat boshqaruvi tizimida *de-fakto* (amalda) shu davrgacha mavjud bo'lgan maslahatchi vazifasi *de-yure* (yuridik jihatdan) «vazir» lavozimini kiritish bilan o'zining mantiqiy nihoyasiga yetdi. Markaziy boshqaruv apparatidagi mansablar masalasida ma'lum siljishlar yuz berdi. Masalan, ilk davrda ba'zi diniy

matnlarni yozib oluvchilar sifatida kotiblar zikr etiladilar (Zayd ibn Sobit, ‘Ali ibn Abu Tolib, ‘Usmon ibn ‘Affon). Lekin kitobatga avvalgi davrda katta ehtiyoj yo‘q edi. Davlat kanselyariyasi kengaya borishi bilan kotiblar mehnatiga talab kuchaya bordi. Kotiblar haqidagi ishonarli ma’lumotlar ‘Umar ibn al-Xattob davriga tegishlidir: uning hukmronligi paytida kotiblarga muayyan maosh tayinlandi. Kotiblar mansabi ham ular vazifasi murakkablashib borganligi sababli ixtisoslasha boradi. Umaviylar davriga kelib, kotiblarning soni beshtaga yetdi: *maktublar kotibi*, *xarojlar kotibi*, *harbiy kotib*, *shurta xizmati kotibi*, *qozilik kotibi*.

Boshqaruv tizimining shakllanishida xalifa ‘Umar ibn al-Xattob davrida *devon* (ديوان)larning joriy etilishi muhim rol o‘ynadi. Devon tizimi Sosoniylar davlati an’analaridan o‘zlashtirildi. Devon – fors tilida «ro‘yxat», «qayd qilish» yoki «daftar» ma’nolarini anglatadi. Unda bir necha bo‘limlar mavjud edi. Jumladan, *Askarlar devoni* (ديوان الجند) da askarlar nomi, qabilalar tarkibi va ularning har biriga beriladigan maoshlar belgilandi. *Xaroj devoni* (ديوان الخراج)da «*Bayt al-mol*»ga topshiriladigan soliqlar qayd etib borilgan. Bu davrda devonning doimiy tarkibini o‘z ichiga oluvchi ro‘yxat tuzilgan bo‘lib, unda kirim va chiqim, shuningdek, davlatdan maosh olish huquqiga ega bo‘lgan kishilar ro‘yxati qayd etildi. Devon tizimi markaziy hokimiyat tarkibida joylashdi. Istilo qilingan yerlardagi kirim-chiqimni nazorat qilish esa bevosita voliyalar zimmasida edi. Bu tizim vositasida ‘Umar davlat xizmatchilariga, avvalo harbiy xizmatchilarga haq to‘lash tizimini takomillashtirib, tartibga solishga muvaffaq bo‘ldi.

Soliq va *xaroj* devonlaridagi hisob-kitob ishlarni olib borish uchun tayinlangan xodimlar Iroq va Eronda fors tilida, Shomda Vizantiya (yunon) tilida, Misrda kopt (qibtiy) tilida olib borishgan. Askarlik va maoshlar devonida ish faqat arab tilida yuritilar edi. Voliylarning soliq va *xaroj* devonlari ishlaridan xabardor bo‘lib turishlari uchun arab va mahalliy tillarni biladigan tarjimonlar kerak bo‘lgan.

Keyinchalik bu tizim rivojlanib bordi. Xalifa ‘Usmon ibn ‘Affon davrida siyosiy tizimda turli ziddiyatlarning paydo bo‘lishi ‘Ali ibn Abu Tolibni davlat boshqaruviga *Devon al-mazolim* (ديوان المظالم – *sud qarorlarini qayta ko‘rish*) tizimini kiritishga majbur etdi. Bu devon ijroiya organlarining g‘ayriqonuniy harakatlari ustidan tushgan shikoyatlarni o‘rganish, soliqlar, diniy idoralar faoliyatini nazorat qilish, qozilar chiqargan qarorlar ijrosini tekshirish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat tribunal sudyalari ishlarining faollashishiga olib keldi. Buning oqibatida avvalroq kiritilgan institut fuqarolar jamiyati sudyalari – qozilar ahamiyati ikkinchi darajali mavqega tushib qoldi.

Davlat apparatining jadal tusda faollashuvi yana bir organ – hisba (jamiyat a’zolarini nazorat qilish) tizimini keltirib chiqardi. Al-Movardiyning fikricha, bu tizim ‘Umar ibn al-Xattob davrida ish boshlagan bo‘lsada, *al-hisba* (الحسبة) istilohi abbosiy xalifa al-Mahdiy (775-785) davrida paydo bo‘ldi. Bu muassasa mutasaddilari bozorlardagi tosh-tarozi, fuqarolar o‘zaro iqtisodiy, mulkiy munosabatlari, axloq normalariga rioya qilishlari va hokazolarni nazorat ostiga oldi.

Yangi tashkil topgan davlat, albatta, ijtimoiy xavfsizlik masalalariga katta e’tibor bera boshladi. Bu borada shurta (politsiya) tizimining tashkil etilishi muhim qadam bo‘ldi. Manbalarda davlat tarkibiga birinchi bo‘lib *shurta* (شرطة – politsiya) tizimi

‘Usmon ibn ‘Affon davrida «Misr shurtasi sohibi» va *sohib ash-shurat* (صاحب الشرطة – shurtalar boshlig‘i) faoliyat ko‘rsatganligini zikr etadilar. Shurta xizmati ‘Umar ibn al-Xattob davrida *bayt al-mol* va qamoqxonani ko‘riqlash, da’vogarlarni qozi xuzuriga keltirish va jinoyatchilarga nisbatan chiqarilgan hukmlarni ijro etish bilan shug‘ullanganlar. Bu davrdagi shurta xodimi qoziga tobe’ bo‘lib, *jilvoz* deb atalgan. Garchi ‘Umar davrida shurta tizimining ilk ko‘rinishlari paydo bo‘lgan bo‘lsada, uning to‘la shakllangan tizim darajasiga chiqishi ‘Usmon ibn ‘Affon davrida amalga oshirilgan.

Arabiston yarim orolida markazlashgan islom davlati bevosita Muhammad payg‘ambarning rahbarligi ostida shakllangan bo‘lsa-da, uni boshqarish va hududlarini yanada kengaytirish «roshid xalifalar» davrida yuz berdi. Arab istilolari natijasida davlat hududlari Arabiston yarim orolidan tashqari chiqib, kengaya boshladi. Ilk davrda Payg‘ambar Madina nazoratiga kirgan har bir hududning nufuzi yuqori bo‘lgan oqsoqolini shu yerga rahbar etib tayinlar edi. Abu Bakr bu amaliyotni deyarli o‘zgarishsiz qoldirdi.

O‘z o‘rnida mazkur viloyatlar administrativ jihatdan shahar va jamoalarga bo‘linar edi. Viloyat hokimlari mansabi ham ilk islom davrida asta-sekin shakllana boshladi. Avvaliga, Muhammad payg‘ambar islomni qabul qilgan qabila yoki shahar ahliga din asoslarini o‘rgatish uchun *mu‘allim* (معلم) tayinlar edi. Keyinchalik Madina nazorati ostiga o‘tgan qabila va shaharlarda *mu‘allimlar* mansabi *‘omil* (عامل) mansabi bilan o‘zgartirildi. Dastlab ular siyosiy mavqega ega bo‘lmadilar. Lekin, Abu Bakr davriga kelib, bu *‘omillar* yoniga alohida *sadaqalar* *‘omili* (عمال الصدقات) mansabdori qo‘shildi. Ular orasida *xaroj* *‘omili* (عامل الخراج) davlat uchun eng ahamiyatlisi hisoblanib, doim voliy yonida bo‘lgan. Ular Madina davlati tarkibidagi shahar va qabilalarga tayinlanib, *xaroj* to‘plar edilar. ‘Umar ibn al-Xattob davrida Madina davlati tarkibiga ko‘plab hududlarning kirishi bilan *‘omillarning* ustidan *voliy* (والي) tayinlana boshladi. Hududlardagi voliylik shaharlarga *‘omillarni* o‘zlari tayinlar, ammo, *xaroj* *‘omili* xalifa tomonidan tayinlangan. Umaviylar *‘omil* mansabiga siyosiy ahamiyat berib, uni *amir* (أمير) deb atay boshladilar. Ular xalifa mansub bo‘lgan urug‘dan tayinlanib, faoliyat doiralariga bir qator siyosiy va harbiy vazifalar kiritildi.

‘Omillarning ilk davrdagi rahbarliklari umumiy edi. Keyinchalik uning xususiylashib borgani kuzatiladi. Masalan, ‘Amr ibn al-‘Osning Misrga amirligini umumiy deb atash mumkin. Keyinchalik ‘Umar ibn al-Xattob ‘Abdulloh ibn Sa’dni *xaroj* yig‘ishga tayinlaganidan so‘ng uning voliligi maxsus bo‘lib qoldi. Keyinroq alohida qozi tayinlanishi bilan voliyning hokimiyati qo‘shinga qo‘mondonlik va namozga imomlik bilan chegaralanib qoldi.

Voliylik muddati chegaralanmagan bo‘lib, uning o‘z vazifasini qanday bajarishi va viloyatdagi ijobiy o‘zgarishlarga qarab belgilanar edi. Muoviya ibn Abi Sufyon Damashqda yigirma yil voliy bo‘lgan. Ba’zi voliylik bir yil ham o‘tirmas edilar. Yangi xalifa oldingi hukmdor tarafidan tayinlangan voliylikni qayta tasdiqlagan. Voliy viloyat ishlarini boshqarishda shurta boshlig‘i, *xaroj* *‘omillari*, *bayt al-mol* xodimlari, devonlar ishchilari kabilarga tayanar edi. Ba’zida *bayt al-mol* mas’uli voliydan mustaqil bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri xalifaga bo‘ysunar edi. Boshqaruv tizimi ‘Umar davridayoq

shakllanib, *voliy*, *qozi*, *devon kotibi* va *‘omillar* vazifalari aniq belgilangan edi. Ushbu tartib *‘Usmon* va *‘Ali* davrida saqlanib qoldi.

Boshqaruv apparati geografik, strategik nuqtai nazar va o‘sha davrning boshqaruv an‘analari ta‘sirida, ba‘zan qabilalarning joylashuviga qarab shakllandi. Xalifalik tarkibiga kirgan hududlarda islomiy idora usuli o‘rnatildi, ammo ba‘zi hududlarda eski davlat boshqaruvidagi lavozim nomlari o‘zgarmadi. Masalan, Misrda: *al-mudir*, *al-muhofiz*, *al-ma‘mur* yoki *no‘ib al-mudir*, *al-xavli* yoki *al-mufattish az-ziro‘iy* lavozimlari saqlanib qoldi. Voliylar hududlardagi iqtisodiy ishlar bilan shug‘ullanar, mojaroli ishlarni hal etish uchun esa alohida qozilar tayinlangan edi.

Oliy sud vazifalarini ado etish avval xalifalar zimmasida bo‘ldi. Abu Bakr davrida Madinada qozilik mansabi bo‘lmagan. Musulmonlar orasidagi kelishmovchiliklarni faqih sahobalar hal etar edilar. Manbalardan xalifalik tarkibidagi viloyatlarda qozilikni viloyat hokimi tomonidan olib borilganligi ma‘lum bo‘ladi. Davlatning kengayib borishi xalifa *‘Umar ibn al-Xattob* davrida qozilik mansabini joriy etilishiga olib keldi va bir qator jinoiy kodekslar ishlab chiqildi. Bu davrda Madina, Kufa, Basra, Misr, Damashq shaharlariga qozilar tayinlab, ularga muayyan maosh belgilandi. *‘Usmon ibn ‘Affon* davrida bu ro‘yxat bir oz qisqarib, 7 viloyatga qozi tayinlanganini ko‘rish mumkin. Ammo *‘Ali* davrida qozilar faqatgina Kufa va Basra shaharlariga tayinladi.

To‘rt xalifa davrida davlat apparatining shakllanib rivojlanishi Madina shahar-davlatining polisdan imperiyaga aylanish jarayonini to‘liq nihoyasiga yetkazdi. Arab xalifaligi an‘analar bilan bir qatorda boshqaruv apparatiga qo‘shni mamlakatlarda mavjud boshqaruv tizimlarining ba‘zi elementlarini o‘zlashtira boshladi. Ular safiga soliq tizimi, muntazam harbiy bo‘linmalar, harbiy lagerlarning vujudga kelishini, yangi yil hisobi – hijriy kalendar joriy etilishini kiritishimiz mumkin. Bu jarayonlarni bevosita boshqargan diniy davlat boshlig‘i vazifalarini bajarayotgan xalifalar sof dunyoviy rahbarga aylana boshladilar.

Harbiy islohotlar. Madina davlatining hukmronlik doirasini kengaytirish maqsadida islom dinini qo‘shni hududlarga yoyish xitobi bilan arab yurishlari boshlandi. Muhammad payg‘ambar va xalifa Abu Bakr davrlarida davlat tarkibida muntazam armiya tizimi yo‘q edi. Uning harbiy kuchini islomni qabul qilgan erkaklar tashkil etar edi. Ba‘zi hollarda esa ularga boshqa ittifoqdosh qabilalarning ko‘magi asqotardi. Hududlardagi erkaklar davlat rahbarining buyrug‘i bilan jangga borar, urush tugagach, yana o‘z turmushlariga qaytar edilar.

Zabt etilgan hududlarda askarlar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘zlarining harbiy salohiyatlarini yo‘qota bordilar. Shuningdek, ko‘plab askarlarning mahalliy aholi bilan chatishib ketish holati ham yuz bera boshladi. Askarlar orasidagi bunday parokandalikning oldini olish va shiddat bilan kengayib borayotgan davlatning harbiy salohiyatini oshirish maqsadida xalifa *‘Umar ibn al-Xattob* tomonidan armiyaga xos yangi nizom ishlab chiqildi va maxsus askarlik lavozimi ta‘sis etildi.

Muhammad payg‘ambar va Abu Bakr davrida askarlar ko‘ngilli jangchilardan iborat bo‘lib, davlat tomonidan hech qanday mablag‘ olmaganlar. Ular janglardan tushgan o‘ljalarning $\frac{1}{5}$ (الخمس – *al-xums*) qismi bilan kifoyalanar edilar. Xalifa *‘Umar*

ibn al-Xattob askarlarning moddiy manfaatlarini qondirish maqsadida «*Askarlik devoni*» tashkil etib, askarlarni ilk bora maosh bilan ta'minlay boshladi. Mazkur devonda jangchilarning nomi, ularning vazifalari va maoshlari miqdori qayd etilar edi. 'Umar ibn al-Xattob davrida askarlarning maoshlari miqdori turlicha bo'ldi. Xalifalik 'Ali ibn Abu Tolib qo'l ostiga o'tgach, askarlar maoshi teng qilib belgilandi. Askarlarning yangi shakllanayotgan davlat harbiy kuchlari tarkibi, ularning soni va islomda tutgan mavqelari berilayotgan maoshlariga sezilarli darajada ta'sir etdi.

Yangi shakllanayotgan davlat harbiy kuchlarini jangga yarog'lik holatini saqlashning asosiy omillaridan biri maosh bo'lsa, ikkinchisi turar joylari masalasi edi. Mesopotamiya markazida harakat qilayotgan musulmon qo'shinlari doimiy yashash joyiga ega emas edilar. Shuning uchun Arabiston yarim oroliga yaqin bo'lgan ochiq sahrolarga chodir tikib yashay boshladilar. 'Umar ibn al-Xattob istilo etilgan hududlardagi jangchilarning Arabiston yarim oroliga yaqin hududlarda istiqomat qilishlari uchun harbiy shaharlar barpo etishga buyruq berdi. Natijada Iroq hududida – Basra va Kufa, Misrda – Fustot shaharlari paydo bo'la boshladi. Bunday shaharlarning qurilishi, xalifalikning harbiy-strategik salohiyatini oshirib, davlat hududini istilo etilgan mamlakatlar hisobiga kengaytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, ichki harbiy tizimlarni takomillashtirish maqsadida, Madina shahri yaqinida ko'plab harbiy garnizonlar qurdirdi. Madina shahrida va undan tashqari hududlarda askarlar uchun ulov va oziq-ovqat zaxirasi saqlanadigan omborlar qurildi. Xalifa 'Usmon ibn al-Affon davrida esa ularning soni yanada ko'paydi. Harbiy garnizonlar askarlarning doimo jangovorlik salohiyatini oshirish, harbiy qurol-aslaha, ot-ulov, oziq-ovqat va suv zaxiralarining tayyor turishini ta'minlar edi. 'Ali ibn Abu Tolib Kufa shahrining havfsizligini ta'minlash maqsadida unga muxolifatda bo'lgan Suriya bilan chegaradosh hududlarga ko'plab harbiy postlar va katta qal'alar qurdirdi.

Islomdan oldin Arabiston yarim orolidagi qabilalar tizimida qo'shinga qabila rahbari boshchilik qilar edi. Bu holat Muhammad payg'ambar davrida ham saqlanib qoldi. Ilk davrda qo'shinga Payg'ambarning o'zi qo'mondon bo'lar, ba'zi hollarda esa o'rniga boshqa sarkarda tayinlangan. Roshid xalifalar davriga kelib, davlat tasarrufining kengayishi xalifalarni bevosita qo'shinni o'zlari boshqarishlariga imkoniyat bermadi. Ular davlat harbiy kuchlarini boshqarish uchun maxsus bosh qo'mondonlar tayin eta boshladilar. Bosh qo'mondonga xalifaning noibi mansabi berildi. Bu esa o'z o'rnida davlatda yangi unvonlar *sarkarda*, *qo'mondon*, *oliy qo'mondon* lavozimlarining ta'sis etilishiga olib keldi.

Avtoritar tizimga asoslangan davlat idorasida xalifaning noibi mansabining paydo bo'lishi va istilo etilgan hududlarda bosh qo'mondonning mutloq rahbarlikni o'z qo'liga olishi, davlat boshqaruvida harbiy tizim asosiy mavqega ega bo'la boshlaganini ko'rish mumkin. Bu albatta davlat harbiy sohada yangi paydo bo'layotgan dunyoviy unsurlarning ilk kurtaklari edi. Davlat harbiy kuchlari tarkibida bir nechta harbiy unvonlar ta'sis etildi. Jumladan, *Amir al-jaysh* (أمير الجيش) – qo'shin boshlig'i va *umaro' al-karodis* (أمراء الكراديس) – bo'linma boshliqlari; Karodis (birligi: kurdus) bo'linmalari otliq suvoriylardan iborat bo'lib, har bir kurdusda mingta otliq mavjud bo'lgan. Kurduslarning o'z sarkardalari, bayroqlari va jang maydonida o'z hududlari bo'lgan. *Umaro' at-ta'abi'a* (أمراء التعبئة) – safarbarlik (mobilizatsiya) bo'limi boshliqlari, *an-*

nuqabo' (النقباء) – (birligi: *naqib*) kapitan, *al-'urafo'* (العرفاء) – birligi: '*arif*') har bir askar guruhiga '*arif*' (عارف – serjantga to'g'ri keladigan harbiy unvon) tayin etilib, askarlar maoshini tarqatishga mas'ul bo'lganlar.

Sarkardalarning jang olib borish usullari istilo etilgan hududlardagi harbiy tizimlar ta'sirida yanada takomillashdi. Qadimda arablarda muayyan jang nizomi va qonun-qoidalarini yo'q edi. Ular johiliyat davrida jangni ikki xil tartibda olib borar edilar: olg'a borish va chekinish. Muhammad payg'ambar davrida esa saf-saf bo'lib jang qilish usuli paydo bo'ldi. Yangi tashkil topayotgan davlatning sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lgan Eron va Vizantiya hududlariga kirib borishi, arablarga eronliklardan harbiy kuchlarni besh qismga bo'lib jang qilish tizimini o'zlashtirish imkonini berdi. Harbiy kuchlarni besh guruhga bo'lganliklari uchun qo'shinning nomi «beshlik» (الخميس – *al-xamis*) deb ataldi. Birinchi guruh o'rtada joylashib, oliy qo'mondon tasarrufi ostida bo'lgan. Bu guruh «*qalb al-jaysh*» qo'shinning markazi, o'ng tarafdagi otryad – *maymana*, chap tomondagi guruh esa – *maysara* – deb atalgan. Oldingi safdan suvoriylar o'rin olgan bo'lib, *al-muqadimma*, orqadagi guruh *soqat al-jaysh* ya'ni, orqa tomon - deb atalgan.

Arab-musulmon qo'shinlarining tarkibiy qismi avvaliga faqatgina arab millatiga mansub askarlardan iborat bo'ldi. Abu Bakr *ar-Ridda* harakatiga aloqador qabilalarni musulmon qo'shinlari tarkibiga qo'shmadi. Chunki, bu qabilalarning yana xiyonat qilmasliklariga ishonch yo'q edi. Davlat hududining kengayishi natijasida harbiy kuchlar safiga boshqa qabilalarni jalb eta boshladilar. Har bir qabila jang maydonida harbiy birlikni (rota) tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida katta shaharlardagi idoraviy va ijtimoiy tizimning ham asosini tashkil etgan. Islom dinini qabul qilgan jamoalar o'zlarining eski harbiy bo'linmalarini saqlab qolgan holda islom qo'shinlariga qo'shib jang qilishga ruxsat berilgan va ularning nomlari devonga kiritilgan. Ular Vizantiya imperiyasidagi *al-hamro'*, San'o'dagi *al-abno'* va Sosoniylar imperiyasidagi *ad-diyolima*, *al-qayqoniy* va *al-asovira* jamoalari edi.

Arablar jang qilish borasida dengiz urushidan umuman yiroq edilar. Chunki harbiy kuchlarning asosiy qismini ko'chmanchi badaviylar tashkil qilar edi. Ular dengizda jang qilish xususida tasavvur ham eta olmas edilar. Musulmon qo'shinlari Shom o'lkasini zabt etganlaridan so'ng, Vizantiya imperiyasiga tegishli harbiy kemalarning shohidi bo'la boshladilar. Damashq viloyatiga hokim etib tayinlangan Mu'oviya ibn Abi Sufyon xalifa 'Umar ibn al-Xattobga maktub yo'llab, dengizdan Vizantiyaga qarshi hujum qilishga ruxsat so'raydi. Xalifa 'Umar ibn al-Xattob dengiz urushiga hali tayyor bo'lmagan arab harbiy kuchlariga kemalarda jang qilishga ruxsat bermaydi. Arab-musulmon davlati boshqaruvi 'Usmon ibn 'Affonga o'tgach, Mu'oviya ibn Abi Sufyon xalifaga Vizantiya hududiga harbiy kemalardan turib jang qilish taklifini takrorladi. 'Usmon ibn 'Affon hech bir jangchini majbur qilmaslik sharti bilan rozilik berdi. Shu tariqa davlat harbiy tizimida dengiz floti (أسطول) vujudga keldi. Dengizdagi har bir kemadagi qo'shinlarning o'z rahbari tayin etilgan. Uni «*Amir al-bahr*» (أمير البحر – *dengiz amiri, admiral*) deb ataganlar. Yunonliklardan dengiz harbiy kuchlari tizimini arablar tez o'zlashtirdilar. Misr voliysi 'Abdulloh ibn Sa'd Konstantinga qarshi O'rta Yer dengizida jang olib borgan. Bu jangda Vizantiyaliklar tomonidan 1000 harbiy kema, musulmonlar tomonidan esa 200 harbiy kema qatnashdi.

Tarixda bu jang «Zot as-savoriy» (ذات الصواري – Machtali jang) nomi bilan qoldi. Shu yil arablar Kiprni bosib oldilar va Vizantiya imperiyasining hududlariga qarshi janglar olib borish imkoniyatini qo‘lga kiritdilar. Arablar vizantiyaliklardan dengiz sirlarini yanada ko‘proq o‘rganishga harakat qila boshladilar. Natijada harbiy san‘atning bu sohasiga qattiq kirishgan arablar yevropaliklardan o‘zib ketdilar, – deb yozadi V. Kremer. Uning fikricha, hozir dengizchilar qo‘llaydigan harbiy dengiz flotiga oid ko‘plab terminlar arab tilidan o‘zlashtirilgan.

Askarlarning harbiy qurol-yarog‘ini zamonaviylashtirish masalasi musulmon davlatining eng dolzarb muammolaridan biri edi. Davlatning harbiy qo‘shin tarkibi otliq va piyoda askarlardan iborat edi. Piyodalar qilich, qalqon va uzun nayza bilan qurollangan bo‘lib, uzun nayzali jangchilar frontning oldi va orqa tarafdin kelishi mumkin bo‘lgan dushman hujumini qaytarish uchun xizmat qilgan. Kamonchilar o‘rta, o‘ng va chap tarafda joylashib, qo‘shinning eng dolzarb kuchi hisoblanar edi. Arab askarlari Shom va Hindistonda yasalgan qilichlardan foydalanar edilar. Ba’zi arab qabilalari esa, Yaman qilichlarini afzal ko‘rganlar. Uzun nayza Bahrayndan keltirilar edi. Qisqa nayzadan suvoriylar foydalanganlar. Kamonchilar ‘Usfuriy, Masihiy va Kinoniy kamon va o‘qlarini afzal bilardilar. ‘Oriflar o‘z askarlariga sopqon (rogatka) dan otish mashqini o‘rgatar va qattiq nazorat olib borar edilar. Davlatning harbiy kuchlari yirik harbiy qurollardan ham foydalanar edilar: *manjaniq* – yog‘ochdan yasalgan tosh otish uchun maxsus moslama bo‘lib, 28 qismdan iborat bo‘lgan. Bu quroldan Muhammad payg‘ambar ilk marotaba Toif urushida foydalangan. *Dabboba* – toshbaqa ma’nosini anglatadi. Har tarafi berkitilgan, devorlarni teshuvchi va zarba beruvchi arava. *Dabr* – yog‘ochdan tayyorlangan, atrofi esa teri bilan qoplangan bo‘lib, undan askarlar qal‘aga zarba berishda foydalanganlar. Manbalarning xabar berishicha, manjaniq va dabbobadan Suriya shaharlarini olishda keng foydalanilgan.

Askarlarning kiyimlari tizzadan pastga tushadigan zirhli sovut, qattiq gazlamadan tikilgan ishton va etik edi. Otliq suvoriylar sovut kiyimaganlar. Boshqa kiyimlari esa piyodalarnikidan burgut patlari bilan bezalgan temir dubulg‘a bilan farq qilgan xolos. Agar islom o‘zida diniy ko‘rinishini siyosiy kuchga aylantirmagan taqdirda, u Arabiston yarim orolining bir-biriga qarshi diniy ta’limotlar ta’sirida o‘tkinchi diniy-axloqiy ta’limot sifatida ko‘p o‘tmay yo‘qolib ketar edi. U shu yo‘l bilan o‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonib, besh qit’a xalqlariga islom ta’limotini tarqata oldi.

Iqtisodiy islohotlar. Yangi davlatning moliyaviy qudratini shakllantirish va uni rivojlantirishda soliqlar muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, rivojlangan soliq tizimi davlat qudratini ta’minlaydi. Muhammad payg‘ambar ham Madina shahar-davlati iqtisodiy tizimini shakllantirish harakatini boshlab berdi. Ilk davr soliq tizimida Madina hukmiga bo‘ysindirilgan qabilalarning mol-mulkleri asosiy o‘rin tutdi. Lekin Payg‘ambar davrida (622-632) chorva-moldan davlat foydasiga olinadigan soliq mavhum – goho «*sadaqa*» (صدقة), goho «*zakot*» (زكاة) deb atalib, bu termin-atamalar ilk davrda sinonim so‘zlar sifatida qo‘llanildi.

Islom falsafasining tarixiy oyatlaridan qadimda yahudiy va nasroniy jamoalar uchun ham diniy soliqlar qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Demak, Arabiston yarim oroli, Vizantiya va Sosoniylar davlatlaridagi xristianlik va yahudiylik dinlariga e’tiqod

qiluvchi aholi uchun islom paydo bo'lishidan oldin bunday soliq turi ma'lum bo'lgan. Qadimda xristianlar o'rtasidagi tabaqaviy tenglikni saqlash maqsadida boy va o'rtahol xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi aholi oylik daromadining o'ndan birini (desyatina) soliq sifatida cherkovga olingan. Yahudiylarda esa diniy majburiyat sifatidagi soliq «solihlik» (*sedaka*) deb atalgan. Yahudiylar chorva-mollari, hosil, urushda orttirilgan o'ljalar va mol-mulklarning o'ndan birini har oyda *sedaka* solig'i sifatida ibodatxonani ta'mirlashga ishlatganlar, ruhoniylar, kambag'allar, beva va yetimlar orasida tarqatganlar. Demak, bu soliqlar xristian va yahudiy dinlaridagi dindorlarning majburiyatlari sanalib, davlat ahamiyatiga molik bo'lmagan.

Islom dinida ham zakot solig'i musulmonlarning boy tabaqalari uchun diniy farz sifatida joriy etildi. Xristianlik va yahudiylardan farqli o'laroq zakot solig'i musulmonlardan yiliga bir marta yig'ib olinadigan bo'ldi. Avvaliga Muhammad payg'ambar va xalifa Abu Bakr davrida (632-634) zakot solig'i Islom falsafasida buyurilganidek, faqat *faqirlar, miskinlar, sadaqa [zakot] yig'uvchilar, ko'ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar, qullarni ozod qilish uchun, qarzdorlar va musofirlarga* tarqatildi. Muhammad payg'ambar zakot solig'idan tushgan mablag'ning ma'lum qismini musulmon bo'lmagan arab qabilalarining shayxlari, e'tiborli kishilarga nafaqa sifatida berib turgan. Bundan asosiy maqsad ularning qabiladoshlari orasida islom diniga nisbatan hurmat hissini uyg'otish edi. Islom falsafasida zikr etilgan mazkur yetti toifaning ichidagi *ko'ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar* (مؤلفة لقلوبهم – *mu'allafatu liqulubihim*)ga berish nafaqa 'Umar ibn al-Xattob davrida bekor qilindi.

Yangi tashkil topayotgan davlatda soliq masalasida ilk davrga nisbatan tub o'zgarishlar 'Umar ibn al-Xattob davriga kelib yuz bera boshladi. Islomdan avvalgi arablar amaliyotida biror hududni kuch bilan (عنة – *'anwatan*) bosib olish davomida aholi punktlaridagi ekinzorlarni o'zaro mulk qilib bo'lib olish odat tusiga kirgan edi. Muhammad payg'ambar ham shu odatga ergashgan holda Xaybarni zabt etish (628 yil) davomida egalari urushda halok bo'lgan ekinzorlarni istiloda qatnashgan askarlarga bo'lib bergan edi. Davlat mustahkamlana borgach, bu amaliyotdan voz kechila boshlandi. Masalan, 'Umar ibn al-Xattob Sosoniylar va Vizantiya imperiyalari hududlaridagi podshohlar, ularning oilalari, amaldorlar hamda urushda o'lganlar, qochib ketgan yer egalarining ekinzorlarini davlat mulki hisobiga o'tkazdi. Bu yangi yerlar musodara qilinmaydigan *as-savofiy* (الصوافي) yerlar deb nom oldi. Ayniqsa as-Savod, Shom viloyatlari arab davlati tasarrufiga kiritilgach, *as-savofiy* ekinzorlar hajmi ortib ketdi. Ular davlat tasarrufiga kiritilib, ijaraga berila boshlandi. 'Umar davrida davlat amaliyotida eski amaliyotni ya'ni, bosib olingan yerlarni *al-fay'* (الفية – o'lja) sifatida askarlarga bo'lib berishini davom ettirmoqchi bo'lgan qo'mondonlarning xatti-harakatlari keskin to'xtatildi. Bu bilan 'Umar ibn al-Xattob Muhammad payg'ambar tomonidan ta'sis etilgan askarlarning *al-fay'* ulushini bekor qilib, uning o'rniga yangi institut *xaroj*ni joriy etdi.

Markazlashib kelayotgan davlatning iqtisodiy rivojlanishida *xaroj* (yerdan olinadigan mahsulot solig'i) instituti muhim o'rin tutadi. Muhammad payg'ambar va Abu Bakr davrida Arabiston yarim orolidagi dehqonchilik rivojlangan biror hudud (صُلْحَان – *sulhan*) istilo etilganda, undagi dehqonlarning ekinzorlari o'z egalarida qoldirilib, ularga *jizya* solig'i o'rniga *xaroj* solig'i tayin etilgan. Bu holatni Muhammad

payg‘ambarning Haybar aholisi bilan sulh tuzib, ularga *xaroj* tayin etishi misolida ko‘rish mumkin. Demak, *xaroj* solig‘ini birinchi bo‘lib arab davlatchiligi tarixida Muhammad payg‘ambar tatbiq etgan. Ammo, ‘Umar ibn al-Xattob davriga kelib, davlatchilikning tezlik bilan rivojlanib borishi sharoitida *‘anwatan* yoki *sulhan* istilo etilgan yerlarning har ikkisiga ham ekinzorlar hosillaridan olinadigan *xaroj* solig‘i tayin etila boshlandi.

Asta-sekin Arab xalifaligi amaliyotida *xaroj*ning uch turi shakllana boshladi: *misoha*, *muqota‘a*, *muqosama*. Birinchi turdagi soliq (مساحة – *misoha*) olish tartibi quyidagicha bo‘lgan: ishlov berilgan yer bir necha qismga bo‘linib, uning ma‘lum bir qismida yetishtirilgan hosil davlatga to‘lig‘icha natural holda soliq qilib olingan. Ikkinchi turdagi soliq (مقاطعة – *muqota‘a*) esa katta yerdan foydalanish uchun bir necha yil oldin, belgilangan pul miqdori bilan olingan. Uchinchi turdagi soliq (مقاسمة – *muqosama*) yerda yetishtirilgan umumiy hosilning bir qismi holida davlat foydasiga olingan.

Arab-musulmon davlati budjetining yuksalishidagi asosiy manba rolini *‘ushr* (عشر – arab tilidan so‘zma-so‘z: *o‘ndan bir*) solig‘i o‘ynadi. *‘Ushr* solig‘i yig‘ilgan hosilning ($\frac{1}{10}$) qismiga teng. Aksariyat manbalarda bu soliq alohida, ba‘zan *xaroj* solig‘ining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. *‘Ushr* solig‘i xalifa ‘Umar ibn al-Xattob davrida o‘zining aniq ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Bu davrga kelib, markazlashgan islom davlatining soliq siyosatida boj va savdo *‘ushri* solig‘i paydo bo‘ldi. Bu soliq urush olib borilayotgan davlat (*balad al-harb*) dan Madina davlati tasurrufidagi hududlarga tijorat uchun qatnaydigan kemalar va yakka savdogarlarning tovarlari hisobidan olingan. Shuningdek, boj *‘ushr*ning foiz qiymati ham savdogarning diniy e‘tiqodiga qarab belgilangan: musulmonlardan *‘ushr*ning choragi ($\frac{1}{4}$), ya‘ni 2,5 % yoki 5 dirham yoki yarim misqol oltin, zimmiylardan *‘ushr*ning yarimi ($\frac{1}{2}$), ya‘ni 5 % yoki 10 dirham yoki bir misqol oltin, musulmonlar urush e‘lon qilgan hududdan kelganlar (*ahl balad al-harb* yoki *harbiy*) uchun esa to‘liq, ya‘ni 20 dirham yoki ikki misqol *‘ushr* olingan. Shuningdek, *‘ushr* solig‘ining nisobi 20 misqol tilla yoki 200 dirham etib belgilangan. Bundan bu soliqqa ham zakotning nisobi asosiy mezon qilib belgilanganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, islom davlati hududiga kirib kelayotgan bug‘doy va yog‘ mahsulotlariga musulmonlarda ehtiyojning kattaligi uchun yarim, mosh, no‘xot, yasmiq, loviyalarga esa – to‘liq *‘ushr* tayin etilgan.

Zabt etilgan hududlarning yangi dinni qabul qilgan dehqonlari o‘z ekinzorlaridan *xaroj* solig‘i o‘rniga *‘ushr* solig‘i to‘laganlar. Lalmikor va ariqlardan sug‘oriladigan yerlardan to‘liq *‘ushr*, quduq, hovuz, meshlarda sug‘oriladigan yerlardan esa yarim *‘ushr* olingan. Bu misollardan ‘Umar ibn al-Xattobning davlat hukmi doirasini yangi hududlarga kengaytirishda soliqlar siyosatidan unumli foydalana olganligini ko‘rish mumkin. Yangi shakllanayotgan soliq tizimida musulmon bo‘lmagan aholidan jon boshi hisobida olinadigan *jizya* solig‘i muhim o‘rin tutdi. *Al-Jizya* (الجزية) instituti Arab xalifaligi o‘tmishdoshlari – Sosoniylar (224-651) va Vizantiya imperiyalari davlat tizimida ham mavjud bo‘lgan. Bu imperiyalar hududida yashagan johiliya davri arablari mazkur jon solig‘ini *joliya* deb ataganlar. Davlat namoyondalari bu soliqni yiliga uch marta yig‘ib olganligi ma‘lum. Shohan-shoh Xusrav Anushirvon (531-579) xristianlar, yahudiylarning ba‘zi toifalariga bu soliqni joriy qilgan. Ammo, boshqa dinlarga e‘tiqod

qiluvchilar orasidan zodagon xonadonlar vakillari, voliylar, otliq askarlar, haram (ibodatxona) xizmatchilari, sudyalari, dehqonlarning raislari va devon kotiblari bu soliqdan ozod etilganlar.

Muhammad payg‘ambar va Abu Bakr davrida soliqlar miqdori muayyan tarzda belgilanmagan edi. Bosib olingan hududlardan olinadigan soliqlarning miqdori ‘Umar ibn al-Xattob hukumati tomonidan ishlab chiqila boshladi. Birinchi navbatda *jizya* solig‘i to‘lovchilar uch toifaga bo‘lindilar:

- 1) boylar – 48 dirham;
- 2) o‘rtahollar – 24 dirham;
- 3) kambag‘allar – 12 dirham.

Birinchi toifani yuqori tushumga ega bo‘lgan sarroflar, gazlama sotuvchilar, yirik savdogarlar, katta yer egalari, tabiblar, ikkinchi toifani esa hunarmandlar, tikuvchilar, bo‘yoqchilar va kosiblar tashkil qildilar. Uchinchi toifani kam daromadli aholi tashkil etdi. *Jizya* solig‘i ishga yaroqsizlar, qariyalar, nogironlar, ko‘rlar, aqli ojizlar, rohiblar, ayollar va bolalardan olinmagan. *Jizya* aholidan har yilda bir marta yoki har oyda qisman to‘lab borish orqali yig‘ib olingan.

Jizya institutini shakllantirishda ‘Umar ibn al-Xattob istilo etilgan hududlardagi iqtisodiy ahvolni hisobga olgan. Shimoliy Arabiston aholisining Yaman aholisiga nisbatan iqtisodiy qudrati yuqoriligi bois Iroq va Suriyaning boy tabaqalari 48 dirham o‘rniga 50 dirhamdan *jizya* to‘laganlar.

Yangi rivojlanib kelayotgan davlatning iqtisodiy tizimi shakllanishida «*Bayt al-mol*» (بيت المال – davlat g‘aznasi, pul va boshqa qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun ombor) ning tashkil topishi asosiy rol o‘ynadi. Bu muassasada daromad manbalari va ularni qaerlarga sarf etish borasidagi ma’lumotlar saqlangan. *Bayt al-mol*ga keladigan soliqlarning hammasi ham faqat pul shaklida bo‘lmay, balki natural soliqlar – don, qoramollar, matolar va qurol-aslaha turlari ham mavjud edi.

Abu Bakr davrida Madina davlati tasarrufining kengaya boshlashi va *ar-Ridda* harakati orqali boshlangan arab yurishlari natijasida davlat g‘aznasiga kelib tushadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Avvaliga Abu Bakr davlat g‘aznasini o‘z uyida, keyinchalik Payg‘ambar masjidida saqladi. Markazlashgan Madina davlati boshqaruvi ‘Umar ibn al-Xattob qo‘liga o‘tgach, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy shakli avvalgi holatini tubdan o‘zgartirdi. U zabt etilgan hududlarning davlat boshqaruvidagi iqtisodiy tizimlarni islom davlati amaliyotiga kiritdi. Shuningdek, ‘Umar ibn al-Xattob *devonlar* tizimini eroniyatlardan o‘zlashtirgach, bu *devonlarni* bir yerga birlashtirish maqsadida *bayt al-mol* muassasasini tashkil etdi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatdagi qurilishlar, davlatning harbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy ta’minot, iqtisodiy islohotlarni davlat o‘z tasarrufi doirasida ushlab turishi uchun qoplanadigan mablag‘lar va hukumatning boshqa sarflari uchun ketadigan xarajatlar *bayt al-mol*dan olina boshlandi. Bularning hammasi *bayt al-mol*ga ‘Umar ibn al-Xattob davrida asos solinganligini ko‘rsatadi.

Davlatdagi tushumlarning oshishi bilan bir qatorda uning xarajatlari ham oshib bordi. Buni xalifa ‘Umar ibn al-Xattobning arab davlatchiligiga umuman yot bo‘lgan hukumat ishchi-xodimlari, davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami va diniy arboblarga muayyan tarzda moyanalar berish misolida ko‘rish mumkin.

Xalifa ‘Umar ibn al-Xattob aholiga moyana va nafaqa tayinlashda aholining Muhammad payg‘ambarga (qarindosh) yaqinligi va davlat oldidagi xizmatiga muhim ahamiyat berdi. U payg‘ambarning ayollari, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan Badr, Uhud janglarida qatnashgan, Habashistonga 615 yil hijrat qilganlarga, Makkaning olinishida ishtirok etganlarga, keyingi yirik janglarda ishtirok etganlarga, askarlarning bevalari va yetim bolalariga moyanalar tayin etdi. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, avvaliga ‘Umar ibn al-Xattob chaqaloqlarning faqatgina ko‘krakdan chiqqanlariga nafaqa belgilagan. Nafaqa olish niyatida ko‘plab ayollar o‘z bolalarini erta emizishdan chiqarganlar. Buning natijasida jamiyatda go‘daklar o‘limi ko‘paygan va bunday xavfning yanada kuchayishining oldini olish maqsadida, ‘Umar har bir yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun ham nafaqa tayin etgan.

Hoshimiylardan ‘Ali ibn Abu Tolib, al-‘Abbos ibn ‘Abd al-Muttalib, Payg‘ambarning nabiralari al-Hasan va al-Husaynga 5 ming dirhamdan nafaqa tayin etdi. Shuningdek, xalifa Badr jangida qatnashganlarga ham 5 ming dirham nafaqa tayin etib, boshqalarning nafaqasini bu miqdordan oshirmagan.

Boquvchisiz yetim qolgan bolalarni o‘z qaramog‘iga olgan kimsalarga 100 dirhamdan maosh tayin etish bilan birga kundalik extiyojiga qarab, davlat g‘aznasidan oziq-ovqat belgilangan.

Bu davrga kelib, askarlar ham maosh bilan ta’minlana boshladilar. Maoshdan tashqari har oy oziq-ovqat (*rizq*) bilan ham ta’minlab turilgan. 1 *irdob* (36 litr yoki 25 kg) bug‘doy, *kist* (1 litr) o‘simlik moyi, yana shuncha sirka va biroz asal va eritilgan yog‘ berilgan.

‘Umar ibn al-Xattob tayin etgan moyanalar va maoshlar Sosoniylar imperiyasi tomonidan zarb etilgan dirham tangalarda berilgan. Makka va Arabiston yarim orolida pul ishlab chiqarilmaganligi uchun arablar VII asrning 60-yillariga qadar asosan Vizantiya imperiyasining tilla va Sosoniylar davlati va Yamanning kumush tangalaridan, ba’zi hollarda esa Afrika va Yamandan keladigan oltin qumlaridan ham foydalanganlar. Ularni tortib olishda dinordan vazn birligi sifatida foydalanganlar. Islomdan oldingi davr arablari Tabariston, Xorazm va Bag‘lon davlatlarida zarb etilgan dirham tangalarni ishlatganlar.

Vizantiyada ishlab chiqariladigan tilla (nomisma) tanganing og‘irligi yaxlit 4,45 gramni tashkil etib, old qismida imperatorning surati zarb etilgan edi. Kumush tangalar pul muomalasida katta ahamiyatga ega emas edi. Bozorlarda kundalik savdoda asosan mis tangalar (*filis*) ishlatilardi.

Arabiston yarim orolining katta qismi «dirham zonasi»da bo‘lib, Yarim orolning shimoli-g‘arbi esa «tilla zonasi» hududiga kirar edi. Shu ikki zonaning kesishgan joyi Makka shahri edi. Makka bozorlarida dinor (*nomisim*) va dirham ishlatilardi.

Vizantiyada zarb etilgan dirhamlarning juda yupqaligi va ishlatish jarayonida yeyilishning osonligi savdogarlarni dirhamlarni tortib olishga majbur etardi. Shuning uchun savdogarlar dona-dona ishlatiladigan paytlarda to‘liq dirhamlardan foydalanar edilar. Makkada dinor bilan dirham o‘rtasidagi farq 1 dinorga 10 dirhamni tashkil etgan. Xalifa ‘Umar davriga kelib dinorning kursi 12 dirhamga ko‘tarilgan.

Arab xalifaligi tarkibiga kirgan hududlardagi soliqlarni tayin etishda maydon o‘lchov birligi, vazn va sig‘im o‘lchov birliklaridan foydalanilar edi. Bosib olingan

hududlardagi o'lchov birliklari davlatning asosiy etalonini tashkil etdi. Masalan, Misr aholisi ishlatadigan *irdob*, *qist*, *jarib* va boshqa o'lchov birliklari davlat miqyosida ishlatila boshlandi. Shuningdek, arablarda qadimdan boshoqli o'simliklar va sochiluvchan jismlarni o'lchash uchun *mudd*, *so'*, *maxtum*, *qafiz* vazn o'lchov birliklari *vasq*, *dirham*, *misqol*, *ratl*, *'uqqa*, *uqiya*, *xoshimiy rub'*, *qintor*, maydon-yer o'lchash uchun esa *doniq*, *qiyrot*, *faddon*, *ziro'*kabi o'lchov birliklari ma'lum edi.

Ilk arab-islom davlati rivojlanib borish jarayonida iqtisodiy masalalarda diniylik va dunyoviylik unsurlari bir-biridan asta-sekin ajralib chiqqa boshladi. Bunda yangi davlat iqtisodi va apparatini to'liq tarzda shakllanishiga bevosita hissa qo'shgan 'Umar ibn al-Xattobning iqtisodiy va ijtimoiy islohotlari asosiy turtki bo'ldi. Xalifa 'Umar ibn al-Xattob Muhammad payg'ambar davridagi soliqlarning turlari va miqdoriga bir qator o'zgartirishlar kiritdi. U ilk davrda musulmonlar uchun notanish bo'lgan savdo va boj *'ushrini* davlat soliq tizimida qo'llay boshladi. *Jizya* va *xaroj* institutlarining aniq ob'ekti va hajmini muayyan darajaga keltirdi. Arabiston yarim oroli uchun noma'lum bo'lgan *bayt al-mol* muassasasi tashkil etilib, askarlar, davlat apparati xodimlari, ishchi-xizmatchilarga moyanalar tayin etildi. Yangi shakllanayotgan davlat aholisini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida qariyalar, yetimlar va boshqa e'tiborli shaxslarga nafaqalar belgilandi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 'Umar ibn al-Xattob davrida olib borilgan soliqlar siyosatidagi islohotlar natijasida davlatning iqtisodiy ravnaqi Muhammad payg'ambar rahbarligi davri ko'rinishidan tubdan farq qildi.

Tayanch iboralar: *Xalifa va xalifalik, roshid xalifalar, teokratik g'oya, saylash usullari, dunyoviylik, bay'at, «amir al - muminin», imom, muallim, amir, qozilik, sadaqa, Islohotlar, vazir, kotib, devon, xaroj, zakot, jizya, ushr, al – hisba, ash – shurta, omil, bayt al – mol, harbiy garnizon, amir al – bahr.*

Adabiyotlar:

1. Bolshakov O.G. Istoriya Xalifata. 1-3 chasti. – M, 1989-1998.
2. At-Termiziy. Shamoili Muxammadiya / Sayid Maxmud Taroziy Alixon-to'ra tarjimasi. – T.: «Mehnat» nashriyoti, 1991.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T. 1-12. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
4. Islom tarixi darsligi. Mualliflar jamoasi. – T: 2007.
5. Ibn al-Asir. Al-Komil fit-tarix. X jildli. – Bayrut: 1966.
6. Ibn Najjor al-Bag'dodiy. Tarixu-l-Bag'dod. – Bayrut: Dor ul-kutub ul-ilmiya. 1973.

5- ma'ruza.

Kalom ilmi tarixi va rivojlanishi

Dars rejasi:

1. Kalom soʻzining lugʻaviy va istilohiy maʼnolari
2. Islom ilohiyoti – kalom falsafasining shakllanishi (VIII-IX asrlar)
3. Kalom ilmiga nisbatan ijobiy munosabatning paydo boʻlishi

Islom ilohiyoti – kalom falsafasining shakllanishi (VIII-IX asrlar)

«Kalom» soʻzi arabcha boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi gap, nutq, bayon demakdir. Fan tilida u mantiq va falsafa qoidalariga asoslangan aql va tafakkurning mahsuli oʻlaroq alohida fan sifatida taʼriflanadi.

Islom dini taʼlimoti aql va tafakkurga emas, balki illohiy kaysatmalarga asoslangan boʻlgani uchun Islom dinining ilk davrlarida faqatgina Islom falsafasi va Sunna taʼlimoti bilan cheklanish shart sanalib, mantiq, falsafa, kalom kabi fanlardan foydalanish qatʼiy ravishda taqiqlangan. Shu taʼqiqlardan kelib chiqib, kalom ilmini tanqid qilgan mashhur shaxslarning sayrlaridan iqtiboslar keltiramiz:

Abu Hanifa (Imom Aʼzam): «Amr ibn Ubaydni xudo ursin, -kalom ilmiga ʻisha eshik ochib berdi.»

Abu Hanifaning bosh shogirdi Abu Yusuf: «Kalom ilmini oʻrganish, bilish-jaholat. Uni bilmaslik ilm».

Molik ibn Anas: «Johillardan uzoq yuringiz. Ular kim desangiz, ular Allohning zoti va sifatleri haqida sukut saqlash ʻrniga oʻtmishda ajdodlarimiz aytmagan gaplarni gapiradiganlardir».

Imom Shofiiy: «Oxiratda Allohning ʻuzuriga shirkdan va kalom ilmidan boshqa har qanday gunohlarim bilan borganim yaxshiroqdir».

Ahmad ibn Hanbal: «Kalom ilmi bilan shugʻullanuvchi odam hech qachon iqboli boʻlmas».

Abul-Lays al-Hofiz: «Qaysi bir olim kalom ilmi bilan shugʻullansa, uning ismi ulamolar safidan oʻchirib tashlanadi».

Shamsul-aimma al-Hulvoniy: «Har qanday mustahiq boʻlsa ham kalom ahliga iqtido qilib ortida namoz oʻqish makruhdur». (Sh. Marjoniy. Nozuratul-haq, Qozon nashri. 1870 y. 10-11 betlar.)

Kalom ilmini tanqid qilgan olimlar ʻz fikrlarini isbotlash maqsadida yana shuni taʼkidlaydilarki, Islom falsafasi karim va hadisi shariflarda islom taʼlimoti, mafkurası, eʼtiqodiy-nazariy qarashlar mufassal talqin etilgan va shungacha boʻlgan ʻar qanday diniy, falsafiy, mantiqiy yoki aqliy nazariyalarni bekor qilgan. Endilikda ʻzini ʻmʻmin-musulmon deb sanaydigan kishi Paygʻambarning Alloh tomonidan keltirgan illohiy taʼlimotidan tashqari chiqmasligi kerak. Islom dinigacha shakllangan yunon, fors yoki sharq falsafasi, shu jumladan kalom ilmidan voz kechishi zarur. Manbalarning guvoriqlik berishicha, mazkur taqiq holati hijratning ikkinchi asrigacha davom etgan.

Kalom ilmiga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishi

Islom dini dunyoning kyp mamlakat va xalqlariga tarqalishi va islom mafkurasining turli noislomiy mafkuralar bilan toʻqnashuvi natijasida ularga raddiya

berish muammolari kelib chiqqan. Islom aqidalari va ahkomlarini ularga tushuntirish va asoslab berish uchun esa, oyat va hadislarining ыzi kifoya qilmas edi. Zero islom aqidasiga muxolif fikr qiluvchi oqim va toifalar o‘zlarining dunyoqarashlarida asosan kalom, mantiq, jadal, munozara kabi aqliy dalil va hujjatlarga suyanar edilar. Binobarin, islom mafkurasining targ‘ibotchilari ham ыz muxoliflariga faqat naqliy dalilllar bilan emas, balki mazkur aqliy dalillarni ыrganish bilan ham shaullanishlariga to‘g‘ri kelgan. Shunday qilib, oldin ta‘qiqlangan Kalom ilmi islom dunyosida ham keng ko‘lamda o‘rganiladigan bo‘ldi va bu fanda ыam dunyoga mashhur islom mutafakkirlari, faylasuflari va mutakallimlari paydo byla boshladi. Abu Mansur al-Moturidiy, Abulhasan al-Ash‘ariy, Abu Bakr ar-Roziy, Faxruddin ar-Roziy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Ibn Xaldun, Azduddin al-Iyjiy, Sayyid Sharif Jurjoniyy, Ibn ar-Rovandiy, Abu Hayyon at-Tavhidiy, Yamyoy ibn Adiy, Misksvayy, Sumravardiy, Ibn Hazm al-Bojuriy, Sadriddin ash-Sheroziy, Sa‘duddin Taftazoniy, Abu Hafs Umar an-Nasafiy, Alouddin as-Samarqandiy, Ali ibn Usmon al-Hishiy, Abushshakur as-Solimiy, Abu Ja‘far at-Tahoviy, Jamoliddin Afg‘oniy, Muammad Abdu va boshqa kыplab olimu allomalar yetishib chiqdilar, ular Kalom ilmining rivojiga ulkan hissa qo‘shib, bu somada bebayto asarlarni qoldirib ketdilar. Kalom ilmi shariat peshvolari tomonidan oqlanib islomiy fanlar =atoridan joy olgandan keyin taqiq ыrnini targ‘ib va tashviqotlar ola boshladi.

Bu fanga islom mutafakkirlari qanday ta‘riflarni berganliklari to‘g‘risida manbalarga murojaat qilsak, quyidagi satrlarni mutolaa qilamiz:

Abu Homid Muhammad G‘azzoliy: «Haj ziyoratiga boruvchilarni yo‘lto‘sar, qaroqchilardan ыimoya qilish zarurati tug‘ilgach ularni qo‘riqlab boruvchi soqchilarning bo‘lishi ыam shart hisoblanib qolgani kabi, chuqur bilimga ega bylmagan oddiy musulmonlarning diniy e‘ti=odlarini turli bid‘at va noto‘g‘ri nazariyalardan qo‘riqlash uchun kalom ilmini o‘rganish vojib ilmlardan biriga aylan («Ihyou ulumid-din, 1-jild, 34 bet»)

Azduddin Ijjiy (vaf. 756ы./ 1355 m.) o‘zining «Mavoqif» nomlm kitobida kalom ilmiga shunday ta‘rif beradi: «Kalom ilmi diniy e‘tiqodga doir masalalarni aqliy dalil va hujjatlar bilan isbotlab, dildagi shubhalarni bartaraf qilishga xizmat qiladigan ilmdir. Lekin bu nazariy ilm hisoblanib, unga amaliy ishlar kirmaydi».

«Aqoidi nasafiya» kitobiga sharh bitgan kalom ilmi byyicha mashhur alloma Sa‘duddin Taftazoniy (1312-1389) o‘zining «Maqosid at-tolibin» nomli asarida yozadi:

«Kalom ilmi diniy aqoid usullarini ishonchli dalillar asosida anglashni o‘rgatadigan ilmdir. U bilan shar‘iy, nazariy, aqoidiy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda intizomli hayot kechirish va oxiratda azob- uqubatdan xalos topishdir. U eng sharaflil ilmdir».

Taftazoniy yana «Aqoidi nasafiya» sharhida jumladan shunday yozadi: «Islom dini nomidan gapiruvchi ko‘plab firqa va oqimlar, xususan mu‘tazila firqasi bilan bahsu munozara yuritish va ularning Rasululloы (a.s.) sunnatlari va sahobalarning tutgan yo‘l yo‘riqlariga xilof ravishda shakllangan dunyoqarashlariga qarshi raddiyalar bilan javob qaytarish maqsadida kalom ilmiga asos solinib, uning qoidalari ishlab chiqilgan». Mu‘tazila firqasining bu nom bilan atalishiga esa bir voqea sabab bo‘lgan: Mashhur tobeinlardan sanalmish Hasan Basriy (21-110 ы. / 642- 728 m.) huzurida dars

tinglayotgan ulamolardan Vosil ibn Ato (vaf. 131 m. / 748m.) uning ta'limiga xilof ravishda bir fikrni olg'a suradi. Ya'ni Hasan Basriy ta'limi bo'yicha o'zi mo'min-musulmon bo'la turib katta gunoh qilib qo'ysa kofir bo'lmaydi, lekin gunohkori azim bo'ladi. Vosil bu fikrdan farqli ravishda kofir ham bo'lmaydi, mo'minligida ham qolmaydi, balki o'rta maqomda qoladi, deydi. Shundan keyin Hasan Basriy uning haqida arab tilida: «i'tazala 'anno» deydi. Ya'ni «Bizdan chetladi». Shundan keyin u o'zining yana bir ustoz Amr ibn Ubayddan ta'lim olishda davom etib, mu'tazila firqasining raisiga aylandi. Uning fikriga va jamoasiga qo'shilganlarni «mu'tazila, mu'taziliylar» deb atay boshladilar.

So'ngra mu'taziliylar kalom ilmi bilan qattiq shug'ullanar, faylasuflarning fikrlariga yopishib olar edilar. Mu'taziliylarning yana bir namoyandasi Abul Hasan Ash'ariy (260-324 m. / 874-936m.) qirq yil mu'taziliy oqimi tarafdori bo'lgach, bir voqea sabab bo'lib, bu oqimni tark etgan va Ahli sunna val-jamoat toifasi safiga qo'shib ketgan. Voqea shunday bo'lgan edi: Mu'tazila peshvolaridan Abu Ali al-Jubboiy (vaf. 303m. / 915m.) muzurida dars tinglab turgan Ash'ariy ustoziga savol berib: «Uch aka-ukaning kattasi Allohga toat ibodat qilib dunyodan o'tgan. O'rtanchasi uning aksi, ya'ni toat o'rniga gunoh va ma'siyat bilan umrini ytkazgan. Kenjasi esa, voyaga yetmay sag'irlik vaqtida qilgan bo'lsa, qiyomat kuni ularga nisbatan Alloh taolo qanday munosabatda bo'ladi?» deydi. Al-Jubboiy: «Kattasi jannatga, yrtanchasi dazaxga tushadi. Kenjasi esa ikkisiga ham tushmaydi» deb javob beradi. Ash'ariy: «Agar kenjasi, ey rabbim, nega meni sag'irligimda yldirding, agar umr berganingda men nam imon keltirib, toat-ibodat qilib jannatga kirar edim-ku, desa Alloh nima deb javob beradi?» deb so'raydi. Ustoz: «Alloh unga, Men bilganmanki, senga umr bersam, katta bo'lganingda toat o'rniga ma'siyat bilan mashg'ul bo'lar eding. Men sening foydangni istab, yoshligingda o'ldirdim. Natijada do'zaxdan omonda qolding, deb javob beradi»- debdi. Shunda Ash'ariy: «O'rtanchasi Allohga, nega meni sag'irligimda yldirmading, toki bu gunohlarni qilib dazaxga tushmagan bo'lar edim, desa Alloh nima deb javod beradi?» deb so'raganda Jubboiy javob topa olmay mulzam bo'lib qolgan ekan. Shundan so'ng Ash'ariy va uning namfikrlari mu'tazila mazhabini tark etib, Sunnat va so'obalar jamoasi yurgan yo'lga yadilar. Shu yo'lda yuruvchilarni «Ahli Sunna val-jamoat» deb atay boshladilar.

So'ngra falsafa yunon tilidan arab tiliga ygirila boshlaydi. Islom ulamolari ham falsafani chuqur o'rganishga ruju qo'yadilar. Islom ta'limotiga xilof ravishda fikr yurituvchi g'ayri islomiy faylasuflarga raddiya berish uchun islomiy kalom ilmiga boshqa xalqlarda shakllangan falsafadan nam talaygina aralashtirib yzlarining diniy qarashlarini isbotlashga, boshqacha qarashlarni esa rad etishga imkoniyat topadilar.

Tez orada kalom ilmiga tabiiy fanlar, riyozat va ilmiyot nazariyalari nam qo'shib ketadi. Agar oyat va hadislar aralash bo'lmaganida islomiy kalom ilmini falsafalardan farqlash mumkin bo'lmagan bo'lar edi. Lekin xulosa qilib aytish mumkinki, kalom ilmi barcha ilmlarning ichida eng sharaflisidir. Zero u shar'iy amkomlarning asosi va diniy ilmlarning boshidir. Uning vositasi bilan islomiyat e'tiqod yrganiladi, natijada diniy va dunyoviy yutuqlarga erishiladi. Uning dalillari qat'iy mujatlardan iborat bo'lib, naqliy dalillar (oyat va hadislar) bilan quvvatlangandir. Oldingi islom ulomalarining kalom ilmiga nisbatan salbiy munosabatda

bўlganliklarining boisi kalom ilmiga ortiqcha ruju qilish bilan musulmonlarning e'tiqodlariga xalal yetkazilishidan saqlab qolish bўlgan. Aks holda shunday zarur va asosiy ilmdan taqiqlash mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydigan narsa ekani hammaga ma'lum edi.

Tayanch iboralar: Kalom, ilmi kalom, mutakallimlar, mu'taziliylar, Hasan Basriy, Vosil ibn Ato, Jubbaiy, Abul Hasan Ash'ariy, Taftazoniy «Aqoidi nasafiya».

Adabiyotlar:

1. Z. Islomov. Imom Moturudiyning ustoz va shogirdlari.- Moturudiy ta'limoti va uning sharq xalqlari madaniyatida tutgan o'rni. – T.: 2000.
2. Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim al-Bursaviy. Ahli Sunnat va Jamoat Aqoidi. - T.: Movarounnahr, 1998.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqiydalar.-T.: Movarounnahr, 2005.
4. Z. Husniddinov. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. O'quv qo'llanma. – T.: Movarounnahr, 2000.

6-ma'ruza.

Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishi: dastlabki mutasaffivlar

Dars rejasi:

1. *Tasavvuf tarixi va rivojlanishi*
2. *Tasavvuf so'zining mazmun-mohiyati*
3. *Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati*
4. *Tasavvufdagi maqom va hol bosqichlari*

Tasavvuf Sharq ma'naviyati tarixida muhim o'rin egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Biroq zohidlar uzlat va taqvoni pisha etgan bo'lishlariga qaramay, ishq va irfon (ilohiy ma'rifat)dan bexabar kishilar edilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag'firatini qozonish, Islom falsafasii Karimda va'da qilingan jannatning huzur-xalovatiga yetishish edi. So'fiylar ("So'fiy" so'zi arabcha "suf" so'zidan hosil bo'lgan, undan tasavvuf so'zi kelib chiqadi, ya'ni sufiy - jun matodan kiyim kiygan odam demak) nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tama'ning bir ko'rinishidir. Holbuki, so'fiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tama' bo'lmasligi kerak. Yagona istak bu - Xudoning diydoridir, xolos.

Xudo g'azabidan qo'rqibgina amri ma'rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir, deydi so'filar, ular ilohiy ishq-muhabbatni, Allohning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafs u hirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh

vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad - ilohiy olamga borib qo'shilmoqdir, dedilar.

Shu tariqa, VIII asr oxiri – IX asr boshlarida dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan» (Hofiz Sheroziy) zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lgan ediki, ularni ruh kishilari yoki ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar.

Shunga ko'ra, olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi - zohidlik davri, ikkinchisi - oriflik va oshiqlik davri. So'fiylarning o'zini ham orif so'fiylar, zohid so'fiylar, rind so'fiylar, faqir so'fiylar, faylasuf so'fiylarga ajratish mumkin. Oriflik davri deb ataganimiz ikkinchi davr ham bir necha bosqichlarga ega. Chunonchi, IX-X asrlar - xonaqohlarning paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanish davri. XI-XII asrlar - tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topish davri. Bunda Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

XIII asr oxiri - XIV asr boshlari tasavvuf tarixida alohida bir mahsuldor davridir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Najmiddin Kubro (1145-1221), Yah'yo Suhrevardiy (1155-1191), Muhyiddin Ibn Arabiy (1165-1240), singari mutafakkir shayxlar, Ahmad Yassaviy (vaf. 1166), Farididdin Attor (vaf. 1220), Jaloliddin Rumiy (1207-1273) kabi ulug' so'fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Agar IX-XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga katta e'tibor berilib, tasavvufning fano va baqo kabi tushunchalari, Haqqa vosil bo'lish mayli shiddat bilan targ'ib qilingan bo'lsa, XIII asr o'rtalaridan boshlab, tafakkuriy-aqliy yo'nalish yetakchilik qila boshladi. Bu falsafiy oqim tasavvuf tarixida «vahdatul vujud» nomi bilan shuhrat topdi. So'fiylar endi koinot tuzilishi, odamlarning hususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson anglamlari bilan bosh qotiradigan bo'ldilar. Natijada Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy-irfoniy tizim o'z ifodasini topdi, ular ilohiy kashfu karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga real insoniy hayot haqida ham ko'p ajoyib fikrlarni bayon etdilar. Shunday qilib, tasavvuf Sharq fikriy taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni o'z ichiga qamrab olib, uni rivojlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlaridan oziqlanib, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf Sharq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisa - fenomenga aylanib qoldi.

Shu zaylda, tasavvuf tarixi islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma'rifatiga o'lkan hissa bo'lib qo'shildi. Agar dastlabki paytlarda Kufa, Basra va Bag'dod shaharlarida sanoqli darajada zohid sufiylar yashagan bo'lsa, bora-bora musulmon olamida shayxu mashoyixlar, so'fiy darveshlar, qalandarlarning soni

ko'paydi, yuqorida aytganimizday, bu o'ziga xos bir harakatga aylandi. Birgina Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns minal hazarotul quds» nomli kitobida 664 ta shayxu so'fiyning nomi zikr etiladi. Bu XV asrgacha yashab o'tgan atoqli so'fiylar tazkiras, vaholanki, ulardan ko'plarining nomi Jomiy kitobida zikr etilmagan. Navoiy ularning bir qismini «Nasoyimul muhabbat» asariga kiritgan. Shulardan yuzdan ortiqrog'i Turonzaminda yetishib chiqqan buzurgvorlar hisoblanadi. XV asrdan keyin ham yana qancha azizu avliyo yashab o'tganligi ma'lum.

Shu tarixiy jarayonda tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllandi. **Tariqat, ma'rifat, haqiqat** degan tushunchalar yuzaga kelib tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi - tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So'fiylar dastlabki paytlar tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar («iboraga kelmaydigan ishoratlar») deb hisoblagan bo'lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so'fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug'ildi.

Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Abuali al Horis Muhosibiy (781-857), Zunnun Misriy (796-861), Abuyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag'dodiy (vafoti 910), Hakim Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858-922)larning xizmati katta bo'lgan. Keyinchalik Abusaid Abulxayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166), Yahyo Suhrevardiy (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) kabi shayxul mashoyixlar tasavvuf ilmini yangi fikrlar, qarashlar bilan boyitdilar, yangi oqim, silsilalarini vujudga keltirdilar. Tasavvuf haqida bir qancha risola va kitoblar yozildi, tasavvuf g'oyalarini qizg'in targ'ib etuvchi ulkan she'riyat vujudga keldi. Tasavvufga oid nazariy kitob va qo'llanmalardan Abunasr Sarroj (vafoti 988 yil)ning «Kitob al - luma'», Abubakr al - Kalabodiy (vafoti 990 yil)ning «Kitob at - taarruf», Abu Tolib Makkiy (vafoti 998 yil)ning «Qut al - qulub», Abdurahmon Sulamiy (vafoti 1021 yil)ning «Risalat al - malomatiya», Qushariy (vafoti 1072 yil)ning «Risola fit tasavvuf», Al - Hujviriy (vafoti 1076)ning «Kashf al - mahjub», Abdulloh Ansoriyning «Manozil as - soirin», Fariddin Attor (1119-1222)ning «Tazkirat al - avliyo» nomli asarlarini ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari, Rumi, Hofiz Sheroziy, Mahmud Shabistariy asarlariga yozilgan sharhlar ham so'fiyona ishora va tamsillarni anglashda muhim rol o'ynagan.

Tasavvufga oid ilmiy kitoblar va dasturlarda **tariqat** atamaları, maqomot manzillarini tushuntirishga ko'p e'tibor beriladi. «Tariqat» so'zining ma'nosi yo'l demak. Ya'ni ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo'li. Tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb ta'riflaydilar. Darhaqiqat ham shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, solik (ya'ni tariqatga qadam qo'ygan yo'lovchi) bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, irodat va ishorat usullari shu tariqat ichiga kiradi. Tariqat va uning maqomotlari, ma'lumotlarga qaraganda, birinchi marta Zunnun Misriy tomonidan bayon etilgan ekan. Abdulloh Ansoriy yozadikim, Zunnun Misriyni faqat «karomat bilan sitoyish» qilish kifoya emas, chunki uning «ilgida maqom va hol suxra erdi», ya'ni maqom va hol ilmi Zunnun

qo'lida o'yinchoqday gap edi (A.Navoiy «Nasoyimul muhabbat»). Navoiy yozadi: «Ul kishikim ishoratni ibodatg'a kelturdi va bu tariqdin so'z aytdi ul erdi».

Demak, Zunnun birinchilardan bo'lib, so'fiyona holatlar, karomatlarni so'z bilan ifodalagan. Zunnun o'zi hikoya qilib deydiki, uch safar qildim va uch ilm keltirdim: avvalgi safarda bir ilm keltirdim, xos ham, avom ham qabul qildilar, ikkinchi safarda yana bir ilm keltirdim, xos qabul qildi, ammo avom qabul qilmadi, uchinchi safarda yana bir ilm hosil qildim, na xos qabul qildi va na avom. (Tasavvuf ahli xos deganda ilmi holdan xabardor so'fiylarni, avom deganda esa, tasavvufga oshno bo'lmagan kishilarni nazarda tutganlar.) Zunnun aytgan birinchi ilm shariat ilmidir, chunki shariat xosga ham avomga ham birday tegishli. Ikkinchi ilm - tariqat yoxud muomalat va muhabbat ilmi, uchinchi esa - haqiqat, ya'ni Iloh haqidagi ilmdir.

Agar Zunnun tasavvufdan birinchi bo'lib «so'z aytgan» bo'lsa, Junayd Bag'dodiy «bu ilmga tartib berib, bast qilib (jamlab), kutub bitidi» («Nasoyimul muhabbat»). So'ngra Junaydning kichik zamondoshi Shayx Abubakr Shibliy bu ilmni minbar ustiga olib chiqib, elga oshkor qildi. Birinchi bo'lib muridlarga rahnamolik qilgan ham yuqorida nomlari tilga olingan shayxlar bo'lgan.

Muridning asosiy xislati niyozmandlik, ya'ni talabgor bo'lish, murshidi komilning etagini tutib, aytganlariga so'zsiz rioya qilishdir. Pirsiz solik manzilga yetolmaydi. Chunki odam o'zini nazorat qilishi qiyin, toki biron rahnamolik qilib, yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi. (Buni Alisher Navoiy «Lisonut tayr» dostonida Hudhud va talabgor qushlar misolida yaxshi ko'rsatib bergan). Hatto eng yaxshi niyatlar ham agar rahnamo bo'lmasa, samara bermay, qalbdagi zavqu shavq noto'g'ri yo'lda sarf bo'lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas.

Shuni e'tiborga olib, tajribali pirga qo'l berib, iroda-ixtiyorni unga topshirganlar. Shu ma'noda tariqatni irodat ham deydilar. Ya'ni irodani shayx irodasiga muvofiqlashtirish, shayx irodasini o'z irodasi deb bilish. Muridga rahbarlik qiluvchi pirning o'zi ajzu izzat yo'li - tariqat maqomlarini eson-omon bosib o'tgan, qalbi Iloh ma'rifatiga limolim orif inson bo'lishi kerak. Pir har jihatdan muridga o'rnak bo'lmog'i darkor: ham bilimning chuqurligi, ham tariqat usullarini yaxshi bilishi, ham ko'ngilning pokligi, nafsini mahv etganligi va hokazolar bilan ajralib turishi, salobati, so'zi va harakati bilan, suhbat va nazari bilan, tadbiri va himoyasi bilan muridga ta'sir o'tkazmog'i lozim.

Shuni ham aytish kerakki, soliklarning iste'dodi xilma-xil bo'lganday, pirlarning murabbiylik qobiliyati ham turlicha bo'lgan. Ba'zi shayxlar muridga tariqat odobini o'rgatganlar, ya'ni uni xoksorlik, taslim va itoatga keltirish, manmanlik, hirsu havo kabi tuyg'ulardan xalos etish bilan shug'ullanganlar. Ba'zi shayxlar muridga ruhiy karomati, mo'jizalari bilan ta'sir etganlar. Yana bir qism shayxlar shogirdlariga tasavvuf asoslarini o'rgatish, nazariy bilimlar bilan qurollantirishga e'tibor qilganlar.

Masalan, hazrati Bahouddin Naqshbandning bir nechta pirlari bo'lgan. Navoiyning yozishicha, Xoja Bahouddinga «qabul nazari» Boboyi Samosiydandir. Boboyi Samosiy yosh Bahouddinni Amir Sayid Kulolga topshiradi. Amir Sayid Kulol tariqat odobi ta'limini davom ettirgan. Biroq, hazrati Naqshband ancha ilgari vafot etgan Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyni va Qusam shayxni ham o'z pirlari qatoriga qo'shadi. Nega? Chunki, Amir Sayid Kulol zohir yuzasidan pir bo'lsalar, «haqiqat

yuzasidan» ruhiy tarbiyatni hazrati Bahouddin Abduxoliq G'ijduvoniyaning olgan. Bunday g'oyibona ruhiy-ma'naviy tarbiya olishni tasavvufda «uvaysiylik» deyдилar. Sababi Uvays Qaraniy g'oyibon Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ruhlaridan madad olganlar, bu shunga ishora.

Faqat shuni ta'kidlash zarurki, murid tarbiyasidan asosiy maqsad axloqni poklash, nafsni o'ldirish, odamdagi o'ziga bino qo'yish, takabbur, xudpisandlikni yo'q qilish edi. Murid pir qo'lida ruhiy-ma'naviy zinalardan ko'tarilib boradi. Iloh sari muhabbati oshib, dunyo muhabbati ahamiyatsiz bo'lib boravergan.

Shu bois tariqatda maqomot va hol tushunchalari muhim o'rin tutadi. «Maqomot» - maqom(manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abunasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan:

1. Tavba, 2. Vara', 3. Zuhd, 4. Faqr, 5. Sabr, 6. Xavf, 7. Rajo, 8. Tavakkul, 9. Rizo.

Tavba - qaytish demak, ya'ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bobul abvob - eshiklarning eshigi ham deyдилar, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu tavbasida ayonlashadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga yetishish yo'liga g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan qaytishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Ollohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Tavba kufrdan, shariat man' etgan nahyi va yomon ishlardan qaytish, zamima axloqdan hamida axloqqa qaytish, Haqning g'ayri bo'lgan narsalardan qaytish kabilarni o'z ichiga oladi.

Vara' so'zining ma'nosi parhez, taqvo bo'lib, bulg'anishlardan, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanish demakdir. Shibliyning ko'rsatishicha, vara'ning uch ko'rinishi bor: til vara'i, ya'ni tilni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslik; ko'z vara'i - shubhali narsalardan saqlanish, g'aliz shakllarga boqmaslik; qalb vara'i, ya'ni past himmatni tark etish va noxush qiliqlarni qilmaslik.

Zuhd - vara'ning davomi hisoblanadi, bu ham parhez qilish demakdir. Ammo bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratishga alohida ahamiyat beriladi. Zuhd so'fiy uchun dunyo va oxirat tarki, dunyo moliga ega bo'laman deb intilmaslikdir.

Faqr - ma'nosi qashshoqlik, benavolik. So'fiylar nazdida ulug'vor ilohiy mohiyat kasb etish bo'lib, Xudoga bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo'ldagi tuproq misol nomu nishonasiz bo'lish, Iloh nazdida o'zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash. Va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham.

Sabr - toqat, chidam. So'fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi (sobir) o'zini balo girdobiga solib, balolardan qo'rqmaydigan odamdir. Ruhiy-ma'naviy mushkilliklar yuz berganda, sabr qilgan solik kushoish topadi, yangi manzillarni kashf etadi. Sabr - iymonning yarmi deyдилar, chunki so'fiyning dushmani bo'lgan nafs sabr orqali jilovlanadi.

Xavf - qalbning ishonchdan, iymon amnidan chiqishi, ikkilanish, tahlika. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko'ngilga xavf-qo'rquv soladi. Solik azobdan emas,

balki makrdan, nafs makridan qo'rqadi. Vaholanki, shayton iymoni mustahkam odamdan qo'rqishi kerak.

Rajo - umidvorlik. Qalbning kelajakda Mahbub vasliga yetishidan umidvorligi, xavfdan qutulish umidi. Dilning sog'inchi, intiqliklari ham shunga kiradi.

Tavakkul - barcha yaxshi-yomon hodisalar, ishlarni Xudodan deb bilish, kullari Parvardigorga suyanish. Tavakkul ilohiy fayzga e'timodli kishining iymonidir. Bu ma'rifat kamolidan keladigan oliymaqomdagi iymondir. Inson juda ko'p narsalarni qila oladi, ammo bu harakatlarning bari Ulug' Alloh qudrati tufayli, Qudratining namoyon bo'lishi ekanini anglash shart.

Rizo - qalbdan qabohat-kirlarning ketishi, qazoyu qadar hukmiga bo'ysunish, nafs roziligidan chiqib, Haq roziligiga kirishdir. Qazo - amriga taslim bo'lgan qalbning sururi. Rizo - bandaning o'z rizosidan chiqib, Mahbub rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarra e'tiroz qilmasligidir. Solikda ushbu maqomda hech narsadan g'azab, hayajon, gina-kudurat va xafalanish bo'lmaydi.

Maqomat darajalarini bir-bir egallab, muvaffaqiyatga erishgan solik hol martabasiga yetadi va tasavvur-taxayyulda ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, qalbini zavqu shavq qamrab oladi. U shunday bir holatga ko'tariladikim, butun a'zolari go'yo Alloh deydigan, har nafasi Buyuk Allohning borligidan xabar beradigan bo'ladi.

Holda orqaga qaytish yo'q, o'zgarish faqat oldinga qarab sodir bo'ladi. Holga kirgan solikning tili emas, dili so'zlay boshlaydi, u kechinmalari, holatini harakat - ishoralar, fe'l-atvor orqali izhor etadi. Hol ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun u tasavvufda maxsus ilm - ilmi hol orqali o'rganilgan. Tasavvuf ahli orasida «ilmi qol» va «ilmi hol» degan tushunchalar bo'lgan. «Ilmi qol» til bilan ifodalasa bo'ladigan ilmlar, ya'ni zohiriy ilmlar, chunonchi shariat ilmi ham shunga kirgan. «Ilmi hol» esa insondagi so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan g'aroyib ruhiy kechinmalar, favqulodda fe'l-atvor, xislatlarning namoyon bo'lishidir.

Xuddi maqomotning bosqichlari bo'lganiday, holning ham tasnif-ta'rifga keltirilgan bosqichlari mavjud. Chunonchi: 1. Qurb, 2. Muhabbat, 3. Shavq, 4. Uns, 5. Mujohida, 6. Mushohida, 7. Mukoshifa.

Qurb (yaqinlik) - solikning o'zini Alloh taologa yaqinlashganini his etish holati, Xudoning huzurini bevosita sezish, Xudo nigohining tushishini ham anglatadi. Qurbni so'fiylar ko'pincha Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamning Me'roj tuni Alloh huzuriga yetganlari bilan qiyoslaydilar.

Muhabbat - qallda kuchli tug'yonning ko'tarilishi, betoqat va bezovta bo'lib, barcha go'zalliklar manbai, qudratu nusrat, ne'matu rohat egasi Alloh tomon talpinishdir.

Shavq - muhabbatning zo'rayishi.

Uns - ko'nikish, Xudo mehriga, shafqatiga odatlanish.

Mujohida - nafsni mahv etishga qat'iy intilish, tanga mashaqqatni ravo ko'rib, ma'naviyat uchun jihod, ya'ni jangga kirish va g'alaba qilish demak. Mana shunday jiddu jahd, shiddatli ruhiy iztiroblardan keyin solik Haq jamolini mushohida eta boshlaydi.

Mushohida (ko'rish) esa o'z navbatida g'ayb pardalarining ochilib, ilohiy sirlarning kashf etilishiga yo'l ochadi - **mukoshifa** martabasi hosil bo'ladi. Albatta, bu

martaba - manzillarning ketma-ketlik tartibini shartli, deb bilmoq kerak. Chunki bu holatlar solikda navbatma-navbat yuz berishi ham yoyinki birdaniga bir necha xislat sohibiga aylanishi ham mumkin. Tariqat maqomotlari bilan hol martabalari orasidagi aloqalar xususida ham shu gapni aytish mumkin.

Muridning maqomlar sari ruhiy safarida zikr, chilla o'tirish, pir bilan suhbat, samo' majlislari uyushtirish muhim rol o'ynagan. Solikning ruhiy-ma'naviy kamolotini «sayr» yoki «safar» so'zlari bilan tushuntirganlar. Sayr va safar to'g'ri ma'noda ham qo'llanilgan. Chunki safar qilish ajzu riyozat turlaridan biri hisoblangan. Ko'p so'fiylar musulmon mamlakatlarini piyoda kezib chiqqanlar, atoqli shayxlarning suhbatiga yetishganlar. Ayniqsa, piyoda haj safariga borish so'fiy uchun katta sharaf deb qaralgan. Lekin tariqat safari deganda aksari ruhiy safar tushuniladi. Safar - ko'ngilning Haq sari tavajjuhi.

Sayr va safar tushunchalarini izohlaydigan bo'lsak, quyidagi ma'no hosil bo'ladi: birinchi safar - kasrat (dunyo) pardalarining vahdat (Iloh) yuzidan ko'tarilishi; ikkinchi safar - vahdat pardasini kasrat vujudidan ketkazish va botin orasidagi qaydlarni bartaraf etish, aynan dunyoning o'zida Uni ko'rish; uchinchi safar - zohir (juz')dan jam' sari taraqqiy etish va to'rtinchi safar - haqdan yana xalqqa qaytishdir. Haqdan xalqqa qaytish deganda so'fiylar orasida: «rasti-rasidi» («uzilding-yetding») degan ibora bor. Buning ma'nosi xalqdan uzilsang - Haqqa yetasan, demakdir. Ammo bu ibtido-dagi niyat, bunga erishgandan keyin esa, endi so'fiy xalqqa Haq nomidan gapira olishi mumkin bo'ladi, shu bois xalqqa qaytish yana dunyo mashg'ulotiga qaytish emas, balki dunyoga Alloh nurini taratishdir.

Haq yo'liga kirgan darveshning ana shunday ruhiy iztiroblar safaridan so'ng qo'lga kiritgan ma'naviy ma'rifati tufayli u shaxsiy «Men»dan qutuladi va to'laligicha Mutlaqiyatga qo'shilib, u bilan qorishib, erib ketadi. So'fiylar buni qatraning dengizga qo'shilishi yoxud qizitilgan temirning olov bilan bir xil tus olishi bilan qiyoslab tushuntirganlar. Darhaqiqat, qatra - dengizdan nishona, dengizning mohiyati qatrada ifodalangan. Shu singari inson ruhida ham Iloh sifat-lari mujassam. Biroq moddiylik uni Iloh-dan ajratib turadi. Aslidan ajralgan, vaqtincha g'ariblikda, musofirlik (safar)da bo'lgan inson ruhi hijron dog'ida qiynalib azob chekadi. Ammo ruh moddiylikdan poklansa, musaffo shabnamday bo'lib, Dengizga - o'z asliga borib qo'shilishi mumkin. Bu vasl faqat ilohiy ma'rifat orqali, ya'ni o'z-o'zini anglash, tanish va shu asosda o'z Rabbini tanish orqali qo'lga kiritiladi.

Shunday qilib, ilohshunoslik ilmi - teosofiya bo'lgan irfon yoki ma'rifat («ma'rifat» so'zi arabcha «arafa» - bilmoq so'zidan yasalgan) tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. So'fiylar nazarida ma'rifat fikrdan oldin ketadigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir. Ma'rifat ilmi **botiniy ilm** deb ham yuritilgan. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo'shib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar. Ularning uqtirishicha, zohiriy ilmlar bilan Xudoni bilish qiyin. Biroq, boshqa bir nuqtai nazar ham bor: garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz bo'lsa-da, lekin dunyoni bilish Allohni bilishning birinchi bosqichi, ya'ni Allohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki dunyo - kasrat ko'plik olami, Allohning ijodi. Uning sifat-lari, qudratini namoyon etib turadigan ko'zgu. Moddiy dunyodagi jamiki ilm, insonlarning to'plagan hikmat-donishlari, hali ochilmagan barcha siru

asrorlar Allohga tegishli, Alloh - hikmatlarning jamuljami, bizning bilimlar esa - Uning tafsiri, sharhi. Demak, biz Rabbimizni bilish uchun tafsirdan Buyuk aslga qarab borishimiz kerak.

Tasavvuf g'oyalarining tarqalishi, darveshchilik harakatining rivoj topishiga turli pirlar, atoqli shayxlarning nomi bilan bog'liq tariqatlarning ahamiyati katta bo'lgan. Tariqat (yoki suluk - yo'llar) bir-biridan, avvalo islomdagi ikki mazhab - shia yoki sunnaga rag'bat bilan, ikkinchidan, shariatga munosabati bilan, uchinchidan, muayyan tariqat tarqalgan aholining qadimiy tasavvur-odatlar, madaniy darajasi bilan va, nihoyat, to'rtinchidan har bir piri murshidning tarbiya usuli, ma'qul deb hisoblagan ruhiy-ma'naviy ta'sir vositalari bilan o'zaro farqlangan. Masalan, Mesopotamiya va Eron, Hurosonda tafakkuriy-irfoniy yo'nalish, Turkiya, Afrika mamlakatlari, qisman Hindistonda shariatga zich bog'langan yo'nalish, Movarounnahrda ham irfoniy va ham shariat izmidagi yo'nalishlar birgalikda yoyilgan. Tariqatlarning soni elliktadan ortiq. Chunonchi, tayfuriya, zahabiya, hurufiya, hallojiya, shozaliya, junaydiya, suhravardiya, safariya, qodiriya, ne'matullohiya, chishtiya, nizomiya, bektoshiya, nurbaxshiya, mavlaviya, malomatiya, qalandariya, ma'rufiya, firdavsiya, nuriya, qushayriya, xalvatiya, adhamiya, ahmadiya va hokazo.

Bulardan tayfuriya (Tayfur Boyazid Bistomiy nomi bilan bog'liq), hakimiya (Hakim Termiziy nomi bilan bog'liq), hallojiya (Mansur Hallojga nisbat beriladi), suhravardiya (Yahyo Suhrevardiy nomi bilan bog'langan) oqimlar ko'proq nazariy tomonlari bilan ma'lum. Chunki Bistomiy, Hakim Termiziy, Junayd Bag'dodiy yoki Yahyo Suhrevardiy maxsus xonaqo tariqatini tuzib, solik tarbiyasi bilan shug'ullanmaganlar. Ularning tarafdorlari bor, xolos. Qalandariya, malomatiya kabi oqimlar esa biror shayx nomi bilan bog'liq bo'lmagan, alohida yo'nalishlardir.

Markaziy Osiyoda tasavvuf IX asr o'rtalaridan boshlab tarqala boshlagan. Dastlab Balx, Termiz, Nasaf shaharlari, so'ngra Buxoro, Xiva, Samarqand, Turkiston, Toshkand shaharlarida ham nazariy va ham amaliy ishlar bilan shug'ullanadigan pirlar yetishib chiqdilar. Avliyolik haqidagi birinchi kitob bo'lgan Hakim Termiziyning "Xatmul avliyo" asari Termizda yozildi. Markaziy Osiyoda quyidagi tariqatlar qadimdan keng tarqalgan: **hakimiya, qodiriya, yassaviya, kubraviya va naqshbandiya** (yoki «xojagon»).

Qodiriya tariqati eronlik shayx Geloniy (1077-1166) nomi bilan bog'liq. U asosan Bag'dodda yashab karomatlar ko'rsatish, ilmu riyoza bilan shug'illangan. Sunniy mazhabidadir. Abulqodir Geloniy Junayd Bag'dodiyning «sahv» (hushyorlik) konsepsiyasini rivojlantirgan, u muridlari orasida «Buyuk madadkor» (G'avsul a'zam) nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning tariqati hozirgi Arab davlatlari, Turkiya va O'zbekistonda tarqalgan. Abdulqodir Geloniy Movarounnahrda bo'lgan emas, ammo shunga qaramay bu tariqatning Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo tomonlarda ixlosmandlari va izdoshlari bor.

Yassaviya - ulug' shayx va shoir Xoja Ahmad Yassaviy (vafoti 1166 yil) asos solgan tariqat. Shuni aytish kerakki, yassaviya bilan naqshbandiyaning ildizi Xoja Ya'qub Yusuf Hamadoniya (1048-1140) borib taqaladi. Ahmad Yassaviy ilk ustoz Arslonbobdan xirqa kiyib, tasavvuf yo'liga kirgach, Buxoroga borib Xoja Yusuf Hamadoniya dan tariqat ta'limini oladi. Abduxoliq G'ijduvoniya bilan birga

Hamadoniyni eng ishongan xalifasiga aylanadi. Yusuf Hamadoni vafot etgach, uning o'rniga uchinchi bo'lib shayxlik maqomiga ko'tariladi, ammo ko'p o'tmay Buxorodagi ishlarini birodari Abduxoliq G'ijduvoniya topshirib, o'z vatani Turkistonga qaytadi va bu yerda yangi tariqatni ta'sis etadi. Uning ko'p sonli muridlari turkiy xalqlar orasida yurib, tasavvuf g'oyalarini yoyganlar. Yassaviy ovoz chiqarib zikr aytish («zikri jahriya») va karomatlar ko'rsatib murid tarbiyalash, xilvatda suhbat qilishni yo'lga qo'ygan.

Uning o'zidan keyingi silsilasini quyidagi shayxlar davom ettirganlar: So'fi Muhammad Donishmand, Sulaymon Boqirg'oni, Mansur bin Arslon bobo, Luqmon Paranda, Abdumalik Tojxoja, Is'hoq bobo, Zangi ota bin Abdumalik, Said Xorazmiy, Xalil ota, Xoja Bektosh Valiy, Uzun Hasan, Sadr Xoja, Badr Xoja, Ahmad Sayyid, Kamol Iqoni, Hazrati Bashir va boshqalar. Yassaviya tariqati hozirgi Markaziy Osiyo, Turkiya va Rossiya xududlarida tarqalgan.

Kubraviyaning asoschisi xorazmlik ulug' shayx Najmiddin Kubro (1145-1221)dir. U kishining ismi Ahmad, otasining ismi Umar bo'lib, Najmiddin, Kubro, Valitarosh, Abuljannob so'zlari u kishini sharafllovchi kunya va laqablardir. U kishi Misr, Eron, Iroq, Shom mamlakatlarini kezib, turli ilmlarni egallaganlar. Shayx Ro'zbehon Vazzon, Bobo Faraj, Shayx Yosir Ammor, Shayx Ismoil al - Kasriylardan so'fiylik sirini egallab, Xorazmga qaytib, xonaqo qurganlar. Juda ko'p muridlari bo'lgan. Najmiddin Kubro bir necha kitoblar ta'lif etgan, ularda inson va koinot, inson ruhiyati tadqiq etiladi. O'ziga xos tariqat yo'li («usuli ash'ora» - o'nta usul) bayon etiladi. Najmiddin Kubro mug'ul bosqichlariga qarshi jangda qahramonlarcha halok bo'lgan, qabri Ko'hna Urganchdadir. Kubraviyaning Eron, Pokiston, Afrikada tarqalgan, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya kabi o'ndan ortiq shoxobchalari bor.

Najmiddin Kubroning silsilasi:

Majiddin Bag'dodiy, Sayfiddin Boxarziy, Sa'diddin Hamaviy, Fariddin Attor, Raziaddin Axi Lolo, Najmiddin Doya, Badriddin Firdavsiy, Najmiddin Muhammad, Sadriddin Ibrohim, Aziziddin Nasafiy, Shayx Kamol Jundi, Nuriddin Abdurahmon Isfahoni, Rukniddin Ali ad - Davla as - Simnoniy.

Naqshbandiya Buxoroi sharifda shakllangan bo'lib, dunyoning eng ko'p tarqalgan tariqatidir. Asoschisi Bahovaddin Muhammad bin Burhon bin Muhammad al - Buxoriy (1318-1389). «Naqshband», «balogardon» ul zoti sharifning muborak sifatlaridir. Xoja Yusuf Hamadoni, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Rometaniy, Boboi Samosiy, Sayid Amir Kulol, Qusam Shayx, Xalil ota Bahovaddin Naqshband pirlari bo'lsa, Alouddin Attor, Muhammad Porso, Ya'qub, Charxiy ul zotning peshqadam muridlari hisoblangan. Ulardan keyin naqshbandiya tariqatini Xoja Ahrori vali, Muhammad Zohid, Xoja Darvesh, Xoja Amkangiy, Ahmad Kosoni, Eshoni Valixonlar davom ettirganlar. Ammo ushbu silsila tariqatning bu bir shoxobchasidir. Naqshbandiyaning Hindiston, Malayziya, Filippin, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Rossiyada yana ko'plab tarmoq silsilalari bor. Hatto G'arbiy Yevropa va AQShda tariqat tarafdorlari mavjud. Lekin shuni qayd etish kerakki, xorijda yashovchi «naqshbandiy»larning bir qismi asl Naqshband tariqatidan uzoqlashib qolganlar. Naqshband zikri xafiy (sokin zikr)

tarafdori, u kishi suhbatni tarbiyaning asosiy quroliga aylantirib, xilvatnishinlikni ham, samou raqsni ham qabul qilmaganlar. Balki botiniy olamni rivojlantirish, shariatdan uzoqlashmasdan soʻfiylik maqomini egallashni talab qildilar. Naqshband hazratlari amal qilgan «safari dar vatan», «xilvat dar anjuman», «hush dar dam», «nazar dar qadam», «dil ba Yoru dast ba kor» shiorlari odamni ham maʼnaviy yuksalishga koʻmaklashadi va ham jamiyatda bahamjihat yashab oʻzaro bir-biriga yordam berish, mehnat, bunyodkorlik bilan yurtni obod qilishga safarbar etadi. Tasavvuf inson axloqini poklash, oʻzlikni tanish va saxovatpeshalik, ezgu amallarga oʻzini bagʻishlash xislatini tarbiyalab keldi, Komil inson idealini bayroq qilib, odamlarni ruhiy-maʼnaviy yuksalishga chorladi, qalblarga ilohiy maʼnaviy nurini kiritishga intildi. Shu maʼnoda bu muqaddas merosni hozirgi avlodga yetkazish, toʻgʻri talqin qilish muhim boʻlib turibdi.

Tayanch iboralar: *Zohidlik, oriflik, xonaqohlar, tasavvuf maktablari, “vahdatul vujud”, tariqat, maʼrifat, haqiqat, maqomat, hol, murid, pir, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya (xojagon), “dil ba Yoru, dast ba kor”.*

Adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T: Movarounnahr, 2004.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. –T: Istiqlol, 1999.
3. Abdulhakim Sharʼiy Joʻzjoniy. Tasavvuf va Inson. Adolat, 2001.
4. Hamidullo Boltaboev. Islom tasavvuf manbalari. Oʻqituvchi, 2005.

7-maʼruza

Islom dinida falsafaning oʻrni va islom falsafasining paydo boʻlishi

Dars rejasi:

1. *Islomning VIII asrda Markaziy Osiyoga kirib kelishi.*
2. *Islomiy ilmlar shakllanishida musulmon sharqidagi qadimgi madaniy anʼanalarning roli.*
3. *Ilohiyot falsafasi, hadisshunoslik va fiqhning shakllanishi.*
4. *Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining vujudga kelishi.*
5. *Xalifa Maʼmun(813-833) faoliyati va ilmiy bahslar.*
6. *Aql bilan dinni bir-biriga tadbiq etishga urinish va uning namoyandalari.*

Islom eng soʻnggi jahoniy din sifatida oldingi dinlarning koʻp ijobiy xislatlarini oʻzida ifodaladi. XX asr boshlariga qadar u Yaqin va Oʻrta Sharq, jumladan, Oʻzbekistonda dingina emas, balki hukmron dunyoqarash vazifasini oʻtab keldi.

Islom VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoga kirib keldi. Islom VIII-IX asrlar davomida Xuroson va Movarounnahrda zardushtiylik, moniylik, buddaviylik kabi dinlar bilan kurashda yerli xalq oʻrtasida singdirila borildi. Islom dini dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan birga, asta-sekin uning nazariy, falsafiy, huquqiy, adabiy kabi tomonlarini ishlab chiqishga eʼtibor kuchaygan. IX-X asrlarga kelib Islom

falsafasiga asoslangan maxsus islom ilmlari, ya'ni islomning turli tomonlama asosini mustahkamlash va uni talqin etishga qaratilgan maxsus diniy ilmlar shakllana boshladi.

Islomiy ilmlarning shakllanishi va rivojida musulmon Sharqidagi qadimiy madaniy an'analarga boy bo'lgan Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan olimlar, ko'p hollarda zo'r iste'dod va ijod namunalarini ko'rsatib, musulmon olamida nom qozondilar. Masalan, IX-X asrlarda tez rivojlangan hadis shunoslikning mashhur bo'lishida vatandoshlarimiz bo'lgan Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Abu Iso at-Termiziy, kalom ilmning rivojida Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Mu'in an-Nasafiy, fiqh-islom huquqshunosligida Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, al-Kosoniy kabilarning ulushi ulkan edi.

IX-X asrda yashab ijod etgan, qadimgi ilmiy an'analar, jumladan, yunon, hind ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lgan hamda islomning ma'naviy ta'sirini bevosita guvohi bo'lgan katta qomusiy olimlar asarlarida o'z davrida ilmlar tizimi, ta'rifi va ifodasini topishi bilan birga, ularni «qadimgi yoki an'anaviy ilmlar» hamda yangi – «arab ilmlari» deb ikki yo'nalishda bayon va tahlil etishga uringanlar. Bu dunyoviy ilmlar hamda islomiy ilmlar tizimidan iborat edi.

An'anaviy ilmlar qadimgi yunon ilmlari asosida vujudga kelgan falsafiy ilmlarning turli yo'nalishlarini – matematika, fizika, geografiya, kimyo kabilari, shuningdek, falsafa, mantiq, axloq kabilarni tashkil etgan. O'sha davr olimlari, "Ixivon as-safo" to'garagining a'zolari, Forobiy, Abdulloh Xorazmiy va boshqalar diniy, islomiy ilmlar, aniqrog'i arab ilmlari sifatida islom falsafasi nazariyasi bo'lmish kalom ilmi, hadisshunoslik, shariatga asoslangan fiqh – huquqshunoslik, Islom falsafasini tafsirlash kabi masalalarni, shuningdek, arab tili va grammatikasi, arablar tarixi (islomdan so'nggi) kabilarni sanab o'tganlar.

Islom ilmlari ichida avvalam bor ilohiyot falsafasi– kalom, so'ng hadisshunoslik, fiqh–huquqshunoslik, Islom falsafasi tafsiri muhim o'rin egallagan va sof diniy masalalardan tashqari turmushning barcha jihatlarini qamrab olgan.

IX-X asrlarga kelib qadimgi yunon ilmiy merosini islom Yaqin Sharqida o'rganish va uning keng yoyilishi natijasida ularni turlicha talqin etishga intilish, masalan, mu'taziliylar ta'limoti va uning turli yo'nalishlarining vujudga kelishi hamda ularni tanqid etish jarayonida paydo bo'lgan fikrlarni tizimga solish zaruriyatga aylandi.

X-XI asrlarda kalom va yunon falsafasining natijalarini qorishtirishga intilish mavjud edi. IX-XII asrlarda islomning qonun-qoidalariga asoslangan tasavvuf yo'nalishi shakllanib, Markaziy Osiyoda keng yoyilgan. Bu yo'nalish, diniy dunyoqarash asosida fan, madaniyat rivoji imkoniyatini kengaytirishi bilan ularning yutuqlaridan foydalanish yo'llarini boyitgan. Tasavvuf ziyolilar orasida tarqalgan.

Markaziy Osiyoda tasavvufning kubraviya, yassaviya va uning davomi bo'lgan naqshbandiya yo'nalishlari vujudga kelgan. Tasavvuf tarixi, uning turli o'lkalarda namoyon bo'lishi, falsafa, adabiyot va ma'naviyatga ta'siri kabi masalalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjuddir.

VIII asrdan boshlab islomning ichida turli oqim, guruhlar vujudga kelgan va ular orasida ziddiyatlar kuchaygan. Turli sharoit, siyosat, kuch, mafkura ko'rinishlari ularga ta'sir ko'rsatgan. Islom olami sarhadlarining kengayishi tufayli mazkur hududda

yashovchi boshqa dinga mansub kishilarning fuqarolik maqomida bo'lishi, ularning ma'naviy dunyosini o'rganish orqali umumbashariy e'tiqodga erishish vazifasini ko'ndalang qo'ygan.

Turli xalqlarning din va mazhablarini muttasil ravishda ilmiy asosda o'rganishni musulmon olimlarigina yo'lga qo'yganlar. Bunga esa abbosiy xalifalar hukmronligi boshlangan davrdagi barcha madaniy merosni o'rganishga bo'lgan rag'bat tufayli vujudga kelgan qulay sharoit, ayniqsa, xalifa Ma'mun (813-833) va Bag'doddagi mu'taziliylar oqimining faoliyati sabab bo'lgan. Ma'mun saroyida ilmiy bahslar yuritiladigan ma'lum soatlar belgilangan edi.

Ilmiy munozara xalifa huzurida yarim kechagacha davom etar edi. Bunday majlislarda boshqa dindagi xalqlarning vakillari, masalan, ma'jusiylar dinining peshvosi, moniy mazhabidagilarning ruhoniysi, hatto hech qanday mazhabga e'tiqod qilmaydigan, ya'ni dinsizlar vakili ham ishtirok etganlar. Ma'mun bunday bahslarni haqiqatni topishga boshlovchi eng asosiy vosita deb bilgan. Uningcha, fikriy g'alaba qudrat asosida emas, balki hujjat va dalil asosida bo'lmog'i lozim edi.

Bunday an'analar tufayli musulmonlar ilk islom davridayoq Tavrot va Injil kitoblari bilan tanishganlar. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Osorul boqiya» asarida Injillar mazmunini turlicha ekanligini qayd etgan. Abu Homid G'azzoliy va Ibn Taymiya (XIV asr) ham Injillar haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lganlar.

Islom hududidagi aqidaviy qarama-qarshilik faqat yahudiylar bilan nasroniylargagina qarshi bo'lmay, balki ma'jusiylarga ham qarshi qaratilgan. Mu'taziliylardan bo'lgan Abu Huzayl Allof (841y. vafot etgan) ma'jusiylar aqidasi rad etishga bag'ishlangan oltmishta risola yozgan.

Islom falsafasi deb atalgan tushuncha faqat qotib qolgan qoidalar yig'indisidan iborat bo'lmay, o'z ichiga tashabbuskor g'oyalarni ham jamlagan keng ma'nodagi qarashlar majmuasi edi.

Aql bilan dinni bir-biriga uyg'unlashtirish Ibn Sinodan oldin al-Kindiy va Abu Nasr Forobiylardan boshlanib, uzluksiz davom etib kelayotgan edi. IX asrda vujudga kelgan «Ixvon as-safo» to'garagi bu ishga katta hissa qo'shgan.

Kalom, dastavval islomda paydo bo'lgan xilma-xil diniy-siyosiy oqimlar (xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar) paydo bo'lishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqqan bahslar, hamda musulmon aqidasi ega bo'lmagan aqida vakillari (mazdakiylik, xristianlik) bilan bo'lgan fikriy kurashlar natijasida vujudga kelgan. Kalomga xos bo'lgan uslub va muammoni birinchi marta Ibn Dirhom (742-743 yilda qatl et.) ijodida uchratish mumkin. U faqat aqlgagina tayanish talabi bilan chiqqan. U mu'taziliylar bilan bu haqda Termiz va Marv shaharlaridagi masjidlarda qizg'in bahslar olib borgan. Uning shogirdi Jahm ibn Safvon (745 yilda qatl et.) o'z ustozining g'oyalarni rivojlantirib, vahiydan qat'iy nazar aql xayr bilan sharni ajratishga qodir ekanligini ta'kidlagan.

Tayanch iboralar: *Islom dining Markaziy Osiyoga yoyilishi, Islomdan oldingi Sharqdagi madaniy an'analar, Iskandariyadagi ilmiy maktab, Iskandariya kutubxonasi, islom ilohiyoti-Kalomning shakllanishi, hadisshunoslik, fiqh-huquqshunoslik, tasavvuf tariqatlari (yassaviya, kubraviya, naqshbandiya).*

Adabiyotlar:

1. Ma'naviyat yulduzlari. T., Abdulla Qodriy nomidagi Meros nashriyoti, 1999.
2. Материалы по истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т., «Fan», 1976.
3. Очерки по истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т., «Fan», 1977.
4. Qodirov M. Kalom falsafasining ahamiyati. «Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari» to'plami. 1994, may.
5. Qodirov M. Islomda mantiq ilmi. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 1994, aprel.
6. Qodirov M. Ismoil Jurjoniy, Mahmud Chag'iniy, Najmiddin Kubro. «Buyuk siymolar, allomalar». T., «Meros» nashriyoti, 1995.
7. Qodirov M. Najmiddin Kubro va uning «Odob ul zokirin» asari. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1995, №9.

8-ma'ruza

Kalom ilmida Ash'ariya ta'limoti tarixi va uning vakillari

Dars rejasi:

1. *Abul Hasan Ash'ariyning tavalludi va ilmiy faoliyati*
2. *Ash'ariya ta'limoti va uning vakillari*
3. *Ash'ariyning Bag'doddagi kalom maktabi.*

Olimning to'liq nomi Abul Hasan Ali ibn Ismoil (873-935) – ilohiyotchi olim, Basrada tug'ilib, otasi Basra mu'taziliylarirahbari bo'lmish Abu Ali Jubbaiydan ta'lim oladi. Uning 100 lab risolalaridan 2 tasi saqlanib qolgan: 1-“Maqolat al-islamiyyin” 2-“Al-Lum'a”.

Siyosiy va diniy bahslar avj olgan murakkab sharoitda Bag'dodda Abul Hasan al-Ash'ariy (874-933) kalomning yangi maktabi bo'lgan ash'ariylik oqimining asoschisi sifatida chiqib, ilk islomiy aqidalar bilan kalomni murosasozlik yo'li bilan saqlab qolmoqchi bo'ldi.. Ilgarigi ilohiyotchilardan farq qilib, Ash'ariy va uning izdoshlari ilk islomni mantiqiy va falsafiy dalillar yordamida saqlab qolishga urindilar.. Ash'ariy aqliy usulni qo'llab, taqdirga ishonish va iroda erkinligi haqidagi ta'limotni ichki qarama-qarshiligini hal qilmoqchi bo'ldi. Uning tomonidan «kasb» (bajarish yoki o'zlashtirib olish) nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq qazo (qaror, hukm) xudoning azaliy va umumiy irodasi bo'lib, qadar (hokimiyat, iroda) esa, xudoning hukmini dunyo hodisalariga nisbatan qisman qo'llanilishi edi. Inson esa, ushbu xususiy qarorni faqat xuddi o'zinkidek, «kasb etishi» yoki «o'zlashtirishi» mumkin edi. Bu nazariyaga ko'ra, faoliyat xudo tomonidan yaratiladi, ammo iroda erkinligiga ega

bo'lgan inson tomonidan bajariladi va qo'lga kiritiladi. Garchi ash'ariylik oqimi o'zini oshkora mu'taziliylardan ajratgan bo'lsa ham, ammo ular uchun ham umumiy bo'lgan iroda erkinligi va aqliy yo'nalishda borishda davom etganlar.

Mu'taziliylik va ash'ariylik o'rtasida o'tib bo'lmas chegara yo'q edi. Abul Hasan al-Ash'ariyning o'zi mu'taziliylar safidan chiqqan edi.

Mazkur ta'limotning yirik vakillari: Al-Ash'ariy, al-Boqilloni (v.1013), Ibn Furaq (v.1015), Abu Is'hoq al-Isfaroniy (v.1027), Abdulqohir al-Bag'dodiy (v.1037), ash-Shahristoniy (v.1135), Faxriddin ar-Roziy (v.1209).

Tayanch iboralar: kasb, "Maqolat al-islamiyyin", "Al-Lum'a", iroda. Ash'ariyning Bag'doddagi kalom maktabi.

Adabiyotlar:

1. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abu Bakir Ahmad ash-Shahristoniy. Al-milal van nihal. – Qohira: M. Sayiid G'ayloniy, 1961.
2. Faxriddin ar-Roziy. E'tiqadot ul-firaqil-muslimiin val-mushrikin. – Qohira: 1356/1938.
3. Abu Mansur Abdulqohir al-Bag'dodiy. Al-farq bayn al-firaq. – Bayrut: Dor ul-kutub ul-ilmiya.
4. Abul Hasan Ali ibn Ismoil al-Ash'ariy. Maqaalat ul-islamiyyin. Helmut Ritter, Wiesbaden 1963.

9-ma'ruza

Kalom ilmida Moturidiy ta'limoti va uning vakillari

Dars rejasi:

1. Abu Mansur al-Moturudiyning hayoti va ijodi
2. Moturidiy ta'limoti-ahli sunna val jamoa
3. Moturidiyning bilish nazariyasi

Sunniy e'tiqodidagi ikki yirik oqimdan biri bo'lib, asoschisi Abu Mansur al-Moturudiy (870-944) bo'lib, hayoti haqida ma'lumotlar oz. Ta'limotning yirik vakillari: Abul Hasan ar-Rustug'foriy (v. 961), Is'hoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdulkarim al-Pazdaviy (v. 999), Abu Ahmad al-Iydiy.

Moturudiy "Imom al-Hudo" va "imom al-mutakallimin" ("Hidoyat yo'li imomi va "Mutakallimlar imomi") kabi nomlar bilan atalganlar. Kalomning asosiy maktablari bilan bir qatorda Samarqand va Buxoroda Abu Mansur al-Moturudiy (870-944) asos solgan Moturidiya maktabi ham mavjud edi. Uning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad al-Hanafiy al-Moturudiy as-Samarqandiy edi. Al-Moturudiyning hayoti haqidagi dastlabki muhim ma'lumotni Abu al-Mu'in an-Nasafiy (508G'1114y.) bergan. U o'zining «Tabsirat al-adilla» asarida Samarqand kalom maktabini tavsiflab, Moturidiyning bu sohadagi ilmiy maqomi va xizmatlarini ko'rsatib o'tgan. Abu al-Mu'in an-Nasafiyning zamondoshi Abu al-Yusur al-Pazdaviy

(vaf. 493G‘1100y.) ham o‘zining «Usul ad-din» asarida al-Moturidiy haqida ma‘lumotlar keltirgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Moturidiy fiqh va kalomdan mashhur olim bo‘lib yetishgan Abu Nasr Ahmad al- Iyodiy va Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniylardan ta‘lim olgan. Moturidiyning bizgacha faqat «Kitob at-tavhid» va «Ta‘vilot ahli as-sunna» nomli asarlarigina yetib kelgan. «Kitob at-tavhid» 1970 yilda Bayrutda nashr etilgan. «Ta‘vilot ahl as-sunna» asarining birinchi jildi 1971 yilda Sayyid va Ibrohim Avadaynlar tomonidan nashr etilgan. «Ta‘vilot ahli as-sunna» asarining yana bir nomi «Ta‘vilot al-Islom falsafasi» bo‘lib, kitobning ikkinchi jildi sifatida hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 5126 raqami ostida saqlanmoqda.

Moturidiy asarlarining mazmuni naqadar Islom falsafasi, hadis va aql-idrok, mantiq va haqiqatga yaqin ekanligi bilinib turadi. U «Kitob at-tavhid» asarida o‘zga toifadagi firqalarga qarshi shunday so‘zlarni aytgan: «Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar. Ibrat va tafakkur esa ilm manbalaridan biridir».

Al-Moturidiy ta‘limoti mu‘taziliylar kabi faqat aqlga suyanishni emas, balki aql bilan naqlni qo‘shib foydalanishni zarur, deb bilgan. Moturidiy islom ilohiyotida qazo va qadar, ya‘ni inson taqdiri borasida ham o‘zining mulohazalarini bayon etgan. U insonda tanlash erkinligi, ya‘ni har kimning ixtiyori o‘zida ekanligini ta‘kidlagan. Xudoning yagonaligini isbotlashda Moturidiy bilimning uch xil yo‘liga tayangan. U naqlda ko‘rsatilganlardan boshlab(som),aql ko‘rgazmasiga(dalolat al-aql) yetib kelgan va yaratilgan narsalar tufayli hosil bo‘ladigan his-tuyg‘u (dalolat al-istidlol bi-l-xalq) bilan o‘z dalillarini tamomlagan. Moturidiy va uning asarlari bilangina Movarounnahr kalom tarixiga birinchi marta qadam qo‘ygan. Moturidiyning bilish nazariyasi o‘ziga xos va jozibali edi. U dunyoni bilishni ikki turga: qadim va hadis bilishga ajratgan. Qadim bilishda Allohni tanish, hadis bilishda esa mavjudotlarni tushunish ko‘zda tutilgan. Kasbiy bilish ham tarixiy va istidloliy bilish sifatida ikkiga ajratilgan. Xabar yo‘li bilan hosil qilingan bilishga tarixiy, aqlga tayangan bilishga esa istidloliy nomi berilgan. Moturidiy insonning bir narsani bila olishi faqat mavjud narsalarni o‘rganish va tekshirish vositasidagina amalga oshishini e‘tirof etgan. Uning fikricha, bilish aql va uning nazoratida rivojlangan tajriba va kuzatish orqali qo‘lga kiritilishi mumkin.

Uningcha, tajriba narsalar mohiyatini tushunishning faqat bir qismidir. Boshqa qismlarini aql va zehn unsurlari tashkil etadi. Aql insonga berilgan so‘nggi va ayni bir vaqtda cheklangan bir huquqdir. Shu sababdan aql va tajriba bilan ham bilib bo‘lmaydigan narsalar mavjud bo‘lib, ular boshqa ma‘lumotlar orqali hosil qilinishi mumkin. Bunday ma‘lumotlar qatoriga Moturidiy inson qalbida tug‘ilishi mumkin bo‘lgan ilhom lahzalarini kiritgan.

U insonni tafakkur qilish qobiliyati tufayli ilohiy mavjudot, deb hisoblagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 2000 yilning oktabrida buyuk islom olimi Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi.

Tayanch iboralar:, «kasb» nazariyasi, qazo (qaror,hukm), qadar (hokimiyat, iroda), «kasb etish», «o‘zlashtirish», mo‘taziliylar aqidasi, Moturidiya maktabi, Abu al –Mu‘in an-Nasafiy, «Tabsirat al-adilla», «Usul ad-din», Abu al- Yusr al-Pazdaviy, Abu Nasr Axmad al-Iyodiy, Abu Bakr Axmad al-Juzjoni, «Kitob at-tavhid», «Ta’vilot ahl as-sunna», «Ta’vilot al-Islom falsafasi», som, dalolat al-aql, dalolat al-istidlol bil-xaq.

Adabiyotlar:

1. Izbrannyye proizvedeniya mysliteley stran Blijnego i Srednogo Vostoka. M., izd-vo sotsialno-ekonomicheskoy literatury, 1961.
2. Ulrix Rudolf. Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. Kniga izdana koordinatsionnym byuro Fonda im. Fridrixa Eberta po sentralnoy Azii. Almaty: Fond «XXI vek», 1999.
3. Al-Farabi. O razume i nauke. Izdatelstvo «Nauka» Alma-Ata, 1975.
1. Abduqodir Zohidiy. Turkistonda O‘rta asr arab-musulmon madaniyati Toshkent, 1993. y.
2. Nasr S.X. Islomda ilm-fan va sivilizatsiya. Garvard,1968 (ingliz tilida).

10-ma’ruza

Moturidiya va Ash’ariya ta’limotlari o‘rtasidagi farqlar

Dars rejasi:

1. Ikki buyuk mutakallim ta’limotlari o‘rtasidagi lafziy ixtiloflar
2. Ikki buyuk mutakallim ta’limotlari o‘rtasidagi ma’naviy ixtiloflar

Olim Hasan ibn Abdulmuhsin ibn Uzabanning “Ar-Ravza al-bahiyya fiymo baynal-ash’ariya val-moturudiya” asarining birinchi bo‘limida lafziy ixtiloflar (farqlar)ni keltirib o‘tadi.

Lafziy ixtiloflar:

1. iymonda istisno masalasi;
2. baxtli inson faqir, muhtoj holga tushadimi va faqir kishining baxtli saodatli bo‘lishi masalasi;
3. kofir kishiga in‘om ehson ko‘rsatiladimi, yo‘qmi?
4. payg‘ambarlar vafotlaridan keyin ham payg‘ambarlik rutbasida qoladilarmi yoki yo‘qmi?
5. ixtiyor etishlik bilan rizolik o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi;
6. imon al muqallid ;
7. kasbiy (qo‘lga kiritishdagi) bilish masalasi.

Mazkur asarning ikkinchi bo‘limida ma’naviy farqlarning bayoni keladi:

1. Alloh taolo o‘z itoatkor bandasini azob uqubatga solishi joizmi yoki nojoizmi?
2. Alloh taoloni bilish shar‘iy vojibmi yoki aql yo‘li bilan bo‘ladimi?

3. Afʼollarning sifatlari haqidagi masala: ular qadimiymi yoki yangitdan paydo boʻlganmi?
4. Alloh taoloning kalomi eshitiladimi yoki eshitilmaydimi?
5. Inson qodir boʻlmagan ishni uning zimmasiga yuklanishi joizmi yoki nojoizmi?
6. Gunohi kabira va gunohi sagʻiralardan anbiyolarning maʼsum boʻlishlari vojibmi yoki vojib emasmi?

Ashʼariyada molikiy, shofiy, hanbaliy imon masalasi boʻyicha fikri: “Imon- til bilan iqrar boʻlish, dil bilan tasdiqlash va amal qilishdir... Imon koʻpayadi va kamayadi”. Moʻmin musulmon boʻlishi uchun mazkur uch rukn shart qilinadi. Moturudiy Abu Hanifa izidan borib, “Imon- til bilan iqrar boʻlish, dil bilan tasdiqlashdir... koʻpaymaydi ham kamaymaydi ham. Imon yaxlitdir, faqat uning nuri yorugʻlashadi yoki xiralashib turadi... Imonning ikki rukninniado etib amallarni bajarmagan kishi kofir boʻlmaydi, balki faqat gunohkor boʻladi” degan fikrni ilgari surgan.

Tayanch iboralar: “Ar-Ravza al-bahiyya fiymo baynal-ashʼariya val-moturudiya”, Olim Hasan ibn Abdulmuhsin ibn Uzaba, lafziy farqlar, maʼnaviy farqlar, imon masalasi.

Adabiyotlar:

1. Husniddinov 3.M. Islom – yoʻnalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
2. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1991.
3. Al-Moturidiy taʼlimoti va uning X-XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan oʻrni / Maʼruzalar toʻplami / Maʼsul muharrir M.Xayrullaev. - T., 1999.
4. Rudolf.U. Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. - Almaty: Fond «XXI vek», 1999.

11-maʼruza

Moʻtaziliya taʼlimoti tarixi va uning rivojlanishi

Dars rejasi:

1. *Moʻtaziliylar – kalomda birinchi yirik yoʻnalish*
2. *Moʻtaziliylarning 5 aqidasi*
3. *Moʻtaziliylarning aqlga katta eʼtibor berishlari*

Moʻtaziliylar kalomda birinchi yirik yoʻnalish vakillari hisoblanib, Damashq va Bagʻdod xalifaligi hayotida VII-IX asrlarda muhim oʻrin tutganlar. Hasan al Basriy (v.728) davrasidan shogirdalari Vosil ibn Ato (v.748) va Amr ibn Ubayd (761) larning ajralib chiqishlaridan bu nom qolgan. Ularning 5 ta asosini Abu Huzayl al Allof (v. 849) tomonidan quyidagi soʻngi holiga keltiriladi:

1. Al-adl – ilohiy adolat insonning irodasini aniqlaydi va Allohning faqat yaxshilik qilish qobiliyati va asrlar davomida tarkib topgan narsalar tartibining buzilishiga qo‘ymaslik sifati.
2. At-tavhid – qat’iy Allohning yagonaligiga sig‘inish, politeizm va antropomorfizmni inkor etadi.
3. Al-va’d val-va’id – Alloh mo‘minlarga jannat, kofirlarga do‘zax va’da qilgan bo‘lsa, o‘z va’dasida turishi lozim, ya’ni Payg‘ambar (sav) shafotlariyu Allohning Rahmon va Rahim sifatleri ham yordam bermasligi kerak. Chunki inson xatti harakati uchun to‘liq javob berishi lozim.
4. Al-manzila baynal-manzilatayn – gunohi kabira qilgan musulmon mo‘minlar qatoridan chiqariladi (murjiylar fikriga qarshi), kofir bo‘lib qolmaydi (xorijiylar fikriga ko‘ra), balki oraliq hayotda bo‘ladi. Shu fikr sababali ular Hasan Basriy davrasidan chiqadilar, chunki ularni munofiq deb hisoblaydilar.
5. Al-amr bil-ma’ruf van-nahy munkar – barcha usulda hatto qilich bilan bu hukmning bajarilishi lozim.

Ular umaviylar davlatiga raqobatchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatadilar. Zaydiylarga bo‘lgan xayrixohliklari tufayli Abbosiylar salbiy munosabatda bo‘ldilar. Ayniqsa. Xorun ar-Rashid ta’qib ostiga olindilar. Lekin Ma’mun va undan keyingi 2 xalifa Mu’tasim va Vosiq davrlarida (813-847) ahvol butunlay o‘zgarib, ba’zi yirik davlat mansablariga chiqdilar. Lekin Mutavakkil davrida (847-861) yana ta’qib ostiga olindilar. Buidlar davrida (945-1055) mo‘taziliy Abduljabbor (v. 1025) maktabi yana rivojlandi. XII-XIII asrlarda esa mo‘taziliylar fikri Xorazmda ham keng yoyildi.

Tayanch iboralar: Al-adl, At-tavhid, Al-va’d val-va’id, Al-manzila baynal-manzilatayn, Al-amr bil-ma’ruf van-nahy munkar, Xorun ar-Rashid, xalifa Mu’tasim va Vosiq, Mutavakkil.

Adabiyotlar:

1. Abu Mansur Abdulqohir al-Bag‘dodiy. Al-farq bayn al-firaq. – Bayrut: Dor ul-kutub ul-ilmiya.
2. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abu Bakir Ahmad ash-Shahristoniy. Al-milal van nihal. – Qohira: M. Sayiid G‘ayloniy, 1961.
3. Husniddinov 3.M. Islom – yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
4. Belyakov V. Zaslom islamskomu radikalizmu / Aziya i Afrika segodnya. 1997.

12-ma’ruza

Mo‘taziliya ta’limoti vakillari va ularnig aqidaviy qarashlari

Dars rejasi:

1. *Mo‘taziliylarning Bag‘dod va Basra maktablari*
2. *Yirik vakillarning aqidaviy qarashlari*

Mo'taziliylar tarixda doim biri biri bilan musobaqada bo'luvchi bir qancha guruxlarga bo'linganlar. Ularning eng yirigi IX-X asrlarda Basra va Bag'dod maktablari edi. Basralik davrada: Muammar ibn Abbad (v. 830), Abul Huzayl al-Allof an Nazzom (v. 845), al-Johiz (v.868), Abu Ali alJubba'iy (v.915) va uning o'g'li Abu Hoshim (v.933) eng yirik vakillari edi.

Bag'doddagi davraga Bishr ibn al-Mu'tamir (v.825) asos solgan bo'lib, bu davrada Sumama ibn al-Ashras (v.828), al-Murdaq (v. 840). Ahmad ibn Abu Dovud (v.854), al-Xayyot (IX asr), al-Ka'biy (v. 929) faoliyat ko'rsatganlar.

Bu ikki davra o'rtasidagi muhohaza mazmunini mo'taziliy Abu Roshid an-Naysaburiy (v.1024)ning "Al-Maso'il fil xilof baynal basriyyin val-bag'dadiyyin" kitobi ochib beradi.

Hokimiyat masalasida xalifa bo'lish lozimligini uqtiradilar. Ilk mo'taziliylar xalifa albatta qurayshlik bo'lishi shart emas deb, keyingi davrlarda qurayshlik loyiq odam bo'lsa boshqa kishi xalifa bo'lishi mumkin emas deb hisoblardilar. Ularning fikrlaricha, Allohning buyrug'i yoki imomning o'zi tayinlab ketish bilan imom bo'linmaydi, balki uning kelib chiqishidan qat'iy nazar musulmon jamoasidan saylanishi lozim; xoriijiyalar o'xshab imomning adolat etish sifati eng muhim deb hisolaydilar va o'zlarining 5 aqidalariga ko'ra adolatsiz imomini hatto kuch bilan bu lavozimdan chetlanish zarurligini ta'kidlaydilar.

Tayanch iboralar: Abu Roshid an-Naysaburiy (v.1024)ning "Al-Maso'il fil xilof baynal basriyyin val-bag'dadiyyin", Muammar ibn Abbad (v. 830), Abul Huzayl al-Allof an Nazzom (v. 845), al-Johiz (v.868), Abu Ali alJubba'iy (v.915) va uning o'g'li Abu Hoshim (v.933), Bishr ibn al-Mu'tamir (v.825) asos solgan bo'lib, bu davrada Sumama ibn al-Ashras (v.828), al-Murdaq (v. 840). Ahmad ibn Abu Dovud (v.854), al-Xayyot (IX asr), al-Ka'biy (v. 929)

Adabiyotlar:

1. Abu Mansur Abdulqohir al-Bag'dodiy. Al-farq bayn al-firaq. –Bayrut: Dor ul-kutub ul-ilmiya.
2. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abu Bakir Ahmad ash-Shahristoniy. Al-milal van nihal. – Qohira: M. Sayiid G'ayloniy, 1961.
3. Husniddinov 3.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
4. Belyakov V. Zaslom islamskomu radikalizmu / Aziya i Afrika segodnya. 1997.

13-ma'ruza

Xavorijlar haqida ma'lumot

Dars rejasi:

1. *Xorijiylarning kelib chiqish tarixi*
2. *Siffin jangi, xorijiy fiqqlar*
3. *Xorijiylarning ta'limotlari*

“Xaraja” arabcha soʻz boʻlib, chiqmoq, ajralib chiqqanlar, isyonchilar degan maʼnoni anglatadi. Islomdagi eng ilk diniy-ciyosiy oqim hisoblanib, xalifa Ali (ra) va Muoviya tarafdorlari oʻrtasida xalifalikda hukmronlik uchun kurash ketayotgan bir davrda vujudga kelgan. Siffin yaqinida 657 yili xalifa Alining Muoviya tarafdorlari (umaviylar) bilan muzokora olib borishga koʻnishi uni haqiqiy vorislik huquqiga ega deb hisoblagan tarafdorlarining oʻrtasida norozilik tugʻdirdi. Qoʻshinning bir qismi (12 ming kishi) xalifa Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib Kufadan Harura degan qishloqqa ketadilar. Shuning uchun baʼzi ilk manbalarda ularni haruriylar deb ham yuritiladi.

Xorijiyalar yigirma fiqqa boʻlingan. Quyida ularni keltirib oʻtamiz:

1) al-Muhakkimatul-Ula 2) Azoriqa 3) Najodot 4) Sufriya 5) Bir necha fiqqa boʻlingan Ajourida 6) ulardan Xozimiya 7) Shuaybiya 8) Maʼlumiya 9) Majhuliya 10) Asʼhob ut-Toat 11) Saltiya 12) Axnasiya 13) Shabibiya 14) Shayboniya 15) Maʼbadiya 16) Rushaydiya 17) Mukramiya 18) Hamziya 19) Shamraxiya 20) Ibrohimiya 21) Voqifiya 22) Ibodiya

Mazkur mazhablar ichidan yana fiqalarga boʻlinishiga qaramasdan, xorijiyalar baʼzi masalalarda bir toʻxtamga kelganlari borasida ixtilof boʻlgan. Al-Kaʼbiyning fikricha, mazhablar ichidan boʻlinishiga qaramasdan, xorijiyalar Ali, Usmon, ikki hakam, Jamalda qatnashganlar, ikki hakamning hukmini qabul qilgan har kishi va katta gunoh (gunohi kabira) qilgan kishilarni kofirga chiqarish hamda zolim xalifalarga qarshi isyon koʻtarish xususida birlashganlar. Abulhasan Ashʼariy ular Ali, Usmon, Jamalda qatnashganlar, ikki hakam va tahkimga rozi boʻlganlar bilan ikki hakam yoki birining ishini toʻgʻri deb hisoblaganlarni kofirga chiqarish va zolim xalifaga qarshi isyon koʻtarish haqida birlashganliklarini aytgan. Ammo u kishi Al-Kaʼbiyning katta gunoh qilganlarni takfir qilish toʻgʻrisida ittifoq qilganliklari borasida aytgan gapini qabul qilmaydi. Abdulqohir Bagʻdodiy (v.1037) dedi: “Bu masalaning toʻgʻrisi ustozimiz Abulhasanning aytgan gaplaridir. Al-Kaʼbiy gunoh qilganlarni kufrga chiqarish haqida birlashgan degan daʼvosi yolgʻondir”. Haqiqatdan ham ulardan boʻlgan Najodot fiqasi gunoh qilganlarini kofirga chiqarmaydi. Quyida xorijiy fiqalarning ayrimlarini koʻrib chiqamiz:

al-Muhakkimatul-Ula

Xorijiyalar “muhakkima” va “shurot” ham deyilardi. Ulardan kim birinchi boʻlib sotganini toʻgʻrisida ixtilof qildilar. Oʻsha kishi Mirdas al-Xorijiyning ukasi Urva ibn Xudayr ekanligi aytiladi. Boshqa tarafdin Yazid ibn Osim al-Muharibi ekanligi aytiladi. Oʻsha kishi Mirdas al-Xorijiyning ukasining qabilasidan boʻlgan Yoshkur oʻgʻillaridan biri ekanligi aytilgan. Mazkur kishi Siffinda Ali bilan birga boʻlgan. U kishi ikki tarafning hakamlilik haqida kelishganlarini koʻrgandan soʻng, otiga mindi va Muoviya tarafdorlariga hujum qilib, ulardan birini oʻldirdi. Keyin esa, Alining askarlariga ham hujum qilib, ulardan birini oʻldirib, baland ovozda shunday dedi: “Bilinki, men Ali va Muoviyani tark etdim va bu ikkisining qarorlariga itoat etmayman”. Hamdon qabilasidan bir kishi uni oʻldurguncha Alining tarafdorlari bilan urushdi.

Yoʻnalish taʼlimoti: Ali, Usmon, Jamal ishtirok etganlar, Muoviya tarafdorlari, ikki hakam, tahkimga rozi boʻlganlar va gunoh qilganlarni kufrga chiqarishdir.

Azoriqa

Ular Abu Rashid kunyali Nafi'ning izdoshlaridir. Bu firqa xorijiytlarning eng ashaddiysidir. Ta'limotlari:

a) O'zlariga muxolif bo'lganlarni mushrik hisoblaydilar. al-Muhakkimatul-Ula esa, o'zlariga qarshi bo'lganlarni mushrik emas, balki kofir deydi.

b) O'zlaridan bo'lganlarning bir qismi ular bilan hijrat qilmasdan joylarida qolsa, ularning ta'limotlarida sobit bo'lsa ham ular mushrikdir.

v) Ular dushmanlarining ayollarini va bolalarini o'ldirishni muboh sanaydilar.

g) Dushmanlarining yeri kufr diyor (daru kufur)dir.

d) Zinokorni toshbo'ron qilishni inkor etgan.

Najdot

Ular Najdot ibn Amir al-Hanafiyaning tarafdorlaridir. Uning sardor va boshliq bo'lishining sababi Nofi' ibn al-Azroq qa'da (ular bilan hijrat qilmasdan joyida qolganlar)dagilarni mushrik va dushmanlarining bolalari va ayollarini o'ldirish halol deganidan keyin undan Abufudayk, Atiya al-Hanafiyy, Roshid at-Tavil, Miqlas, Ayyub al-Azraqiy va bularga qo'shilgan guruxlar undan ajralib chiqib, Yamomaga ketdilar. Ular Najdotga Nofi'ning aytgan so'zlarini yetqazdi va unga bay'at berishdi. O'zlariga hijrat qilmasdan joylarida qolganlarni (qa'da) kufrda ayblaganlarni inkor etdilar. Ular Nofi'ning imomatini rad etdi va Najdotning imomatini qabul qildilar. Shunday bo'lsa ham uning imomati borasida ixtilof bo'ldi va uch firqaga bo'linib ketdi:

1- Bu firqa Atiya ibn al-Asvad al-Hanafiyy bilan Sijistonga yo'l oldilar. Sijiston xorijiytlari ularga qo'shildi. Shu sababdan Sijiston xorijiytlarini o'sha davrda "Ataviya" deyilardi.

2- Bu firqa Najdot bilan urushib, Abufudayk bilan ittifoq bo'ldi. Najdotni o'ldirganlar ham shulardir.

3- Bu firqa Najdotning qarashlarini to'g'ri deb bilgan va uning imomatini qabul qilganlar.

Sufriya

Bular Ziyod ibn al-Asfarning izdoshlaridir. Qarashlarining asosi azraqiylarning qarashlariga o'xshaydi, ya'ni gunoh ish qilganlarni mushrik deyishadi. Biroq sufriya muxoliflarining bolalarini va ayollarini o'ldirmaydi. Sufriyadan bo'lgan bir firqa jazo berilishi tayin bo'lgan ishlar qilingan paytda, shu ishni bajargan kishini ular qilgan ishlari bilan atalishi kerakligini aytadi. Misol uchun, zino qilgan, o'g'ri, tuhmatchi va qasddan odam o'ldirgan qotil kabi. Ularning fikricha, bunday odam na kofir, na mushrik. Namoz o'qimaslik, ro'za tutmaslik kabi haqlarida muayyan bir had (jazo) belgilanmagan har turli gunoh ish kufrdir, uni qilgan kishi esa, kofirdir. Ulardan yana bir firqa: "Gunoh qilgan kishini hokimning huzuriga olib kelib, jazosi berilmagunicha uni kufrda ayblab bo'lmaydi"-dedi. Ular Abu Bilol Mirdas ibn Jadir Axu Urva ibn Jadir min bani Rubay' ibn Hanzala al-Xorijiy va Imron ibn Hitton as-Sudusiylarning imomatini qabul qiladilar.

Ajorida

Bular Abdulkarim ibn Ajradaga ergashganlar. Avval u Atiya ibn al-Asvad al-Hanafiyning izdoshlaridan edi. Ajorida quyidagi fikrlarga ko'ra o'n firqaga bo'lingan:

a) Bola balog'atga yetganda islomga chaqiriladi. U balog'atga yetmasdan oldingi davrda uni majburlash kerak emas.

b) Azraqiylar dushmanlarining mollarini o'zlariga halol qilganlar. Aorida esa, egasi o'ldirilmagan bo'lsa o'ljalarni qabul qilmaganlar.

Tayanch iboralar: Siffin, 1) al-Muhakkimatul-Ula 2) Azoriqa 3) Najodot 4) Sufriya 5) Bir necha firqaga bo'lingan Aorida 6) ulardan Xozimiya 7) Shuaybiya 8) Ma'lumiya 9) Majhuliya 10) As'hob ut-Toat 11) Saltiya 12) Axnasiya 13) Shabibiya 14) Shayboniya 15) Ma'badiya 16) Rushaydiya 17) Mukramiya 18) Hamziya 19) Shamraxiya 20) Ibrohimiya 21) Voqifiya 22) Ibodiya

Adabiyotlar:

1. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abu Bakir Ahmad ash-Shahristoniy. Al-milal van nihal. – Qohira: M. Sayiid G'ayloniy, 1961.
2. Faxriddin ar-Roziy. E'tiqadot ul-firaqil-muslimiin val-mushrikin. – Qohira: 1356/1938.
3. Abu Mansur Abdulqohir al-Bag'dodiy. Al-farq bayn al-firaq. – Bayrut: Dor ul-kutub ul-ilmiya.
4. Abul Hasan Ali ibn Ismoil al-Ash'ariy. Maqaalat ul-islamiyyin. Helmut Ritter, Wiesbaden 1963.
5. Husniddinov 3.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
6. An-Naubaxtiy. Shiitskie sekti. M., 1966.
7. Hofiz az-Zahabiy. al-Ibar fi xabari man g'obar. – Quvayt: S. al-Munajjid, 1960-3.
8. Mahmud Shokir. At-Tarix al-Islamiy. V jildli. – Bayrut – Damashq- Ammon: 2000

14-ma'ruza

Islom dinida movarounnahrlik faylasuflar: Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino va ularning merosi

Dars rejasi:

1. *Forobiy din va falsafa haqida.*
2. *Forobiyning borliq haqidagi ta'limoti va fanlar tasnifi*
3. *Forobiyning bilish nazariyasi va mantig'i.*
4. *Abu Ali Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.*
5. Abu Ali Ibn Sino ilohiyoti.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' ibn Tarxon Forobiy vatanimizning dovrug'ini butun islom dunyosiga yoygan buyuk mutafakkir edi.

Abu Nasr Forobiy hijriy 260(873) yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan joyda Shosh-hozirgi Toshkentdan 200-260 kilometr Shimoliy-g'arbda joylashgan Forob (O'tror) degan joyda tug'ildi. U Forobda o'qidi, Shoshda bo'ldi, Buxoro va Samarqandda ta'lim oldi. Bag'dodda ilmiy izlanishlarini davom ettirib umrining oxirigi yillarida Xalabda, so'ngra Damashqda yashadi va shu yerda 950 yili vafot etdi.

